

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**O` Mansurov
A.Saydullaev
O.Raxmatullaeva**

YORDAMCHI TARIX FANLARI

uslubiy qo`llanma

Uslubiy qo`llanma Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining 2007 yil 28 fevraldaggi № 7G`4.23. sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

Toshkent - 2008

Annotatsiya

Ushbu uslubiy qo'llanma ta'lim to`g`risidagi nizom va Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq yaratildi. Unda Yordamchi tarix fanlarining maqsad va vazifalari, mazmuni to`g`risida bakalavriat talabalariga ma'lumot beriladi. Uni yaratishda mavjud ilmiy adabiyotlar, qo'llanma, metodik tavsiya, hamda internet materiallaridan foydalanildi.

Mas'ul muharrir:

T.f.d. prof. A.A.Madraimov

Taqrizchilar:

T.f.n. dots. M.Lafasov
t.f.n. dots. B.Qodirov

So`z boshi

Tarixni anglab yetish uchun asosiy manbalar bilan birga Yordamchi tarix fanlarini ham chuqur bilish zarur. Tarixni o`rganishda tadqiqotchi qator maxsus va yordamchi tarix fanlaridan keng ko`lamda ma'lumotga ega bo`lishi lozim. Yordamchi tarix fanlari bir-biri bilan bog`liq, bir-birini to`ldirsa-da, ularning har bir sohasining o`ziga xos maqsad va vazifalari, o`z yo`nalishi, usul va uslublari mavjud.

Yordamchi tarix fanlarining har biri alohida soha va tadqiqot predmetiga ega. Masalan: *Xronologiya* – turli xalqlarda va turli tarixiy davrlarda vaqtini qanday hisoblashganini, ulardagi taqvimlarni bir-birlari bilan qanday bog`lash, taqqoslash mumkinligini, tarixiy voqealarning sanalarini aniqlaydi. *Numizmatika* – tangalar tarixi bilan shug`ullanadi, *geneologiya* – shajara va sulolalar tarixini, *metrologiya* – uzunlik, og`irlik o`lchovlari va o`lchov birliklarini, *paleografiya* - yozuvlarning paydo bo`lishi va rivojlanishini, *toponimika* – joy nomlari tarixini, *tarixiy geografiya* - davlat chegaralari, ularning turli davrlardagi o`zgarishlari, aholisining joylashuvini, *sfragistika* - muhurlar tarixi bilan shug`ullanadi. Ushbu fanlarning har bir sohasi o`z o`rganish yo`nalishiga ega bo`la-da, ular bir-birlari bilan uzviy bog`langan va manbashunoslikni tashkil etadi, ular manbalarni chuqur o`rganishga qaratilgan. Mazkur fanlarni an'anaviy tarzda “Yordamchi tarix fanlari” deb ataymiz. Ular tarixni har tomonlama mukammal o`rganishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yuqorida qayd qilingan fanlarning ko`pchiligi alohida mustaqil fanlar darajasida bo`lib, ularga nisbatan “Maxsus tarixiy fanlar” iborasi ko`pchilik tomonidan qabul qilingan. Bu fanlar mazmuniga ko`ra tarixning quyidagi sohalarini – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy (savdo-sotiq, tovar pul munosabatlari, soliq, yerning maydoni) madaniyat, san'atni o`rganadi.

Yordamchi tarix fanlari sohalariga tarixchilardan tashqari o`z tadqiqotlari bilan ekologiya, geografiya, irrigatsiya va boshqa mutaxassislar ham murojaat etadilar.

Mazkur uslubiy qo`llanmaga xronologiya, numizmatika kabi maxsus tarixiy fanlar kiritildi.

Uslubiy qo`llanmani tayyorlashda V.G.Iofe Xronologiya i metrologiya (Konspekt kursa lektsiy. T.: 2001), Z.Rahmonqulovaning “Xronologiya” (T., 2006), I.To`xtievning “Temur va temuriylar sulolasining tangalari” (T: Fan, 1992), «Numizmatika Sentralnoy Azii» nomli O`zR FA akademigi E.V.Rtveladze muharrirligidagi to`plami (T.: 2004), q.Boboyorovning «Drevnetyurkskie moneto` Chachskogo oazisa. (VI-VIII vv. n.e.)» (T: Izd-vo A.Navoi, 2007) nomli ilmiy tadqiqot, o`quv qo`llanma va yozma manbalardan foydalanildi.

Ushbu uslubiy qo`llanma ilk tajriba sifatida yaratilayotgani uchun unda ayrim xato va kamchiliklar bo`lishi mumkin. Uning to`g`risida mutaxassislar o`z fikrini bildiradi, umiddamiz.

I – Bob. Xronologiya

1-Mavzu: Kirish. Xronologiya fani predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. Kirish. Xronologiya fani predmeti, maqsad va vazifalari
2. Yevropada xronologiya fanining vujudga kelishi va taraqqiyoti.
3. O`rta Osiyo olimlarining xronologiya rivojlanishiga qo`shgan hissasi

Kirish. Xronologiya fani predmeti, maqsad va vazifalari. Xronologiya tarixiy fanlarning rivojlanishi natijasida vaqtini o`rganadigan fan sifatida XVI asrda vujudga keldi. Xronologiya ilm sifatida Bobil, Misr, Yunoniston va Rimda shakllandi. O`rta asrlarda xronologiyaning rivojlanishiga O`rta Osiyolik olimlar ham o`z hissalarini qo`shdilar. Abu Rayhon Beruniyning “Al-osor al-boqiya ani-l-qoliya” (O`tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar), “qonuni Mas'udiy” asarlarida xronologiya faniga oid ko`plab ma'lumotlar berilgan. Umar qayyom kalendari esa mukammallik jihatidan Grigoriy kalendaridan ham ustun turadi. 1935 yilda Oliy o`quv yurtlarida tarix fakultetlari ochilgandan keyin boshqa tarixning yordamchi fanlari qatorida talabalarga xronologiya fani ham o`qitila boshlandi.

Xronologiya - yordamchi tarix fanlaridan biri bo`lib, u vaqt to`g`risidagi fandir. Xronologiya so`zi yunoncha so`z bo`lib, “xronos” – vaqt, “logos”- fan, ya`ni vaqtini o`rganish haqidagi fan deganidir. Xronologiya vaqtlarni o`rganish, hisoblash haqidagi fan sifatida ikki qismga bo`linadi, bular astronomik (matematik) xronologiya va tarixiy xronologiyadir. Astronomik xronologiyaning vazifasi - osmon jismlarining siljishi to`g`risidagi aniq astronomik davrlarning vaqtini aytib berishdir.

Tarixiy xronologiya tarixiy taraqqiyot davomida vaqtini hisoblash sistemasi o`rganadi, ularning o`zaro bog`liqligini, vaqtlarni bir hisob sistemasidan ikkinchisiga aylantirish uslublarini ishlab chiqadi. Tarixiy xronologiya yuqorida hisoblash sistemasidan tarixiy vaqtlarni hisoblashda amalda foydalanadi va tarixiy manbalardagi sanalarning aniqligini tarixiy taqlil qiladi.

Insoniyatning xo`jalik hayotidagi ehtiyoji vaqtini hisoblash zaruratiniz yuzaga keltirdi. Qadimda vaqtini hisoblashda tabiatning doimiy takrorlanib turuvchi hodisasi bo`lgan sutka, kun, tun, oy fazalarining o`zgarishi, Yerning yillik aylanma harakatidan foydalanilgan. Asta-sekin vaqtini aniq hisoblashga bo`lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Buning uchun osmon jismlar harakatini, umuman astronomiyani bilish zarur edi. Bundan tashqari yana bir vazifani, kun, oy, yillar o`rtasidagi farqlarni aniqlash zarurati ham tug`ildi. Buning uchun esa matematik hisob-kitobni puxta bilish lozim edi.

Xronologiya bilim sohasi rivojlanishiga Qadimgi Yunoniston va Rim olimlari Erot Kalipp, Gipparx, Varron, Ptolomeylar katta hissa qo`shganlar.

Gipparx - (eramizgacha 190-125 yillar) birinchi bo`lib Oyning o`lchamini va undan Ergacha bo`lgan masofani aniqlagan. U shaxsiy kuzatuvlari natijasida quyosh yilining uzunligini deyarli aniq hisoblab chiqqan (xato 6 daqiqa). Olim o`sha davr uchun ulkan hisoblangan 850 ta yulduzlarning holati katalogini tuzgan edi.

Klavdiy Ptolemy - mashhur "Almagest" asari muallifi. Asar o`rta asrlargacha astronomiyaga oid asarlarning sarasi hisoblangan. Shuningdek, Ptolemy sakkiz kitobdan

iborat "Geografiya" asarining muallifi hamdir. U kartografik proektsiyalar nazariyasini ham yaratgan.

Uning "Podshohlarning xronologik jadvali" asari xronologiyaga oid muhim manba hisoblanadi.

Mark Terentsiy Varron (eramizgacha 116-27 yillar xronologiya fanining rivojiga katta hissa qo'shgan. U qomusiy olim bo'lib olti yuzga yaqin asarlar muallifidir. Terentsiy Varron asarlarining aksariyati xronologiyaga bag'ishlangan.

VII asr oxiri - VIII asrning birinchi choragida yashagan ingliz monaxi, solnomachi Beda Dostopochtenniy xronologiyaga oid "Dunyoning olti yoshi" nomli asar muallifidir. Uning asarida xristian erasining asoslari haqida ma'lumot beriladi.

Yevropada xronologiya fanining vujudga kelishi va taraqqiyoti. XVI asrda fransuz olimi J.Skaligyer tarixiy xronologiyada tizimlashtirishni amalga oshirdi. U yulian uslubidagi solnomalar tahririni ishlab chiqadi. 1583 yilda J.Skaligyer "Vaqtni hisoblash yuzasidan yangi tadqiqot" nomli asarini e'lon qiladi. 1582 yilda italyan olimlari A.Liliya va I.Danti yangi kalendarni tuzib chiqadi. Bu kalendar tarixda Grigoriy kalendar nomi bilan shuqrat qozonadi. XVII asrda fransuz monaxi D.Petavi ham vaqtni hisoblash yuzasidan tadqiqotlar olib boradi.

XVIII asrda Rossiya olimlari ham xronologiya faniga oid tadqiqotlar olib borgan. "Rossiya tarixi" kitobining birinchi jiltida V.N.Tatishev yozgan maxsus bir bob "Yilning boshida vaqtni hisoblash" deb nomланади. Bu davrda M.V.Lomonosov, M.M.Sherbatov, I.N.Boltin va A.L.Shletsyer Xronologiya bilan jiddiy shug`ullandilar. XVIII asrga kelib Yevropada xronologiya mustaqil tarixiy fanga aylandi. Bunga qator angliyalik matematik va astronomlar o'z xissasini qo'shdilar. XVIII asr o'rtalarida lord Chesterfildning tashabbusi bilan mamlakatda Grigoriy kalendar qabul qilindi.

1825-1826 yillarda nemis astronomi X.L.Idelyer tomonidan yozilgan ikki jildlik "Matematik va texnik xronologiya", L.Brossening "Xronologiya texnikasiga doir" (SPb., 1868), F.Kaltenbrunn Yerning "Grigoriy kalendar i slohoti tarixidan" (Vena, 1876), O.E.Gartmanning "Rim kalendar" Leyptsig., 1882), Ya.I.Makdonaldning "Xronologiya va kalendar" London., 1897) asarlari xronologiya fanining taraqqyyotida asosiy o'rinni egalladi.

XIX asr boshlariда Rossiya tarixning yordamchi fani sifatida xronologiyaning ahamiyati yanada yuksaldi. "Rossiya davlati tarixi" kitobining birinchi jildida N.M.Karamzin Qadimgi Rusda yil hisobi to'g'risida ma'lumot beradi. XIX ning birinchi yarmida V.Shteyngel va K.Trominlar yilnomalar kalendar masalasini tadqiq qiladi. P.V.Xavskiy Rusda yilnomalar tarixiga oid tadqiqotlar va yulian kalendarini Grigoriy kalendariga taqqoslashga doir xronologik jadvallarni tuzadi. 1850 yilda, D.M.Perevoshikovning pravoslav cherkovida qabul qilingan vaqtni hisoblash qoidasi" nomli kitobi nashr qilindi. XIX asr oxirlarida D.I.Prozovskiy nasroniylikkacha bo'lgan davrda slavyan - rus vaqt hisobi va Qadimgi Rusda soatni hisoblash asoslarini ishlab chiqdi.

XX asrga kelib xronologiya tarixning asosiy yordamchi fanlaridan biriga aylanadi. Bu davrda quyosh, Oy-quyosh kalendarlariga doir tadqiqotlar yuzaga keladi. 1906-1914 yillarda nemis olimi F.Gintsel uch jilddan iborat "Matematik va texnik xronologiya" nomli kitobini yozadi.

Zamonaviy xronologiyaning rivojlanishida E.Meyyer (1904), R.Parkyer (1950) (Misr kalendarlari), M.M.Underxil (1921) hindlarda xronologiya fani, M.Malyer yahudiy kalendarlari, S.G.Morley (1954) mayya xalqlarida vaqt hisobi, X.Mittsman «Rim xronologiyasi» (1957), E.Bikerman «Qadimgi dunyo xronologiyasi» (1966), R.Noygebauer, A.E.Shtamp, V.Grume kabi tadqiqotchilarning xronologiya uslublari va nazariyasiga oid tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etdi.

XIX asr oxirlarida Rossiyada Yulian kalendarini isloh qilish bo`yicha maxsus komissiya tuziladi. Unga mashhur olim D.I.Mendeleyev boshchilik qiladi. XX asr boshlarida xronologiya faniga oid ko`plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. N.V.Stepanov "Yangi uslub va provoslav pasxasi" (1907) kitobida yangi kalendarga o'tish zaruratini ta'kidlaydi. Olim tomonidan 1909-1915 yillarda rus solnomalari kalendar, Qadimgi Rus yil hisobi, mart va sentabr ultramart uslublari o`rganiladi va tadqiqotlar jamlanib, 1917 yilda "Kalendar - xronologiya ma'lumotnomasi" nashr qilinadi.

1918 yilda Rossiyada Grigoriy kalendar qabul qilinadi. Natijada yangi kalendar sistemasiga oid ko`plab ilmiy - tadqiqotlar olib boriladi. I.F.Polak "Kalendarning o`zgarishi" (1918) va "Vaqt va kalendar" (1928), O.A.Doblash - Rojdestvenskiy "Insonlar qanday qilib yilni hisoblashni o`rganadilar" (1922), N.I.Idelson "Kalendar tarixi" M.Mate, N.Sholkolarning "Hozirgi, o`tmishdagi va kelajakdagi kalendarlar" (1931) kabi asarlari o`sha izlanishlar mevasidir.

1938 yilda V.K.Nikolskiyning "Bizning yil hisobimizning paydo bo`lishi", 1941 yilda L.Klimovichning "Bayramlar va islom ro`zalari" nomli kitoblari nashr qilinadi. N.G.Berejkovning "XV asrgacha bo`lgan rus solnomalari xronologiyasi" nomli maqolasi va Rus solnomalari xronologiyasi" (M., 1963) nomli monografiyalari xronologiya faniga oid muxim taqiqotlardan biridir. Muallif rus solnomalarida mart, sentabr va ultramart uslublarida berilganligini isbotlaydi va rus solnomalari xronologiyasini o`rganishning uslublarini ishlab chiqadi.

1954-1956 yillarda BMTda yanada mukammal va barcha xalqlar uchun yagona bo`lgan yangi kalendarни o`rganish masalasi muhokama qilinadi. Natijada bir qator mamlakatlarda kalendarlarning astronomik asosi va yilni hisoblashning yangi uslublariga oid ilmiy tadqiqotlar yuzaga keladi. Jumladan, G.D.Mamedbeyli (1961), I.A.Orbeli (1961) muslimon yil hisobi, M.R.Raximov tojiklarda yil hisobi (1957) va G.Mcherlidzelar Qadimgi gruzin yil hisobi bo`yicha tadqiqotlar olib boradilar.

O`rta Osiyo olimlarning xronologiya rivojlanishiga qo`shgan hissasi. O`rta asrlarda xronologiya yanada rivojlanib bordi. Xronologiya rivojiga O`rta osiyolik olimlar, Ahmad al-Farg`oniy (797-865), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Umar Xayyom (1048-1131) va Mirzo Ulug`bek (1394-1449) katta xissa qo`shdi.

Ahmad al-Farg`oniy. Ahmad al-Farg`oniy ilmi-hay'at (falakiyotshunoslik-astronomiya, riyoziyot-matematika) va jo`g`rofiya (geografiya) fanlari bilan shug`ullandi hamda qator ilmiy asarlar yozib qoldirdi. Axmad al-Farg`oniy al-Ma'mun topshirig`iga binoan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va ularni aniqlash, yangicha "zij" yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Ahmad al-Farg`oniyning "Kitob al-harakat assamoviya va javomi' ilm an-nujum" (Samoviy harakatlar va umumiyl ilmi kitobi) asari astronomik asar hisoblanadi. Bu asar astronomiya asoslari haqidagi kitob" nomi bilan ma'lum bo`lib, 1145-1175 yillardan Yevropada lotin tiliga tarjima etilgan. Olim "Alfraganus" nomi bilan g`arbda shuhrat topadi. Uning mazkur asaridan asrlar davomida

Yevropa universitetlarida asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob zamonasining astronomiya haqidagi eng muhim zarur bo`lgan bilimlарини о`з ichiga oлган edi. Ahmad al-Farg`oniyning "Yerdagи ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagи hodisalar haqida" asari ham mashhur. Asarda Yerning yumaloqligi, bir xil osmon yoritqichlarining turli vaqtда ko`tarilishi, tutilishi va bu tutilishlar har bir joyda turlicha ko`rinish, masofalar o`zgarishi bilan ularning ko`rinishi ham o`zgarishi haqida qimmatli mulohazalar bildiriladi.

Abu Rayhon Beruniy. Abu Rayhon Beruniy Sharqning yorqin va ulug` siymolaridan biri hisoblanadi. Uning "Al osor al-boqiya ani-l-qurun al-qoliya" («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»), («Xronologiya»), «Qonuni Mas'udiy» asarlarida xronologiya faniga oid ko`plab ma'lumotlar berilgan. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarda arab, eron, so`g`d, xorazm, yunon kalendarini hamda asosiy vaqt birliklari, turli vaqt tartiblari xaqida batafsil ma'lumot bergen. Olim har bir xalqning o`z tarixi borligini ta'kidlar ekan, ularning nafaqat tarixi, balki vaqt hisobi hamda kalendarlari ham bir-biridan farq qilishini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy «Movarounnahr otashparastlari, ya'ni Xorazm va So`g`d aholisi ishlatadigan oylarni» bayon etadi. Movarounnahrliklarning kalendaridagi oylarining soni va yilning uzunligiga ko`ra Eronliklar kalendariga o`xshashi, faqat oylarning boshlanishi orasida farq borligini ko`rsatib o`tadi. Abu Rayhon Beruniy xorazmliklar kalendaridagi va kunlarining nomlarini ham keltirib o`tadi. Xorazmliklar «isfandorajiy» (o`n ikkinchi) oyining oxiriga qo`shiladigan ortiqcha besh kunning birinchisini oyning birinchi kuni nomi bilan atab, qolgan kunlarga ham birin-ketin kelgan kunlarning nomlarini berishlarini aniqlaganini ta'kidlaydi.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridan turkiy xalqlar o`n ikki hayvon nomi bilan ataluvchi muchal kalendarini va ularning nomlari haqida ham ma'lumot olish mumkin. Qolaversa, eronliklarning kalendaridagi o`n ikkita oy nomini ham shu asarda uchratish mumkin. Eronliklar tuzgan kalendarda har bir oy 30 kundan hisoblanib, qo`shimcha 5 kun o`n ikki oy oxiriga qo`shilgan. Abu Rayhon Beruniyning ko`rsatishicha bu 5 kun Qadimgi eron tilida «panji», «andargoq» deb atalgan. Keyinchalik bu nom arabchalashib, «andarjoq» o`zgartirilgan. Bu besh kun «o`g`irlangan kun», deb ham atalgan, ular biror oy kunlari hisoblanmagan. Eronliklar ularni «obonmoq» bilan «ozarmoq» o`rtasiga qo`yib, har bir oy kunlariga berilgan nomlarda boshqa nomlar bilan ataganlar. Eron kalendarida bir yil uch yuz oltmis besh kun bo`lgan. Ular chorak kunlar bir oy bo`lmaquncha hisobga olmaganlar. Bu bir yuz yigirma yilda bir marta bo`lgan. Shunda ortiqcha oyni yil oylari qatoriga qo`shganlar va u o`n uchinchi oy bo`lgan. O`sha yilni kabisal yil deb, ortiqcha oy kunlarini boshqa oylar nomlari ataganlar. Abu Rayhon Beruniyning ma'lumot berishicha, ular dastlab haftadan foydalanmaganlar. Olim bu haqida shunday ma'lumot beradi: «Dastlab haftalarni ishlatgan g`arb tomon aholisi, ayniqsa Shom va uning tevaragida yashovchilar bo`lganlar. Bunga sabab, u tomonda payg`ambarlar yuzaga chiqib, Tavrotda aytilganidek, birinchi hafta va bu haftada olam paydo bo`lganidan xabar bergenlar. Keyin bu odat ulardan boshqa millatlarga tarqalgan».

Beruniy Misr kalendariga ham to`xtalib o`tib, kalendaridagi eski va yangi oy nomlarini o`z asarida berib o`tadi. Misrliklar qo`shimcha besh kunni «abaqamno» (kichik oy), kabisali yilni esa «anqnaqt» (alomat) deb ataganlar. Qo`shimcha kun so`nggi «musriy» oyining oxiriga qo`shilgan. Beruniy «Shom mamlakati» (Suriya) kalendaridagi

o'n ikki oy nomlari va to'rt yilda bir marta beshinchi (shubat) oyga bir kun qo'shib hisoblashlari haqida yozadi. Bu manbaga ko'ra «Shom mamlakati» kalendaridagi oy nomlari keng tarqalgan, hatto arablar ham «dala ishlariga tegishli vaqlarni» shu oylar bilan belgilar ekan.

Abu Rayhon Beruniy «qonuni Mas'udiy» asarida Qadimgi arab kalendaridagi o'n ikkita oy nomini keltiradi, lekin ularning faqat ikkitasining lug'aviy ma'nosini berib o'tadi. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»da zamonaviy arab kalendaridagi o'n ikkita oy va yetti hafta kunining nomi va o'z ta'riflari ham keltiriladi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, arablar yaxudiylardan yilga qo'shimcha oy qo'shishni o'rganganlar va bu oyni «Ayyom an-nasi» deb ataganlar. Beruniy o'z asarida milodiy yil hisobiga ham to'xtalib o'tadi. U mazkur kalendarni «rumiy kalendar» deb ataydi va kalendararga birinchi marta kabisa yilini Yuliy Sezar kiritgan, deb yozadi. Olim milodiy yil hisobini Qadimgi xalqlarning qator yil hisoblari bilan qiyoslaydi. «Qonuni Ma'sudiy» asarining ikkinchi kitobi xronologiya masalalariga baqishlangan bo'lib, unda «Qadimgi xalqlaridan qolgan yodgorliklar» asarida ko'rilgan masalalar to'ldirilib, davom ettiriladi. Asarda Eron, Bobil, Rum podshohi va arab halifalari hukmronlik qilgan yillarining xronologik jadvallari keltirilib, ularning nomlari yunoncha transkriptsiyada berilgan. Shuningdek, mazkur asarda insoniyat tomonidan qo'llanilgan eralar, jumladan Yazdigard, Iskandar, Filipp, «Buxtunassar» (Nabonassar) erasini aniqlash masalalari xususida ham so'z boradi.

Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida bu o'lkada yashovchi xalqlarning urf-odatlari, geografiyasi va unga bog'liq astronomiyasi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, olim burjlar, oy fazalarining o'zgarishi, hind eralari, Oy va quyosh kalendarlari va oltmis yillik Yupityer davriyligi nomlarini keltirib o'tgan.

Umar Xayyom. Sharqning eng yirik rasadxonalaridan bo'lgan Isfahon rasadxonasini 1076 yili Umar Xayyomning iltimosiga ko'ra Malikshoh qurdirgan edi. Olim bu rasadxonada olib borilgan ko'p yillik kuzatishlari natijasida o'zining «Malikshoh ziji» asarini yozadi. Umar Xayyom xronologaya faniga qo'shgan katta hissasi kalendar islohotiga tegishlidir. Malikshoh Umar Xayyomga yil boshi Navro'z bahorgi tengkunlik bilan mos tushadigan yangi kalendarni topshiradi. Umar Xayyom bu davrda qo'llanib kelingan mashhur Julian kalendarining xatosi 128 yilda bir kunga teng ekanligi va bu xatoni takrorlamaslik uchun, yangi kalendarning yillarini yangi kombinatsiyada tuzishni taklif qiladi. Yangi kalendar loyihasiga ko'ra har o'ttiz uch yillik davrning dastlabki yigirma sakkiz yilda kabisa yillari xuddi kalendaridek yetti kabisa yildan, sakkizinchи kabisa yili esa odatdagidek uch yildan so'ng emas, to'rt yildan so'ng beshinchi yili qabul qilinadigan bo'ldi. Natijada, Umar Xayyom kalendarining yil uzunligi 365 sutka 5 soat 49 minut 5,5 sekundga teng bo'ldi. Ayni vaqtda Umar Xayyom kalendarining xatoligi aniqlangan bo'lib, u 19,5 sekundni tashkil etdi. Bu kalendaridagi xatolik 4500 yilda gina bir sutkani tashkil qiladi demakdir. Mazkur natija kalendar qanchalik mukammal tuzilganligidan dalolat beradi.

Umar Xayyom kalendarı Malikshoh tomonidan 1079 yil (xijriy qamariy 471 yil)da qabul qilindi. Umar Xayyom kalendarı Eronda XIX asrning o'rtalariga qadar qo'llanilgan. Bu kalendar Umar Xayyom kalendarı deyilishi bilan birga Malikshoh sharafiga «Jaloliy kalendarı» ham deb yuritilgan. Uning xronologiya faniga oid yana bir mashhur asari «Navro'znomá»dir. Asarda quyosh kendarlari tarixi batafsil bayon qilinadi. Navro'z

kunining qanday belgilangani, qanday nishonlangani to`g`risida ma'lumotlar hamda oy nomlarining lug`aviy ma'nosini ham beradi.

Mirzo Ulug`bek. Mirzo Ulug`bek «Ziji Ko`ragoniy» asarida vaqtini hisoblash masalalariga to`xtalib o`tgan. Olim yil kitobining sharq halqlari qabul qilgan usullarini bayon etib, “yunon, malikiy, xitoy va uyg`ur eralari» hamda ular orasidagi farq, mazkur eralardagi bayram kunlari to`g`risida batafsil ma'lumot beradi. Hijriy-qamariy kalendarlagi arab davriyligi, yil boshi va oy madqallarini aniqlash jadvallarini va formulalarini ko`rsatib o`tadi. Yevropada Mirzo Ulug`bek va Nasriddin Tusiyning yulduzlar jadvali katologi 1648 yilda Oksford universiteti astronomi Jon Grivas tomonidan nashrga tayyorlangan. 1650 yilda Mirzo Ulug`bek asarlarining xronologiyaga oid ma'lumotlari, Sharq xalqlarida yil hisobi, kalendarlarga doir qismlari nashr etiladi. Mirzo Ulug`bekning yulduzlar katalogi 1665 yilda Tomas Xayd tomonidan lotin va fors tillarida nashr qilinadi. 1853 yilda Mirzo Ulug`bekning bu jadvalarga bergen to`liq muqaddimasini Sedillot tarjimasi bilan nashr etilgan.

Xronologiya kalendarlarning rivojlanishi va o`zgarishi bilan chambarchas bog`liqdir. Kalendar so`zi lotincha «kalendarium» so`zidan olingan bo`lib, qarz kitobi ma'nosini anglatadi. Bu so`z shu narsa bilan bog`liqki, Qadimgi Rimda qarzdorlar oz qarz foizlarini oyning birinchi kunida to`laganlar.

Hozirgi paytda kalendar bu turli mamlakatlarda vaqt hisobi sistemasi bo`lib, uning asosida tabiatning davriy hodisalari, osmon jismlari harakatlari, vaqt oraliqlarining hisobi olib boriladi. Kalendarni o`rganish tarix fanining vazifasiga kiradi. Tarix fani esa bu o`rinda xronologiya faniga murojaat qiladi. Xronologiya turli hodisalar va hujjat sanalarini tuzishdan iborat vazifani bajaradi. Xronologiyada kalendarlar turlari, ularning paydo bo`lishi bilan bog`liq jarayonlar, ularning miqdoriy ko`rinishlaridan; Qadimgi Sharq davlatlariga xos kalendarlar; ularning ham shakllanish va taraqqiyot bosqichlari va shular bilan birga Qadimgi Yunoniston va Rimga xos kalendarlar tarixi ularning o`zlariga xos xususiyatlari o`rganiladi.

Tayanch tushunchalar:

Xronologiya - vaqt birligi, bo`linishini o`rganadi, “xronos”- vaqt, “logos”- fan Birinchi xronologiya haqidagi ma'lumotnomalar to`plami - XIX asrning 1-yarmida P.V.Xavskiy “Xronologiya jadvali”ni tuzgan.

Abahamno - Misrliklar qo`srimcha besh kunni (kichik oy) deb ataganlar.

Anqnaqt- Misrliklar kabisali yilni esa (alomat) deb ataganlar. «musriy» - Misrliklar qo`srimcha kunni so`nggi oyining oxiriga qo`shganlar va uni shunday ataganlar.

Kalendar - lotincha «kalendarium» so`zidan olingan bo`lib, qarz kitobi ma'nosini anglatadi.

Savol va topshiriqlar

1. Xronologiya fani predmeti nima?
2. Xronologiyaning maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
3. Tarixiy (texnik) xronologiya deganda nimani tushunasiz?
4. Astronomik (matematik) xronologiya deganda nimani tushunasiz?
5. Tarix fanini o`rganishda xronologiya kursining tutgan o`rniga baho bering?
6. Umar Xayyom kalendarining o`ziga xos xususiyatlarini aytинг?

Foydalanimanligan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. -T: O`zbekiston. 1992.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. - T: O`zbekiston. 1998.
3. Ahmad al-Farg`oniy. G` Ashraf Aqmedov tarjimas. O`zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, - T., 1998. - 158 b.
4. Iofe V.G. Xronologiya i metrologiya G` Konspekt kursa lektsiy. – T., 2001.
5. Mamadazimov M. Ulug`bek va uning rasadxonasi. -T: O`zbekiston. 1994.
6. Rahmonqulova Z. Xronologiya. A.Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, - T., 2006. - 135 b.

2-mavzu. Vaqt tushunchasi. Eng Qadimgi kalendarlar.

Reja

1. Vaqt tushunchasi. hafta, sutka, soat tushunchalari. Dastlabki soatlar.

2. Kalendarlar haqida tushuncha.

3. Kalendarlar va ularning turlari (quyosh, Oy, oy-quyosh kalendarlari)

Vaqt tushunchasi. Vaqtning eng muhim xususiyatlaridan biri uning bir tomonlama, ya`ni olg`a, kelajak tomonga yurishidir. Matematiklar ta`biri bilan aytganda, manfiy vaqt bo`lishi mumkin ham emas. Vaqtning o`lchash uchun sekund, daqiqa, soat, sutka, hafta, oy va yil birliklari qabul qilingan. Olingen va butun dunyo mamlakatlarida bir xil qabul qilingan. Aniq vaqtning asosiy manbai astronomik kuzatishlardir. Maxsus asboblar yordamida yulduzlarni kuzatib, aniq vaqtning (sekundning mingdan bir ulushlari aniqligida) topiladi.

Hafta va uning turlari. Vaqt - tabiatdagi davriy hodisaga, Yerning o`z o`qi atrofida aylanish davriga nisbatan hisoblanadigan o`lchov birligidir. O`rta asr solnomachisi Dostopochtenniy, «yilning uzunligini - tabiat, oyning uzunligini - an'analar, haftaning uzunligini belgilaydi», - deb yozgan edi. Vaqtning sun'iy birligi bo`lgan haftalar, Qadimda uch, besh va yyetti kundan iborat bo`lgan. Bobil va Shumyer matnlarida yyetti kunlik hafta mavjudligi haqida ma'lumotlar berilgan. Yetti kunlik hafta vaqt o`lchovi sifatida Sharqda Bobilda ishlatilgan. Rimda ham dastlab sakkiz kunlik hafta bo`lib, unga A harfidan N harfigacha bo`lgan nomlar berilgan. Rimda imperator Avgust davrida (eramizdan avvalgi 63-eramizning 14) yyetti kunlik hafta keng tarqalgan. Yetti kunlik hafta yahudiylardan misrliklarga, ulardan rimliklarga va so`ngra harbiy Yevropaga tarqalgan. Bobilliklar yettini «qutlug` son» deb hisoblaganlar. Bu sig`inish o`sha davrda ma'lum bo`lgan beshta “sayyora” - «planeta» yoki “daydib yuruvchilar” va ular qatoriga qo`shib hisoblangan Oy va quyosh bilan bog`liq bo`lgan. Ular Yer atrofida yetti sayyora - Oy, Merkuriy, Venera, quyosh, Mars, Yupiter va Saturn aylanadi, deb hisoblaganlar. haftalarga sayyoralarning nomi berilgan. Bu nomlarni rimliklardan so`ngra, harbiy Yevropa xalqlari ham qo`llashgan. Lotincha fransuzcha va inglizchada ularning ko`rinishlarini quyidagi jadvalda ko`rish mumkin.

hafta kunlarining nomlanishining astronomik ifodasi

Oy (dushanba)
Mars (seshanba)
Merkuriy (chorshanba)
Yupiter (payshanba)
Venera (juma)
Saturn (shanba)
Quyosh (yakshanba)

Qadimda sayyoralarining nomi soatlarga ham berilgan. Bir haftada 168 soat (24x7) bo`lgan. Shanbaning birinchi soatini (shuningdek 8, 15, 22-soatlarini) 23-soatini Jupiter, 24-soatini Mars boshhargan.

Yetti kunlik hafta harbda imperator Avgust davrida keng tarqaldi. Eramizdan avvalgi 321 yilda Konstantin "hamma fuqarolar quyosh kuni dam olsin", - deb farmon berdi.

Slavyanlarda ham yetti kunlik hafta bo`lib yakshanba "nedeley", ya`ni "hech narsa qilma", "ishlamaydigan kun" - deyilgan. Dushanba - "ponedelnik" - "nedeley" dan keyingi kun, vtornik seshanba) - "nedeli" dan so`nggi ikkinchi, sreda (chorshanba) - nedeli (haftaning o`rtasi), "chetverg", "pyatnitsa"-to`rtinchi va beshinchi kun deb ataladi. "Subбота"- sabbat" (shabat)-ya`ni, dam olish so`zidan olingan. Qadimgi Rusda zamonaviy yakshanba XVI asrgacha "nedeli" deb atalgan. Hafta so`zining o`rnida esa "sedmitsa" ishlatilgan.

Qadimgi Skandinaviya xalqlarida shanba - "laugarsday" "hammom kuni" degan ma'noni bildirgan. Bu shvedlarda (lorsday va larsdau) ham saqlanib qolgan. Ba`zi xalqlarda eston, latish, arab, grek va xitoyliklarda hafta nomlari tartib raqami bo`yicha atalgan. Haftalarni raqamlash Qadimgi Bobilda ham mavjud bo`lgan. Masalan: Saturn kuni baxtsiz hisoblangan bois, shu kuni ular biror bir ish bilan shug`ullanishmagan "shabbat" - "osudalik" nomini olgan. Shu nom keyinchalik arab va slavyan tillarida ham ishlatilgan.

Ba`zi xalqlarda haftalarning tartib raqami boshqacharoq qo`yilgan. Masalan, gruzin tilida beshta shanba mavjud. haqiqiy shanba - "shabati" dan tashqari yana, ikkinchi shanba (orshabati) - ya`ni, dushanba, uchinchi shanba (samshabati seshanba, to`rtinchi shanba (otxshabati) - chorshanba,beshinchi shanba (xutshabati) payshanba, juma - paraskevi va yakshanba - kriva deb ataladi. Forschada ham hafta nomlarida "shanba, so`zi olti marta takrorlanadi. Yakshanba - birinchi shanba, dushanba - ikkinchi shanba, seshanba-uchinchi shanba, chorshanba - to`rtinchi shanba va payshanba-beshinchi shanba tarzida. Juma - muqaddas kun hisoblanadi. Haftalarning forscha nomlari Kavkaz Osiyo xalqlari tomonidan ham ishlatiladi. Ozarbayjon tilida "bozor"- yakshanba, turkchada ham yakshanba -"pazar", "pazartesi"- bozordan keyingi kun deb ataladi. Angliyada vaqtlar shanba haftaning oxirgi kuni hisoblangan. Galfrid Monmutskiy (XII asr) asarlaridan bunga bir talay misol topishimiz mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, turli nomlarda va shakllardagi haftalardan foydalananligan.

Sutka va uning dastlabki shakllari. Yer sharining o`z o`qi atrofida bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt sutka deb ataladi. Sutka - vaqtning dastlabki o`lchov birligidir. Sutkaning 24 dan bir bo`lagi bir soat, soatning 60 dan bir bo`lagi daqiqa, daqiqaning 60 dan biri sekund deyiladi. Yer o`z o`qi atrofida notekis aylanishi ma'lum, ammo bu notekislik kichik bo`lib, 100 yilda sekundning mingdan bir ulushi bilan

o'lchanadi. Qadimda kecha va kunduzning almashishidan vaqt o'lchovi me'yorlari sifatida foydalanishgan. Qadimda grekcha "hemera" - sutka so`zi ikki ma'noda qo'llanilgan:

- 1) quyosh chiqishidan quyosh botishigacha bo`lgan vaqt oralig`i;
- 2) quyosh chiqishidan keyingi quyosh chiqishigacha bo`lgan vaqt oralig`i.

Lotincha "dies" - sutka so`zi ham shu ma'noni bildirgan. Qadimgi Yunoniston, Rim, Bobilda va Misrda sutka ertalabdan, O'rta Osiyoda kechqurundan boshlab hisoblangan. Oy kalendaridan foydalangan afinaliklar, germanlar, iudeylarda ham sutka-kun kechqurundan boshlangan. Zardushtiyalar esa quyoshning chiqishi bilan yangi kun boshlanadi deb hisoblashgan.

Sutkalarni dastlab misrliklar soatlarga bo`lganlar. Eramizdan avvalgi yilda Misr kohinlari sutkani 24 soatga bo`lishgan: Ular soatni kunduz, 2 soatni g`ira-shira payt, 12 soatni kechasi hisoblashgan. Bobilda ham bir sutkaning 12 soati kechasi hisoblangan. Geradotning ta'kidlashicha, greklar bobilliklarning shu sistemidan foydalanishgan. Gerodotning yozishicha, eramizdan avvalgi VI Ahamoniylar xukmdori Doro skiflarga yurishi davrida qo`riqchilariga vaqtini hisoblash uchun tugilgan arqon, tashlab ketadi. Ular har kuni bitta tugunni echganlar. qolgan tugunlarning soni shohning qaytishiga necha kun borligini bildirgan. Ahamoniylar hukmdorligi davrida vaqtini hisoblashning bundan ham mukammalroq usuli mavjud bo`lgan, lekin oddiy qo`riqchi askarlar yuqoridagi usuldan foydalanishgan.

Yerning yulduzlarga nisbatan bir marta aylanib chiqish davri sutkasiga va quyoshga nisbatan aylanish davri quyosh sutkasiga bo`linadi. Yulduz sutkasi uzunligi bahorgi teng kunlik nuqtasidan ikkita ketma-ket yuqori (yoki pastki) kulminatsiyalari orasidagi vaqtga teng. Yulduz sutkasi haqiyqiy (pretsessiya va nutatsiya hisobga olinsa) yulduz sutkalariga ajraladi. Bahorgi teng kunlik sutkasi nuqtasining pretsession harakati ta'sirida o`rtacha yulduz sutkasi Yerning o`z o`qi atrofida haqiqiy aylanish davridan 0,0084 sekundga qisqa.

Kundalik hayotimizda asosan o`rtacha quyosh vaqtidan foydalanamiz. O`rtacha quyosh - ekvator bo`ylab tropik yil ichida bir marta tekis aylanib chiqadigan hayoliy nuqtadir. O`rtacha quyosh markazining yuqori kulminatsiya payti o`rtacha tushlik payti deyiladi. O`rtacha quyosh vaqt shu paytdan boshlanadi. O`rtacha quyosh markazining pastki kulminatsiya payti yarim tun deb fuqaro vaqt shu paytdan (soat 24.00) hisoblanadi va kalendarda kun o`zgaradi. Astronomiyada 1925 yilgacha kun hisobi tush paytida o`zgarar, ya'ni yangi kun kunduzi soat 12 dan boshlanar edi. 1925 yildan boshlab astronomiyada ham fuqaro vaqtidan foydalanilmoqda.


Soat tushunchasi. Dastlabki soatlar. Soat - bu xalqaro birliklar tizimiga kirmaydigan vaqt o'lchov birligi, qiymati 60 daqiqa yoki 3600 sekundga teng vaqt oralig`i va vaqtini o'lchash uchun ishlatalgan asbobdir. Grekcha «hogo», inglizcha «hoig» soat so`zi dastlab «vaqt oralig`i, davr» kabi ma'nolarni bildirgan. Er. avvalgi IV asrlarda grekchada soat atamasi paydo bo`lgan. Odamlar vaqtini o'lchashga Qadimdan harakat qilib kelishgan. Ular quyosh, Oy harakatlanishini va boshqa tabiat hodisalarining muayyan vaqtarda takrorlanib turishini sezganlar va ulardan vaqtini o'lchashda foydalanganlar. Yunon olimi Ptolemey (mil. avv. II asr) sutkani soat, daqiqa sekundga bo`lgan. Vaqtini juda aniq o'lchash uchun maxsus astronomik kuzatishlar o'tkazilgan. Bu kuzatishlar samarasi o'laroq dastlab quyosh soati, keyinchalik suv va qum soatlari paydo bo`ldi. Ksenofontning ta'kidlashicha, soat kunduzi quyoshga, kechasi yulduzlarga hamda odam soyasining uzunligiga qarab soat aniqlangan. Eramizdan avvalgi 1800 yilda Misr kohinlari

kechasi bo`ladigan ibodatlarda yulduz soatlaridan foydalanishgan. quyosh va suv soatlarining paydo bo`lishi soatni yanada aniqroq bilish imkonini berdi. Misrda eramizdan er.avvalgi 1600 yillarda suv soatlari, eramizdan avvalgi 1450 yillarda quyosh soatlaridan foydalanishgan. Birinchi quyosh soati, ya'ni skafis bobillik Beros tomonidan er. av. III asrda quriladi. Dastlabki grek quyosh soatlari er. av. 550 yillarda Anaksimantu Miletksiy tomonidan yaratilgan. Rimda er. avvalgi 293 yildan boshlab quyosh soatlaridan foydalana boshlangan. Osiyo xalqlarida esa Qadimda qum soatlari keng tarqalgan. Bu soatlar uzun bo`limgan vaqt oralig`ini hisoblashga mo`ljallangan. Hozirda tibbiyotda qum soatlaridan foydalaniadi. Xitoyda olov soatlaridan foydalanishgan. Unda maxsus shamlar ishlatilgan. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda suv soatlari - klepidralar keng tarqaldi. Mazkur soatlar, aniq va qulay bo`lmasa-da, ma'lum bir qatlamdagi odamlarning ehtiyojini qondirgan. O`rta Osiyoda XV asrning birinchi yarmida Mirzo Ulug`bek Samarqandda 50 metrlik quyosh soatini bunyod etgan. Jamiyatdagi taraqqiyot natijasida aniq va qulay soatlarga bo`lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Mexanik soatlar bu davrga yangilik bo`lib kirdi. 578 yillardagi Vizantiya manbalarida mexanik (*g`ildirakli*) soatlar tilga olinadi. XI-XII kelib Yevropada mexanik (*g`ildirakli*) soatlar keng tarqaldi. Bunday soatlar odatda ratusha minoralariga o`rnatalgan. G`ildirakli soatlarning kamchiligi ularning ulkanligi va aniq emasligida edi. Rossiyada bunday soatlar dastlab 1404 Kremlga o`rnataladi. 1706 yilda Petr I buyrug`i bilan bu soat o`rnini Golland kuranti egallaydi. XVI asrda g`ildirakli soatlar o`rnini yangi soatlar egallaydi. 1640 yilda Galiley tomonidan mayatnikli soatlar loyihasi ishlab chiqiladi. Ushbu soat uning vafotidan keyin 1675 yilda Xristian Gyugens tomonidan yasaladi. Xristian Gyugens cho`ntak soatiga balansir spiral tizimini (hozirgi soatlarning assosiy mexanizmini) kiritdi va soatning aniq yurishi ancha yaxshilandi. I.P.Kulibin XVIII asrda tovuq tuxumidek keladigan murakkab mexanizmli mexanik soat yasadi. U har soatda zang urardi. Rossiyada birinchi zangli soat 1404 yilda Moskvada Blagoveshensk sobori yaqinida o`rnatalgan. Uni vizantiyalik Monax Lazar Serbin yasagan. XIX asrga kelib qo`l soatlari paydo bo`ldi. Bunday soatlar cho`ntak soatidan farq qilmasdi. Ularda qo`sishma qismlar, kalendor ko`rsatgichi, sekundamer, o`z-o`zidan burash mexanizmi ham bor edi. Dastlabki elektr soat Rossiyada 1840 yilda yaratildi. XX asrda elektr-mexanik, elektron-kvarts, molekulyar, atom soatlari yaratildi. Toshkentda 1947 yilda qurilgan Toshkent kuranti minorasiga to`rt siferblatli zangli elektr soat o`rnatalgan. Energiya manbaiga ko`ra soatlar atom, mexanik, molekulyar va elektr, tebranish tizimi mayatnikli, balansirli va kamertonli xillarga bo`linadi.

Kalendarlar va ularning turlari. (Tropik yil va kalendar yili, quyosh kalendari, Oy kalendari, Oy - quyosh kalendari) Biz tanishib o`tgan vaqt birligi sutka katta davrlarni o`lchash uchun kichiklik qiladi. Katta davrlarni o`lchash uchun sutkani ishlatadigan bo`lsak, juda katta sonlarni ifodalashga to`g`ri keladi. Vaqt birligi sutkani 10 baravar kattalashtirib ishlatish mumkin. Lekin Qadim zamonlardan beri insoniyat katta vaqt oralig`ini o`lchash uchun sutkadan tashqari hafta, oy va yildan foydalanib kelganlar. Vaqtning katta oraliqlari o`lchash birligi tabiiy birlik - yil deb Yerning quyosh atrofida bir marta to`la aylanib chiqish davri qabul qilingan. Ammo yil sutkalar bilan butun son orqali ifodalanmaydi, ya'ni sutka va yil karrali emas.

Quyosh o`zining ko`rinma harakati bo`yicha bahorgi teng kunlik nuqtasi Y dan ikki marta ketma-ket o`tishi uchun ketgan vaqt **tropik yil** deb ataladi. Uning davomiyligi 365 sutka 5 minut 46 sekundga yoki 365,242195 o`rtacha sutkaga teng.

Osmon sferasining asosiy nuqtalari va chiziqlari



Tropik yilning 365 sutkadan ortiq kasr qismi yil olib borishda ko`p noqulayliklarga sabab bo`ladi. Kundalik hayotimizda ishlatiladigan yil hisobi kalendar yili deb ataladi.

Kalendar atamasi lotincha salendagium - «qarz daftari» degan ma'noni anglatadi. Qadimda Rimda harzdorlar oyning birinchi kuni qarzlarining foizlarini to`laganlar va bu «kalenda»ga qayd qilib borilgan. Tabiatdagagi aniq bo`lgan vaqt hisobi birliklari sutka, oy, yil Qadimdan ma'lum bo`lib Qadimgi kalendarlarning asosini tashkil etgan. Biz kalendar deb shunday vaqt hisobi sistemasini aytamiz-ki, uning asosida osmon yoritqichlari harakatiga bog`liq tabiatning davriy hodisalari yotadi. Bunday sistemani yaratish birinchi bo`lib ilk neolit davrida sodir bo`ldi. Bu ishlab chiqarish xo`jalik shakllarining paydo bo`lishi bog`liq edi. Dehqonchilik va chorvachilik fasliy tabiat hodisalari bilan bog`liq edi. Insoniyat tomonidan qo`llanib kelingan kalendarlarni ikki asosiy guruhga bo`lishimiz mumkin. Bular quyosh va Oy hisoblaridagi kalendarlardir. Shundan kelib chiqib kalendarlarni uch guruhga bo`lishimiz mumkin.

- 1) quyosh kalendari
- 2) Oy kalendari
- 3) Oy-quyosh kalendari.

Quyosh kalendarida tropik yilning uzunligi asos qilib olinadi. Quyosh kalendarining uzunligi tropik yilning uzunligiga mumkin qadar yaqin bo`lishi kerak. Agar kalendar yili tropik yildan qisqaroq bo`lsa, biz o`lchayotgan vaqt oralig`ida ortiqcha vaqt qoladi. Masalan: yili Qadimgi Misrdagidek 365 sutka deb olingan, u tropik yildan deyarli 6 soat qisqa bo`lganligidan, 4 yildan so`ng quyosh bilan bahorgi teng kunlik nuqtasining birlashishi 21 martga emas, balki 22 martga, yana 4 yildan so`ng 23 martga to`g`ri kelar edi. Shunday qilib, kalendar yili tropik yildan qisqa bo`lsa, yil fasllari kalendar yilining keyingi kunlariga surila boradi. Bunday surilish bir necha avlod hayoti davomida sezilarli xatoga olib kelardi, ya`ni 60 yilda fasllar 15 sutkaga, 120 yilda bir oyga kech qolgan bo`lardi, 720 yilda esa xato olti oyga etib, martda kuz, sentyabrda bahor bo`lardi. Agar kalendar yilini 366 sutka deb olsak, u holda bir sutka emas, balki uch sutka xatoga yo`l qo`yilardi va teng kunlik nuqtasi quyosh bilan 21 martda emas, 18 yana to`rt yildan so`ng 15 martda to`g`ri kelgan bo`lar edi.

Yuliy Sezar Misr quyosh kalendarini o`rganib chiqadi va Rim Oy-quyosh kalendarini yangi **Quyosh** kalendarini bilan o`zgartiradi. Dastlabki Misr quyosh kalendarini

er. avvalgi 3 ming yillikda yaratiladi. Misr astronomlari eng yorqin yulduz bo`lgan Siriusning geliakik ko`rinishi, daryosidagi toshqin vaqtiga to`g`ri kelishini aniqlagan. Bu ikki hodisa esa bahorgi teng kunlik davriga to`g`ri kelgan. Misr kalendarida bir yilning uzunligi 365 sutkaga teng bo`lgan. Bir yil esa o`n ikkita 30 kunlik oylarga va qo`shimcha yana besh kundan iborat bo`lgan. Har to`rt yilda bir sutka xatolik vujudga kelardi. Mazkur Misr kalendarini bir necha asrlar davomida ishlatib kelangan. Mazkur kalendarini isloq qilishga bir necha bor urinib ko`rishgani.

Eramizdan avvalgi 238 yilda Ptolemeylar sulolasidan bo`lgan Everget kalendar islohatini o`tkazadi. U har 4 yilda yilning oxirgi kunidan so`ng xudolar kunini nishonlanadigan yana bir sutka qo`shishga farmon beradi. Bu hozirgi kun atamasi bilan aytadigan bo`lsak, kabisa yilidir. Lekin bu islohot amalga oshmay qoladi. Faqatgina Yuliy Sezarning tashabbusi bilangina amalga oshadi. Quyosh kalendarini Misrning yerli xalqi-koptlarda yaxshi saqlanib qolgan. Koptlar Misrdan tashqari, Sudan, Iordaniya, Turkiya, Iraq, Isroil va Efiopiyada ham yashashadi.

Julian kalendarining asoschisi Aleksandriyalik astronom Sozigendir. Mazkur kalendarida yilning uzunligi 365,25 sutkaga teng bo`ladi. Unda har to`rt yilning 3 yili 365, to`rtinchchi yili esa 366 kunga kabisa yili qilib qabul qilinadi. Lekin Julian kalendarini tropik yildan 0,0078 sutka (11 daqiqa 23,9 sekund) uzun edi. Natijada, har 128 yilda bu xatolik bir sutkani kilardi. XVI asrga kelib Julian kalendarini bo`yicha bahorgi teng kunlik 21 martga emas, balki 11 martga to`g`ri kelib qoldi. Julian kalendaridagi xatoliklarni ko`pgina olimlar, jumladan Mirzo Ulug`bek ham ta'kidlagan. Julian kalendaridagi xatolikni tuzatish maqsadida 1582 yilda Rim papasi Grigoriy XIII boshchiligidagi kalendar islohoti o`tkaziladi. Natijada, yangi bugungi kunda dunyoda ishlatib kelinayotgan Grigoriy kalendarini tuziladi. Grigoriy kalendarining uzunligi 365.242500 sutkaga tengdir. Grigoriy kalendarini tropik yildan 0.000304 sutkaga farq qiladi. Bu 3300 yilda bir sutkani tashkil qiladi.

Tarixda Grigoriy kalendaridan ham aniqroq kalendarlar mavjud bo`lgan. Shunday kalendarlardan biri 1079 yilda shoir, astronom olim Umar Xayyom tomonidan tuzilgan. Umar Xayyom kalendarini, Eron shohi Malikshoh tomonidan 1079 yilning 16 martida (bu davrda Julian kalendarini bo`yicha bahorgi teng kunlik shu kunga to`g`ri kelardi) yoki hijriy oy kalendarini bo`yicha 471 yilning ramazonida qabul qilindi. Bu kalendar Umar Xayyom kalendarini deyilishi bilan birga, ko`pincha Malikshoh sharafiga Jaloliy kalendarini deb ham yuritilgan.

Umar Xayyom kendaridagi kabisa yillari hisobi Julian kendaridagi farq qiladi. Unda 28 yil ichida Julian kendaridagidek har to`rtinchchi yili, keyingisi o`ttiz ikkinchi yilda emas, balki besh yil o`tkazib o`ttiz uchinchi yilda qo`shiladi. Demak, Julian kendaridagi bo`yicha 32 yilda sakkizta kabisa yili bo`lsa, Umar Xayyom kendaridagi 33 yilda sakkizta kabisa yili bo`ladi, ya`ni:

365*25 Q 366*8 q 12053 sutka

12053:33 q 365.2424 sutka

Bu esa tropik yildan 0.0002 sutka ortiq, xolos. Demak, Umar Xayyom kendaridagi 4500 yildan ortiq vaqtida bir sutka xato kelib chiqadi. Umar Xayyom kendarini Eronda 19 asrning o`rtalarigacha qo`llanilgan.

Oy kendaridagi. Quyosh harakatini kuzatishdan ko`ra, Oyni kuzatish osonroq. Shuning uchun Oy harakatiga asoslangan vaqt o`lchovi quyosh harakatiga asoslangan vaqt

o`lchovidan avvalroq qo`llana boshlagan. Oyning ko`rinish shakllari kun sayin o`zgarib turadi. Qadimdan insonlar Oyning shakllarining o`zgarib turishiga nazar solganlar. Oyning Yer atrofidagi harakatlanishi davrida quyoshga nisbatan egallaydigan vaziyatlari **Oy fazalari** deyiladi. Oy o`zidan nur chiqarmaydi, uni quyosh nuri yoki quyosh nurining qaytayotgan qismi yoritishi mumkin, shu tufayli Oyning fazoda quyoshga va Erga nisbatan qanday holatda turishiga ko`ra, u Yerdan qaralganda turli shaklda ko`rinadi. Har oyda Oy taxminan Yer bilan quyosh orasidan o`tadi va Yerga o`zining qorong`i tomoni bilan turadi. Bunga *astronomik yangi oy* deyiladi. Bir-ikki kundan so`ng quyosh botgach, osmonning harbiy qismida Oy ingichka o`roq shaklida ko`rinadi, bu xalq tilida **hilol yoki yangi oy (vizual yangi oy)** deyiladi. Bunda Oyning qolgan qismini Yer o`zining kunduzgi yarim sharidan qaytgan nurlari bilan xira kulrang ravishda yoritib turadi. Yetti kundan keyin Yerdan Oyga va quyoshga tomon yo`nalishlari orasidagi burchak 900 ga teng bo`ladi, bunda u yarim "**kulcha**" ko`rinib, Oyning bu fazasi birinchi **chorak** deyiladi. Taxminan 14-15 kunlik Oy quyoshga qarama-qarshi turib, uning quyosh bilan yoritilgan yarim sferasi to`laligicha Yerga qaraydi. Oyning bu fazasi **to`linoy** deb ataladi. Bunda Oyni to`la yoruq doira shaklida ko`rish mumkin. Keyingi kunlarda Oyning harbiy tomoni "emirila borib", 22-sutkada faqat qabariq tomoni sharqqa qaragan yarim doira shaklida ko`rinadi. Buni Oyning oxirgi chorak fazasi deyiladi.

29,5 sutkadan so`ng Oy yana astronomik yangioy fazasida bo`ladi. Ikki ketma-ket kelgan yangi oy orasida o`tgan vaqt Oyning **sinodik davri** deyilib 29 sutka 12 soat 44 minut 2,28 sekundga teng. *Siderik oy* –Oyning yulduzlarga nisbatan ikki ketma-ket kelgan bir xil vaziyati orasida o`tgan vaqt bo`lib, u 27 sutka 7 soat 43 minut 11,51 sekundga teng.

Oy atamasini biz ikki ma'noda ishlatamiz. Bosh harf bilan yoziladigan Oy - bu Yer sayyorasining tabiiy yo`ldoshi samoviy jismdir. Kichik harf bilan yoziladigan vaqt oralig`i o`lchovi, yuqorida aytganimiz sinodik oydир. Oy kalendari to`liq va to`liq bo`lmagan oylarga bo`linadi. To`liq oylar 30 kundan, to`liq bo`lmagan oylar 29 kundan iborat bo`lgan. Toq oylar 30, juft oylar 29 sutka qilib belgilangan. Oy kalendarida yilning davomiyligi 354.36706 sutkaga teng.

Oy kalendarida bir yil 354 sutka qilib ($29.5 \times 12 = 354$) olingan. Oy kalendari musulmon olamining yil hisobiga asos qilib olingan. U milodiy 622 yilning 16 iyul juma kunidan boshlab hisoblanadi. hijriy yil hisobi o`z navbatida **hijriy-qamariy (Oy)** va **hijriy-shamsiy** yiliga bo`linadi.

Oy kalendarida ham quyosh kalendaridagi kabi yillarini hisoblashda ba'zi muammolarga duch kelinadi. Oy kalendarining o`ziga xos jihatni uning juda aniqligidadir. Lekin Oy kalendarining "kamchiligi" u fasllarga mos tushmaydi.

Oy-quyosh kalendari. Dehqonchilik xo`jaligining rivojlanishi natijasida ekish, hosilni yig`ishtirib olish uchun aniq vaqt hisobi zarur ediki, bu narsa Oy fazalarining o`zgarishi va quyoshning harakati bilan bog`liq edi. Shuning uchun ham oy-quyosh kalendarlari tuzila boshlandi. Oy-quyosh kalendarining tuzilishi Oy va quyosh kalendarlariga qaraganda anchagina murakkabdir. Hozirgi kunga kelib quyosh kalendari jahonda xalqaro kalendor sifatida tan olingan.

Tayanch tushunchalar:

Salendagium - Kalendor atamasi lotincha - «qarz daftari» degan ma'noni beradi
Oy - o`lchov birligi, hafta vaqt birligi

- Oy kalendarlari** - ko`chmanchi (chorva) xalqlarda paydo bo`lgan
- Oy - quyosh kalendarlari** - O'troq (dehqonchilik) xalqlar kalendarı
- Vaqt o`lchov birliklari** - soat, minut, sekundlar
- Oy fazalari** - Oyning Yer atrofidagi harakatlanishi davrida quyoshga nisbatan egallaydigan vaziyatlari.
- Tropik yil** - quyosh o`zining ko`rinma harakati bo`yicha bahorgi teng kunlik nuqtasi Y dan ikki marta ketma-ket o`tishi uchun ketgan vaqtga aytildi.
- laugarsday** - Qadimgi Skandinaviya xalqlarida shanba - "hammom kuni" degan ma'noni bildirgan.

Savol va topshiriqlar.

1. Vaqt sanasi birligi tushunchasi (kun, oy, hafta) haqida ma'lumot bering.
2. Yil hisobi (tropik yil) haqida ma'lumot bering.
3. Dastlabki kalendarlarning paydo bo`lishi tarixi (quyosh, oy, oy-quyosh)ni ayting.
4. Qadimgi Yunon va Rim kalendarlari tarixini ayting.
5. Qadimgi Misr va Mesopatamiya kalendarlarining paydo bo`lishi va o`ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
6. Abu Rayhon Beruniyning “Osor-ul boqiya...” asaridan Qadimgi kalendarlar haqida ma'lumotlarni aniqlang, ularni bir-biriga qiyoslang.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Rahmonqulova Z. Xronologiya. Alishyer Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, - T., 2006. - 135 b.
2. Iofe V.G. Xronologiya i metrologiya G` Konspekt kursa lektsiy. - T., 2001.

3 - Mavzu: Qadimgi Yunoniston va Rimdag'i kalendarlar. Julian va Grigorian kalendarlari.

Reja:

- 1. Qadimgi Yunoniston kalendarlari.**
- 2. Rimdag'i kalendarlar. Julian va Grigorian kalendarlari.**
- 3. Zamonaliv kalendarlari.**

Yunoniston kalendarlari. Qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida Oy-quyosh kalendarini tuzildi. Bu davrda har bir polis o`z kalendarini ishlab chiqadi. Ular bir-biriga mos kelsa-da, har bir kalendarning afzallik tomonlari bor edi. Ular bir yilni har biri Yangi Oy bilan boshlanadigan o'n ikki oyga bo`lib chiqdi. Kalendarni fasllarga moslashtirish uchun qo`shimcha o'n uchinchi oy ham joriy qilingan.

Yunonistonning turli shaharlarida oylarning o`z nomlari bo`lsa-da, Afina kalendaridagi oy nomlari bir muncha keng tarqaldi. Ular:

- | | |
|---------------------------------|--------------------------------|
| 1. Gekatombeon (iyul) | 7. Gamelion (yanvar) |
| 2. Metageytnion (avgust) | 8. Antesterion (fevral) |
| 3. Boedromion (sentyabr) | 9. Elafebolion (mart) |
| 4. Pianepsion (oktyabr) | 10. Yu.Munixion (aprel) |
| 5. Memakterion (noyabr) | 11. I.Fargelion (may) |

6. Poseydeon (dekabr)

12. Skiroforion (iyun)

Yil quyoshning yozgi tik turish davridan (gekatombeon - iyul) boshlangan. Embolistik oylar ikkinchi poseydonga, ba'zida ikkinchi skiroforionga qo'shilgan. Embolistik yillarning tartibini oktaetarida egallagan, ya'ni, har sakkiz yilning uchinchi, beshinchi, sakkizinchchi yillari kabisa yili hisoblangan.

Eramizdan avvalgi 432 yilda olimpiada o'yinlarining 86-yilligiga bag'ishlangan tantanalarda Afinaning markaziga **parapegma** (yozuv, kalendar ma'nosini beradi) o'rnatiladi. Unda oylarning kunlari ko'rsatib turilgan. Grek kalendarini rivojlantirishda Kalipp va Gipparxlar katta rol o'ynagan. Qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarigacha voqealarni yozishda hukmron shaxslarning nomidan foydalanilgan. Afinada yil hisobi kalendar uchun ma'lum bo'lgan eponimlar-ijroiya hokimiyat (arxonlar)ning rahbarlari ismi bilan belgilangan. Eramizdan avvalgi IV asrda olimpiada asosidagi umum ellin yil hisobi keng tarqaldi.

Eramizdan avvalgi 776 yildan boshlab to'rt yilda bir marta bo`lib o'tadigan sport o'yinlari xalq tantanalaridan biriga aylandi. Olimpiya o'yinlari yangi yil boshlanishiga qarab belgilangan, chunki kalendar sistemasidagi xatolar tufayli olimpiadaning aniq vaqt belgilanmagan edi. Olimpiya o'yinlarining vaqtini jarchilar har bir shahar xalqiga e'lon qilgan. Olimpiya yil hisobi Qadimgi greklar hayotiga shunchalik chuqur kirib keldi-ki, ular o'z erasining boshlanishini Eramizdan avvalgi 766 yil birinchi iyul qilib belgiladi, chunki ayni shu kuni birinchi Olimpiya o'yinlari bo`lib o'tgan edi.

Olimpiya yil hisobi birinchi bo`lib, eramizdan avvalgi 264 yilda qadimgi grek tarixchisi Time tomonidan qo'llanildi va bu hisob VII asrcha davom etadi. 394 yili imperator Feodosiy I Olimpiya o'yinlarini bekor qiladi. Shunday bo`lsa-da Olimpiya yil hisobi darhol yo'q bo`lib ketmadi. Olimpiya yil hisobida tartib raqami va to'rt yilning tartib raqamidan foydalanilgan, masalan: greklar va forslar o'rtasida bo`lib o'tgan Salamin jangi 75,1 (ya'ni 75 olimpiadaning birinchi yili) bo`lib o'tgan. Grek kalendarini yil hisobini zamonaviy yil hisobiga aylantirish juda qiyin, chunki, turli grek shaharlarda turli xildagi yangi yil har xil vaqtida boshlangan kalendarlardan foydalanilgan.

Yunonlarda ilk kalendar qachon va kim tomonidan yaratilganligi ma'lum emas. Miken va Konek tekstlarda saqlanib qolgan ba'zi oy nomlarini o'qishning iloji bo'limgan. Ularda oy hisobi mavjud bo`lib, yangi oylarning kelishi bayram bilan kutib olingan. Dastlab greklar oylar nomlarini va yilda necha oy borligini hisoblamaganlar. Eramizdan avvalgi VII asrda Yunonistondagi polislardan biri Delfada kalendarlar reformasi o'tkazilgan degan ma'lumotlar mavjud. Bu Delfalik Frakul ijodida uchrab, undagi oy nomlari bayramlar nomi bilan bog`liq holda ko'rsatilgan.

Grek polislari oy - quyosh kalendarlaridan foydalanganlar. Afina va Delfada yil hisobi yangi oyning chiqishi bilan boshlangan. Sparta, Rodos, Krit va Miletda kuzdag'i tengkunlikdan yil boshlangan. Greklarda oylarning nomlanishi alohida e'tiborli bayramlar va aynan fasllar almashinushi bilan bog`liq bo'lgan. Greklarda qishloq xo'jaligi ishlari ham yulduzlarni kuzatuv asosida olib borilgan. Bunda yil boshi bo`lib yozgi quyosh tushishi iyundan olib borilgan. Ularda 7 kunlik hafta bo'limgan, ular hafta deganda vaqt hisoblash birligini tushunishmagan. Eramizgacha VI -V asrlarda Attikada oktaedriklar sistemasi mavjud bo`lib, sakkiz yil uy embolinistik yilda o'tgan. Shuning uchun yillar orasidagi farqlar har sakkiz yilda uch kunni tashkil qilgan. Bu greklarga xos vaqt hisoblash tizimi

ularda kalendarning shakllanishi uchun aniq xulosaga kelish imkonini bergen. Afinaliklarda kalendar 12 oydan iborat bo`lgan. Oylarning qachon boshlanishi belgilanmagan. Bu kalendar boshqa grek polislardagi kalendarlarga nisbatan ancha mashhur bo`lgan. Undagi oylar 29 yoki 30 kundan iborat bo`lib, yil 354 sutkani tashkil qilgan. Afinada yilning boshlanishi gekatabeon oyi iyul - avgustga to`g`ri kelgan. Afinada yilni to`g`irlash uchun ikkinchi Poseydon oyi 29-30 sutkali oy kiritilgan edi. Eramizgacha 432 yilda Afinalik astronom Metan 235 oy yili oylarini 19 quyosh yiliga teng deb, 19 yillik sikel 7 embolistik yil degan g`oyani olib chiqdi. Bu Metan sikli nomini oldi. U aniqligi bilan ajralib turardi. Afinada voqealarni hisoblash mansabdar - arxonlar nomi bilan olib borildi. Bu Metan siklida ham o`z ifodasini topgan bo`lib, bu haqiqatga yaqin edi.

Eramizgacha IV asrdan boshlab umumellin yil hisobi boshlandi. Olimpiya o`yinlari har to`rt yilda bir marta o`tkazilgan. Yillar har to`rt yilgi olimpiada o`yinlari bo`yicha hisoblangan. Rasmiy kalendarlar quyosh kalendarini rad qilgan, bu esa dehqonlarga noqulayliklar tug`dirgan. Shuning uchun dehqonlar yuqorida aytib o`tganimizdek, qishloq xo`jalik kalendarlaridan foydalanganlar. Bu ma'lumotlar bizga eramizgacha VIII asr yozuvchisi Gesiod asarlarida uchraydi.

Rimdagи kalendarlar. Julian va Grigorian kalendarlari. Qadimgi Rim kalendarining tuzilishi sanasi to`g`risida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Bizga ma'lumi shuki, Rimning afsonaviy asoschisi va hukmroni Romul (eramizdan avvalgi VIII asrning o`rtalari) davrida oy kalendaridan foydalanganlar. Kalendar bir yil 10 oy, jami 304 kundan iborat bo`lgan. Oylar tartib raqamlari (birinchi, ikkinchi, ... o`ninch) bilan nomlangan. To`rt oy 31 kundan (1, 3, 5, 8 oylar) va olti oy 30 kundan iborat bo`lgan.

Yil bahorgi tengkunlikdan boshlangan. “Romul yilini” astronomik yilga tenglashtirish maqsadida 10 oyning oxiriga qo`shimcha kunlarni qo`shganlar. Eramizdan avvalgi VIII asrning oxirlariga kelib to`rtta kalendar oylariga nom berildi. Yilning birinchi oy “Marius”, ikkinchi oy “aprilis”, uchinchi oy “mayus”, to`rtinchi oy “yunius” deb ataldi. Mazkur kalendar sinodik oy yiliga moi kelmasdi, lekin u quyosh kalenar sinodik oy yiliga mos kelmasdi, lekin u quyosh kalendar ham emasdi.

Eramizdan avvalgi VII asrda kalendar islohoti o`tkaziladi. Bu islohatni yarim afsonaviy shaxs Rim podshosi Numa Pompiliy boshladidi. U bir yilda kunlarning sonini 355 ga, oylarning sonini 12 ga yetkazdi. Numa Pompiliy islohati natijasida qo`shimcha yangi ikki oy paydo bo`lib yanuarus va februaris nomini oldi. Kalandarda 7 oy 29, 4 oy 31, bitta oy “februarius” 23 sutkadan iborat bo`ldi. “Februarius” oyiga har yili 5 kun qo`shiladigan bo`ldi. Islohotlar natijasida “Numa yili” astronomik bir oy yilidan bir sutka ortiq, tropik yildan esa 10,5 sutka qisqa edi. Shuningdek, bu davrga kelib yana bir necha oylarga nom berildi. Kalandarda yil bahorgi tengkunlik davridan boshlanardi.

Rim kalendaridagi birinchi oy Martius - ilgari chorvachilik va dehqonchilik, keyinchalik esa urush xudosi Marsga atab qo`yilgan.

Ikkinci oy - aprilis - lotincha “aperire”- “namoyon bo`lmoq”, “ochmoq” ma'nolarini bildiradi. Bu oyda hamma daraxt va o`simliklar ochilib gullay boshlagan.

Uchinchi oy Mayus - xudo Merkuriyning onasi Yer ma'budasi Maya nomi sharafiga.

To`rtinchi oy Yunius – Yupiter Yerning rafiqasi, osmon ma'budasi, ayollarning himoyachisi Yunona sharafiga qo`yilgan.

Keyingi oltita oy kalendaragi tartib raqami bilan atalib, Kvintilis – “lotincha”- beshinchı, sekstilis-oltinchi, september-yettinchi, oktober-sakkizinchi, november-to`qqizinchi, detsemler-o`ninchı degan ma'nolarni bildiradi.

O`n birinchi oy yanuaris deb atalib, ikki yuzli xudo Yanus nomiga qo`yilgan.

O`n ikkinchi oy februarius - yer osti podshosi februs nomiga qo`yilgan. Shuningdek, “februane” so`zi “tozalanmoq”, “poklanmoq” degan ma'nolarni bildiradi. Yilning oxirida ular poklanish marosimini o`tkazganlar. Fevral oyi oxiriga qo`shimcha kunlarni qo`shgan (masalan fevral 23Q5).

Eramizdan avvalgi VI asrda rimliklar mazkur oy kalendarini Oy-quyosh kalendariga aylantirishga urinib ko`rdilar. Buning uchun ular interkalyatsiya sistemasidan (qo`shimcha oylarni qo`shish) foydalandilar. Qadimgi Rim kalendariga har ikki yilda 20 kunlik qo`shimcha oyni joriy qildilar. Bu oy "Martsedonius"- martsedoniy oyi nomini oldi. Juft raqamlarni baxtsizlik ramzi hisoblangan rimliklar martsedoniy oyini 23-24 "februarius"- ning o`rtasiga joylashtirdilar. Mazkur islohatdan so`ng kalendar yili 365 kunni (355Q+355Q+20): 2 q 365 tashkil qildi va ularning yili ham Misr "daydi" yiliga teng bo`lib qoldi (Tropik yildan chorak sutka qisqa edi).

Yulian kalendarı. Rim imperatori Yuliy Sezar (er.av.100-er. 44) er.avvalgi 46 yilda kalendar islohotini o`tkazdi. Yuliy Sezar ungacha Misrda bo`lganida mahalliy kalendar uni qiziqtirib qo`ygandi. Yangi kalendarini tuzishda Aleksandriyalik **astronom Sozigen** faol qatnashadi. Kalendar islohotchilari oldiga Misr "daydi kalendarı"ni tuzatib, so`ngra uni qabul qilish vazifasi qo`yilgan edi. *Sozigen tuzgan bu kalendar Yulian kalendarı (Yuliy Sezar sharafiga) nomi bilan tarixga kiradi.*

Yulian kalendarida yilning boshi, yilning davomiyligi va qo`shimcha kunlarga alohida e'tibor berildi. Yulian "kalendarida yilning birinchi oyi sifatida yanvar qabul qilindi. Eramizdan avvalgi 153 yildan boshlab Rim konsullari yanvarda o`z xizmat vazifasini boshlardi. Yangi kalendarда eski kalendaridagi oylar nomi saqlanib qoldi. Bular: yanuaris, februaris, martius, aprilis, mayus, yunius, kvintilis, sekstilis, september, oktober, november, detsemlerdir. Kalendarida toq oylar (6 ta) 31 kundan (yanuaris, martius, mayus, kvintilis, september, november) juft oylar (fevraldan tashqari) 30 kundan (aprilis, yunius, sekstilis, oktober, detsemler) fevral 29, (30) kundan qilib belgilandi. Yulian kalendarı soddaligi bilan ancha qulay, ikki voqeа oralig`idagi uzoq davrda o`tgan sutkalar sonini topish ham ancha oson edi. Yilning uzunligi 365,25 sutkaga teng bo`lib to`rt yillik sikl joriy qilindi. To`rt yildan uch yili 365 kun (oddiy yil) to`rtinchi yili esa 366 kun (kabisa yil)dan iborat edi.

Eramizdan avvalgi 44 yilda senat Yuliy Sezarning xotirasiga (vafot etgan yili) Kvintilis oyi (Yuliy Sezar shu oyda tug`ilgan)ning nomini Yulius oyi deb o`zgartirdi. Eramizdan avvalgi 8 yilda imperator Avgust ham islohotini o`tkazadi. Chunki bu davrda (Tsezarning vafotidan keyin) Rimdagи kalendar bo`yicha mas'ul kohinlar kollegiyasi yilni hisoblashda xatolikka yo`l qo`yib kelmoqda edi. Ular ham to`rtinchi yilni emas, balki uchinchi yilni kabisa yili qilib hisoblaydilar. Natijada kalendar yili tropik yildan ancha orqada qolib ketdi (Yulian kalendarı o`zi tropik yildan 11 minut 14 sekund uzun).

Avgust islohati natijasida kohinlar yo`l qo`ygan xato tuzatildi. Natijada, eramizning 4 yilining 1 martidan boshlab, Yulian kalendarı oldingi holatiga qaytarildi. Rim senati tomonidan imperator Avgustning g`alabalari va kalendarini tuzatishdagi xizmatlari uchun "sekstilis" oyiga "Augustus" nomini beradilar. Sekstilus oyi 30 kundan iborat edi. Rimda

juft son baxtsiz raqam sanalgani va imperator nomi berilgan oy boshqalardan qisqa bo'lmasligi kerak deb hisoblab, u oyga yana bir kun qo'shdilar (fevral oydan bir kun olindi). Natijada uchta oy (yulius, augustus, september) ketma-ket 31 kundan bo'lib qoldi. Shuning uchun yilning oxiridagi to'rtta oyni o'zgartirdilar. Septembyer va novembyer 30 (ilgari 31) kundan, oktober, detsembyer oylari 31(ilgari 30) kundan bo`ladigan bo`ldi. Bu o'zgarish Julian kalendarining belgilangan tashqi strukturasini (toq oylar 31, juft oylar 30 kundan bo'ladi degan) o'zgartirib yubordi.

Bu davrda Rimda yetti kunlik hafta qabul qilindi. Rimga hafta tushunchasi Sharqdan I asrda kirib kelgan bo'lsa, faqatgina IV asrga kelibgina qabul qilindi. Sharqiy Rim (Vizantiya) imperiyasida ham Julian kalendaridan foydalanilgan. Julian kalendar keyinchalik zamonaviy kalendarни tuzishda asos bo`ldi.

Eramizdan avvalgi 44-yilda Yuliy Sezarga suiqasd qilib o'ldirilganidan keyin kalendarда yana o'zgarishlar ro'y berdi. Kvintilis oyi Yuliy Sezar sharafiga Julius (ya'ni iyul oyi) deb o'zgartirildi. Keyinroq senatning qaroriga ko'ra Sekstilis oyining nomini "Muqaddas kishi" unvoniga sazovor bo'lgan inson Oktivian Avgust nomiga "Avgust" deb o'zgartirdi.

Hisobda qulay bo'lgani uchun bu oyga bir kunni Febrariusdan olib berishdi. Boshqa ba'zi oylarning sutkalari ham o'zgartirildi. Yangi kalendar xristian cherkovi tomonidan Nikeya saborida 325-yilda qabul qilingan. Bu kalendarда yillar ham kabisa yili hisoblanadi. Masalan: Oxiri nol bilan tugagan yil kabisa bo`lgan: 1900, 1919, 1945, 1956-yillar ichida kabisa yili 1900-yilga to`g'ri kelgan. 1956-yil ham kabisa yili bo`lgan.

Julian kalendaridagi kamchiliklar va Grigorian kalendar. 325 yilda Nikey soborida Julian kalendarı yagona xristian kalendarı sıfatida qabul qilindi va ular 21 martni bahorgi teng kunlik kuniga mos keltirdik deb, o'yladilar. Xristianlarda diniy pasxa bayramini o'tkazishda buning ahamiyati katta edi. Ular bir necha asrдан so'ng haqiqiy baxorgi teng kunlik nuqtasi kalendariga to`g'ri kelmay qolganligini sezib qoldilar. XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib, bu farq 10 kunga yetdi, ya'ni bahorgi teng kunlik nuqtasi 21 mart emas, 11 martga to`g'ri kelib qoldi. Bu cherkovni tashvishga solib qo`ydi, ya'ni pasxa bayrami borgan sari yozga surila boshladi bu esa Nikey sobori qaroriga zid edi. Pasxa bayrami 21 martdan keyingi to`lin oydan so'ng bиринчи yakshanbada nishonlashi kerak edi. Julian kalendaridagi kamchiliklarni 1324 yilda Vizantiyalik olim Nikifor Grigora aniqladi va bunga imperator Andronika II diqqatini qaratdi. Lekin imperator kalendarini isloh qilishga ruxsat bermadi. Julian kalendaridagi kamchiliklarni XVI asrning bиринчи yarmida Vizantiyada yashovchi olim - Matvey Vlastar ham ta'kidladi. 1373 yilda Vizantiyalik olim Isaak Argir kalendarini isloh qilish zarurligini asoslab berdi. Julian kalendarini qaytadan isloh qilish zaruratini katolik cherkovi vakillari ham ta'kidladilar. Bu fikrni Kliment VI ham qo'llab quvvatladi. 1414 yilning martida kardinal Pyer d'Ali tashabbusi bilan kalendar masalasi muhokama qilindi. 1437 yilda bu masala Bazzel soborida ko'rib chiqildi. Unda uyg'onish davrining faylasuf olimi Nikolay Kuzanskiy (1401-1464) o'zining loyihasi bilan tanishtiradi. 1457 yili papa Sikst VI kalendarini islox qilish va pasxa hisobini to`g'rilashga tayyorgarlikni boshlab yuboradi. Shu maqsadda papa Rimga yetakchi nemis astronomi va matematigi Regiomont (1436-1476)ni taklif qildi. Lekin olimning bevaqt o'limi tufayli papa bu ishni keyinga surishga majbur bo'ladi. XVI asrda kalendar masalasi bilan Lyuteran (1512-1517) va Triden (1545-1563) soborlari shug'ullanadi. 1514 yilda Lyuteran sobori kalendar islohot bo'yicha maxsus komissiya tuzadi va Yevropada mashhur bo`lgan

astronom Nikolay Kopernik (1473-1543)ni Rimga taklif qiladi. Nikolay Kopernik o'sha davrda tropik yilining uzunligi aniqlanmagani uchun komissiya tarkibida ishtirok etishdan bosh tortadi.

Rim papasi Grigoriy XIII ning kalendar islohoti. XVI asr o'talariga kelib, kalendarni isloh qilish masalasi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo`lib qoldi. 1582 yilda Rim papasi Grigoriy XIII maxsus komissiya tuzdi, uning tarkibida Balon universiteti professori astronom va matematik Ignatiy Danti (1536-1586) ham bor edi. Bu komissiyaga yangi kalendar loyihasini tuzish vazifasi topshiriladi. Komissiya taqdim etilgan barcha kalendar loyihalarini ko`rib chiqib, italiyalik matematik va vrach Aloiziy Luiji Lilio (1520-1576) loyihasini ma'qul topdi. Luiji Lilio Perudji shahridagi universitetda meditsinadan dars bergen. Ushbu kalendar loyihasini uning o`limidan so`ng ukasi Antonio Luiji nashr qiladi. Kalendar loyihasi papa Grigoriy XIII tomonidan qabul qilinadi va kunni 10 kun oldinga surishga farmon beradi. Qabul qilingan loyihadagi tuzatishlar quyidagicha edi:

1. 1582 yil 4 oktyabr payshanba kunining ertasi 5 oktyabr emas, balki 15 oktyabr juma kuni hisoblanadi. Bu bilan yuqoridagi 10 sutka xato tuzatilib, baxorgi teng kunlik 21 martga to`g'ri keldi.

2. Kelgusida yana shunday xato yig`ilmasligi uchun 400 yilda 3 sutka kam hisoblanishi kerak, buning uchun Julian kalendarida 400 yilda 100 ta kabisa yili o`rniga 97 ta kabisa yili hisoblanadi. Julian kalendarida asrni ifodalaydigan raqamlarning to`rtga bo`linmaydiganlari kabisa yili emas, balki oddiy yil hisoblashga qaror qilindi. Masalan: 1600, 1700, 1800, 1900, 2000, 2100, 2200, 2300, 2400 yillar Julian kalendarida kabisa yillari, yangi hisob Grigoriy kalendarida esa faqat 1600, 2000, 2400 yillari kabisa yillari, qolganlari oddiy yil, chunki 17, 18, 29, 21, 22, 23 sonlari to`rtga bo`linganda qoldiq qoladi.

Grigoriy kalendarida yilning davomiyligi 365,242500 sutkani tashkil etib, tropik yilga qaraganda har yili 26 116 sekundga ortib boradi va salkam 3300 yilda bu bir kunni tashkil qiladi. Grigoriy kalendaridagi xatoning qiymatini aniqlash uchun dastlab kalendar yilining uzunligini aniqlashimiz kerak bo`ladi. Har 400 yilning 303 yili 365 kundan 97 yili esa 366 kundan iborat. Demak, to`rt asrda

303*365 Q 97*366 q 110595 Q 35502-146097
uni 400 ga bo`lamiz.

146097:400 q 365.242500

Demak, Grigoriy kalendar tropik yildan 0.000305 sutka ortiq. Bu esa 3280 yildagi xato bir sutka demakdir. Grigoriy kalendarini yanada aniq qilish mumkin. Buning uchun 4000 yilda bir marta kabisa yili kamaytiriladi. Natijada 4000 yilda 1.22 sutka farq paydo bo`ladi. Grigoriy kalendarida Julian kalendariga nisbatan kabisa yillarini hisoblash murakkab. Har ikkala vaqt oralig`idagi farqni hisoblashga kelsak, isloh qilingan vaqtida farq 10 sutka bo`lsa, 1700 yilning 29 fevralidan boshlab, bu farq 11 sutka bo`ladi, 1800 yilning 29 fevralidan boshlab esa, 12 sutka, 1900 yilning 29 fevralidan boshlab, 13 sutkaga etdi. 2000 yilda har ikkala hisobda ham kabisa yili bo`lganligidan 13 sutka farq 2100 yilning 29 fevraligacha o`zgarmay qoladi, undan so`ng 14 sutka bo`ladi.

1973 yilda butun dunyoda Kopernikning 500 yillik yubileyi nishonlandi. Uning eski hisob bo`yicha 1473 yil 19 fevralda tug`ilgani ma'lum. Lekin bizning bugungi kunda Grigoriy kalendarini ishlatalayotganimiz tufayli uni shu hisobga aylantirish zarur. Buni qanday

hisoblaymiz? XVI asrda ikki kalendar orasidagi farq 10 kun bo`lgan va bu bugungacha davom etgan. Bunda 325 yilda Nikey soborida Julian kalendarining qabul qilinganda bahorgi teng kunlik 21 martga to`g`ri kelganligini ham unutmasligimiz kerak. Ikki kalendar o`rtasidagi farqni 1 mart 1700 yildan quyidagi jadvaldan bilishimiz mumkin. Grigorian kalendarining qulaylik tomonlariga e'tibor qaratsak unda asosan yillar bir sistemaga tushirilib ular bo`yicha yuz yilliklar kiritildi.

1852 yil kalendar loyihasi qabul qilinganidan so`ng dastlabki vaqtning o`zida uni Grigorian kalendar nomi bilan Frantsiya, Italiya, Ispaniya, Janubiy Nederlandiya, Portugaliyada, Lyuksemburgda XV asrning 80-yillari Polshada, Shvetsariya, Chexiya, Avstriya, Vengriyaning katolik Kanton (viloyat)larida, 1610 yilda Polsha ta'siri ostida Prussiyada qabul qilindi. Protestant davlatlar Grigorian kalendarini uzoq yillar davomida qabul qilmay keldilar, ammo undagi aniqlik, qulayliklar tufayli keyinchalik ko`pgina davlatlarning tan oldilar. Ular Daniya, Norvegiya, Germaniyada 1700 yilda joriy etildi. Shimoliy Nederlandiya 1707 yil, Angliyada 1752 yilda, Shvetsiya va Finlyandiyada 1753 yil qabul qilindi. Imperator Iosif III ning dekreti bilan 1776 yilda Germanianing so`nggi protestant yerlarida ham, 1812 yilda esa Shvetsariyada qabul qilindi.

1873 yildan boshlab Osiyo mamlakatlari ham Grigorian kalendarini qabul qila boshladilar. Dastlab 1873 yilda Yaponiya, 1911 yilda Xitoy Grigorian kalendarini qabul qildi. Diniy farqlar tufayli Bolqonda ushbu kalendarning qabul qilinishi biroz kechikdi. 1916 yilga kelib Bolgariyada, 1919 yilda Ruminiyada va Serbiyada joriy qilindi. RSFSR sovnarkoming 1918 yil 28 yanvardagi dekreti bilan Rossiyada qabul qilindi. (dekretga muvofiq 1918 yil yil 31 yanvardan so`ng 1 fevral deb emas, balki 1918 yil 14 fevral deb belgilandi). 1924 yildan buyon Grigorian kalendar Yunonistonda, 1927 yildan Turkiyada, 1928 yildan buyon esa Misrda qo`llanilmoqda.

Ko`pgina davlatlarda qabul qilingan zamonaviy quyosh kalendarlari Qadimgi Rim vaqt hisobiga kiradi. Birinchi Rim kalendar Rimga asos solingan eramizdan avvalgi VIII asrda boshlangan. Yil kunlari 304 sutkadan iborat bo`lgan, 10 ta oy mavjud bo`lgan. Yil boshi 1-martdan boshlangan. Yil nomlari tartib sonlardan olingan bo`lib, faqat eramizdan avvalgi VIII asrda ulardan 4 tasi individual nom olgan. Yilning birinchi oy Martius, ya'ni urush xudosi Mars nomidan olingan. Ikkinci oy aprilis, lotin tilidan olingan, uchinchi oy ma'buda Mayya nomiga, to`rtinchi oy ma'buda Yunona sharafiga qo`yilgan. Qolgan oylarni nomida tartib sonlar nomi saqlangan:

Kvintilis - beshinchi

Sekstilis - oltinchi

Septembyer - yettinchi

Oktoubyer - sakkizinchi

Novembyer - to`qqizinchi

Destembyer – o`ninchi

Mart, may, kvintilis va oktoubyer 31 kundan iborat, qolgan oylar 30 kundan iborat. Eramizdan avvalgi VII asrda kalendar islohoti o`tkazildi. Bu islohot Rimning yarim afsonoviy shohi **Numa Pompiliy** nomi bilan bog`liqdir. Kalendar oy - quyosh kalendarini bo`lib qoldi. Ikkita yangi oy yanvarius-ikki yuzli xudo Yanus sharafiga qo`yilgan. Yanusni eshik xudosi ham deyishardi. Chunki eshik ikki tomonli bo`lib, birisi yangi yilni kutib olsa, ikkinchisi eski yilni kuzatib qolardi. Shundan boshlab yil boshi yanvar oyiga

hisoblangan. Ikkinci oy Februs sharafiga qo`yilgan. Shu ikki oy hisobiga yil 365 kunga uzaytirildi:

Martius- 31 kun

Aprilis-29 kun

Mayus-31

Yunius-29 kun

Kvintilis-31 kun

Sekstilis-29 kun

September-29 kun

Oktouber-31 kun

November-29 kun

Destember-29 kun

Yanuarius-29 kun

Febriarus-235kun

355 kundan iborat yil, quyosh yilidan har yili 10-11 sutkaga orqada qolardi. Kelishuv asosida 2 yilda 1 marta to`ldiruv sifatida Mersedonius oyi kiritildi, u 22-25 sutkadan iborat edi. Mil. avv. 46 yilda Rimning diktatori va konsuli yangi kalendar chiqara boshlaydi. U yangi yilga 90 kun qo`shdi. Yangi kalandarni ishlab chiqarishda Sozigen boshliq Aleksandriya astronomlari ishtirok etdilar.

Zamonaviy kalendarlardagi oylar miqdorining turlicha ekanligi (28, 29, 30, 31 kunlar hisobida), yil kvartallarining farqlari (90, 91, 92 kundan iborat bo`lishi) uning noaniqligini yaqqol namoyon qiladi. Shu boisdan XIX asrdan boshlab turli davlatlarda kalendar islohotlari bo`yicha loyihalar ishlab chiqila boshlandi.

Ushbu jadvaldan ikki kalendar orasidagi farq 19 fevral 1473 yilda 9 sutkani tashkil qilganligini bilishimiz mumkin. Demak, Kopernikning 500 yiligini 28 fevral 1973 yilda nishonlangan.

Grigoriy kalendarining umum Yevropa kalendarasi sifatida qabul qilinishi. Grigoriy kalendar dastlab katoliklar hukmronlik qilgan davlatlarda qabul qilindi. Lyuteran va provoslavlар bu kalendariga ancha vaqtgacha qarshilik qildi. Bir qator mamlakatlarda qiyinchiliklar bilan bu kalendar qabul qilindi. Tarixda 1584 yilda Rigada Polsha qiroli Stefan Batorianing farmoniga qarshi bo`lgan "kalendar tartibsizliklari" bo`lib o`tdi. Latishlar yangi kalendariga qarshi bir necha yil kurashdilar. Kurash 1589 yilda qo`zg`olon rahbarlari Gize va Brinkenlar o`sib o`ldirilgandan keyingina to`xtadi. Grigoriy kalendar Angliyada 1751 yilda qabul qilindi. Ular yilning boshini 25 martdan 1 yanvarga ko`chirdilar va o`sha yili Angliyada bir yil 282 kunni tashkil etdi. Angliyada kalendar islohotini o`tkazishda tashabbuskor bo`lgan lord Chesterfieldga qarata xalq "bizning uch oyimizni qaytar" shiori ostida namoyishlar o`tkazgan edi.

Dunyoning ba'zi mamlakatlariga Grigoriy kalendarining joriy qilinishi

Mamlakat	Yulian kalendarining oxirgi kuni sanasi	Grigoriy kalendarining birinchi kuni sanasi
Italiya	1582 y 4 oktyabr	1582 y 15 oktyabr
Ispaniya	1582 y 4 oktyabr	1582 y 15 oktyabr
Portutaliya	1582 y 4 oktyabr	1582 y 15 oktyabr

Polsha	1582 y 4 oktyabr	1582 y 15 oktyabr
Frantsiya	1582 y 9 oktyabr	1582 y 20 dekabr
Lyuksenburg	1982 y 21 dekabr	1583 y 1 yanvar
Gollandiya	1582 y 21 dekabr	1583 y 1 yanvar
Bavariya	1983 y 5 oktyabr	1583 y 16 oktyabr
Avstriya	1584 y 6 yanvar	1584 y 17 yanvar
Shveytsariya	1584 y 11 yanvar	1584 y 22 yanvar
Vengriya	1587 y 21 oktyabr	1587 y 1 noyabr
Prussiya	1610 y 22 avgust	1610 y 2 sentyabr
Germaniya	1700 y 18 fevral	1700 y 1 mart
Germaniya (protestantlik)	1700 y 18 fevral	1700 y 1 mart
Norvegaya	1700 y 18 fevral	1700 y 1 mart
Daniya	1700 y 18 fevral	1700 y 1 mart
Buyuk Britaniya	1752 y 2 sentyabr	1752 y 14 sentyabr
Shvetsiya	1753 y 17 fevral	1753 y 1 mart
Finlyandiya	1753 y 17 fevral	1753 y 1 mart
Yaponiya	—	1873 y 1 yanvar
Xitoy	—	1911 y 20 noyabr
Bolgariya	1916 y 31 mart	1916 y 14 aprel
Sovet Rossiysi	1918 y 31 yanvar	1918 y 14 fsvral
Serbiya	1919 y 18 yanvar	1919 y 1 fevral
Ruminiya	1919 y 18 yanvar	1919 y 1 fevral
Yunoniston	1924 y 9 mart	1924 y 23 mart
Turkiya	1915 y 18 dekabr	1916 y 1 yanvar
Mis	1928 y 17 sentyabr	1928 y 1 oktyabr

Tayanch tushunchalar:

Martius - Greklarda 1- oy urush xudosi (Mars) greklar ilgari chorvachilik va dehqonchilik, keyinchalik esa urush xudosi Marsga atab qo`yilgan.

Aprilis - Greklarda 2 - oy - lotincha “aperire”- “namoyon bo`lmoq”, “ochmoq” ma'nolarini bildiradi. Bu oyda hamma daraxt va o`simgiliklar ochilib gullay boshlagan.

Mayus - Greklarda 3 - oy - xudo Merkuriyning onasi Yer ma'budasi Maya nomi sharafiga qo`yilgan.

Yunius - Greklarda 4 - oy – Yupiter Yerning rafiqasi, osmon ma'budasi, ayollarning himoyachisi Yunona sharafiga qo`yilgan.

Yanuaris - Greklarda 11 - oy, ikki yuzli xudo Yanus nomiga qo`yilgan.

Februarius - 12 oy - yer osti podshosi februs nomiga qo`yilgan, “februane” so`zi “tozalanmoq”, “poklanmoq” degan ma'nolarni bildiradi.

Yulian kalendari - Eramizdan avvalgi 45-yilning 1 yanvaridan 365 kundan iborat bo`lgan quyosh kalendaridir.

Avgust -“Muqaddas kishi”

Savol va topshiriqlar

1. Yuliy Sezarning kalendar islohotining mohiyatini tushuntiring.
2. Qadimgi va o`rta asrlarda kalendar islohotlari mohiyatini tushuntiring.
3. Diniy marosimlarni nishonlashda kalendarning o`rnini qanday?
4. Qadimgi Rimdag'i bozor va bayram kunlari to`g'risida ma'lumot bering.
5. Qadimgi Rim kalendarlari to`g'risida rimlik mutafakkirlar qanday fikrlar bildirganlar?
6. Nima uchun dastlab Grigoriy kalendar Yevropada keng tarqalmadi?
7. Grigoriy kalendarining umum Yevropa kalendarasi sifatida qabul qilinishining sabablari?
8. Birinchi bo`lib Grigoriy kalendarini qaysi Osiyo davlati qabul qilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Iofe V.G. Xronologiya i metrologiya. G` Konspekt kursa lekstiy. - T., 2001.
2. Rahmonqulova Z. Xronologiya. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, - T., 2006. - 135 b.

4 - mavzu: Sharq mamlakatlari va musulmon kalendar

Reja:

- 1. Misr kalendar.**
- 2. Zardushtiylik kalendar.**
- 3. Musulmon kalendar. Musulmon taqvimida oylarning ma'nosi. hafta nomlarining atalishi.**

Misr kalendar. Misr quyosh kalendarining vatani hisoblanadi. Qadimdanoq bu o`lka olimlari quyoshning yozgi tik turish davrini va eng yorug` yulduz Sirius (Katta It turkumida) ning geliajik chiqishi (birinchi ko`rinishi) davriga to`g'ri kelishini kuzatganlar. Shuningdek, ular Siriusning tong oldi chiqishi davri Nil daryosining toshqini boshlanish paytiga to`g'ri kelishini bilganlar. Qadimgi Misrliklar tabiatning mana shu uch hodisasiga (quyoshning yozgi tik turishi, Siriusning chiqishi va Nilning toshqinini) ko`ra yilni hisoblaganlar. Nilning toshqini boshlanishi misrliklar xo`jalik hayotida katta ahamiyatga ega edi. Chunki, ayniqsa boshohli ekinlarning hosili shunga bog`liq edi. Quyosh, Nil va Sirius Qadimgi misrliklarning kalendar vazifasini o`tagan edi. Nil daryosining birinchi toshishidan ikkinchi toshishigacha bo`lgan vaqt, quyoshning ikki yozgi tik turishi orasidagi vaqt Sirius(Sotis)ning geliajik chiqishi oralig`idagi vaqtlar Qadimgi misrliklarning asosiy vaqt birligi bo`lib qoldi. Bu Sotis va Nil yili nomlarini oldi.

Mazkur Misr kalendar tabiiy va aniq edi. Unda bir yil 365 sutkaga (tropik yildan 0,25 sutka qisqa) teng edi. Bu kalendar da dastlab yil oylarga bo`linmagan. U uchta mavsumdan iborat bo`lgan. Bular "suv toshqini (Nil toshqini)", "hosil" (qishloq xo`jaligi ishlari bilan shug`ullaniladigan davr), "yo`qlik" (suvning kam vaqt, hosilni yig`ish davri) mavsumlari deb atalgan. Birinchi mavsum quyoshning yozgi tik turishdan- oktyabrgacha, ikkinchi mavsum oktyabrdan-martgacha, uchinchisi martdan-iyungacha bo`lgan vaqtini o`z ichiga olgan. Keyingi davrlarda oy tushunchasi paydo bo`ldi va ular o`n ikkitaga bo`lindi. Har oy 30 kundan iborat edi. Demak, bir yil 360 kundan va besh qo`shimcha kundan iborat bo`lgan. Bu qo`shimcha kunlarni greklar "epagamen" deb atadi.

Eramizdan avvalgi IV ming yillikda yaratilgan bu kalendar da dastlab, oylarning nomlari bo`lman. Ular har bir mavsumga (4 oydan) bo`lingan va shu bilan farqlangan. Keyinchalik ular quyidagicha atalgan.

- | | |
|------------------|-------------------|
| 1. Tot | 7. Famenot |
| 2. Faofi | 8. Farmuti |
| 3. Atir | 9. Paxon |
| 4. Xoyyak | 10. Payni |
| 5. Tibi | 11. Epifi |
| 6. Mexir | 12. Mesori |

O`n ikkinchi oydan so`ng "epagomenlar" birinchi kun-Osiris, ikkinchi kun-Gora, uchinchi-Seta, to`rtinchi-Isida, beshinchi kun-Neftida deb atalgan. Ular Yer xudosi Geb va osmon ma'budasi Nutlarning bolalari hisoblangan. Gerodot misrliklarda yil 12 oy va beshta qo`shimcha kundan iboratligi to`g`risida ma'lumot berib o`tadi. Misr kalendar qanchalik qishloq xo`jaligi ishlari uchun qulay bo`lmasin, u tropik yildan 0,25 sutka qisqa edi. Bu to`rt yilda bir sutkani, 120 yilda bir yilni tashkil qiladi. Bu Misr "daydi" kalendarida 1461 Misr yili 1460 Yulian yiliga teng edi. Eramizdan avvalgi II ming yillikda Misr kalendarini isloh qilishga harakat qilinadi. Ular Misr kalendariga to`rt yilda bir kun qo`shadi va Misr kalendar tropik yilga tenglashtiriladi. Misrda giksoslar hokimiyyati qulagandan so`ng yana an'anaviy Misr kalendar joriy qilinadi. Shundan boshlab, taxtga chiqqan Misr fir'avnlari yilning uzunligini o`zgartirmaslikka qasamyod qilgan. Er. avv. III asrga kelib Ptolemey III Everget (er. av. 246-222) bu qasamyodni buzib kalendar islohotini o`tkazadi. U er. avvalgi 238 yil 7 martda kalendarada kabisa yilini joriy qilish to`g`risida maxsus farmon (mazkur farmon Kanon ibodatxonasi nomiga Kanon farmoni deb ataladi) beradi. Kanon farmonida shunday deyiladi: "Yulduz (Sirius) har to`rt yilda bir kun oldinga o`tib ketmoqda. Kelajakda yozda nishonlanadigan bayramlarni qishda nishonlamaslik uchun har to`rt yilda bir marta 360 kun va 5 qo`shimcha kundan so`ng va yangi yildan oldin bir kun qo`shilsin. Kalendar podsho Everget tomonidan tuzatilganini hamma bilsin". Bundan Qadimgi Misrda Yulian kalendar tuzilishidan salkam 200 yil oldin kabisa yilini bilganligani ko`rishimiz mumkin. Manbalardagi ma'lumotlarga ko`ra, Ptolemey III Evergetning bu islohoti hayotga tadbiq qilinmagan. Eramizdan avvalgi 26 yilga kelibgina Rim imperatori Avgust Misrda kabisa yili mavjud bo`lgan Yulian kalendarini joriy qiladi. Qadimgi Misrda dastlab yagona era bo`lman, ular fir'avnalarning hukmronligi davriga qarab yilni hisoblaganlar. Ellinizm davriga kelib, Nabonassar erasidan foydalanganlar. Eraning boshlanish sanasi Yulian kalendar bo`yicha eramizdan avvalgi 747 yil 26 fevralga to`g`ri keladi.

III asrga kelib Misrda Dioklitian erasini joriy qiladi. Dioklitian erasi boshi Yulian kalendariga ko`ra 284 yil hisoblanadi. Dioklitian erasidan bugungi kunda xristian-koptlar diniy an'analarni o`tkazishda foydalanib keladi. Nabonassar va Diokletian eralari to`g`risida eralar mavzusida batafsil to`xtalib o`tamiz.

Mesopotamiya kalendarlari. Mesopotamiyadan topilgan yozma yodgorliklarda eramizdan avvalgi 2500 yilda shumerlar Oy-quyosh kalendarlaridan foydalanganlari to`g`risida ma'lumotlar saqlangan. Bobilda Hammurapi (eramizdan avvalgi 1792-1750) hukmronligi davrida nafaqat ikki daryo oralig`ida, balki Old Osiyodagi eng yirik siyosiy, madaniy markazga aylandi. Hammurapi bir qancha islohotlar, jumladan kalendar

islohotini ham o`tkazadi. U ikki daryo oralig`idagi turli xil kalendarlarni bekor qilib, yagona kalendarни joriy etdi. Ur shahri kalendar butun Bobilda rasmiy kalendar sifatida qabul qilindi. Bu kalendar dastlab Oy kalendar bo`lib, har bir yildagi toq oylar o`ttiz, juft oylar yigirma to`qqiz kunlik o`n ikkita oydan iborat edi. Oylar shunday nomlangan:

- | | |
|---------------------|------------------------|
| 1. Nisanu 30 | 7. Tashritu 30 |
| 2. Ayru 29 | 8. Araxsamna 29 |
| 3. Sivanu 30 | 9. Kislivu 30 |
| 4. Duuzu 29 | 10. Tebetu 29 |
| 5. Abu 30 | 11. Shaabatu 30 |
| 6. Ululu 29 | 12. Addaru 29 |

Oy nomlari bobilliklarning turmush tarzi bilan bog`liq edi. "Nisanu"-harakat qilmoq, qadam tashlamoq, "Ayrı"-yorqin, yoruq, "Abu"-adovat, "Tashritu"-bosqlanish, "Tebetu"-loyqa, "Shabatu"-vayronagarchilik (yomg`ir natijasida), "Addaru"-bulutli degan ma'nolarni bildirgan. Bobilliklar kalendarndagi "baxtli" va "baxtsiz" kun tushunchasiga katta e'tibor bergen. Ularda dastlab besh, so`ngra yetti kunlik haftalar bo`lgan. Besh kunlik hafta "qamushtu" deb atalgan.

Bobilliklar yarim kechasini kunning bosqlanishi hisoblaganlar. Shuning uchun quyosh botgandan so`ng yangi Oy ko`rinishi bilan oyning bиринчи kuni bosqlangan. Musulmon va yaxudiylarning ham kalendarlarida shu tamoilga amal qilingan.

Bobilda Hammurapi xukmronligi davrida Oy kalendaridan oy-quyosh kalendariga o`tildi. Ular aniq hisob-kitoblarsiz qo`shimcha oylarni joriy qildi. Ular ikkinchi ululu oyini qo`shadi. Bobilda bu usul eramizdan avvalgi VI asrgacha qo`llanilgan. Bobilda eramizdan avvalgi VI asrga kelib Kleostat siklidan "oktaeterida" dan foydalangan. Unda sakkiz yilda uchta ikkinchi, beshinchi, sakkizinch yillarda embolistik oylar joriy etiladi. Eramizdan avvalgi IV asrga kelib Kleostat siklining o`rnini Meton sikli egallaydi. Unda xar 19 yilda 7 ta (3, 6, 8, 11, 14, 17, 19 yollar) embolistik oy joriy qilinadi. Bobilda Oy-quyosh yili 22 mart 20 aprel oralig`ida bosqlangan. Mazkur Bobil kalendar keng tarqalgan. Uni eramizdan avvalgi XII asrda Ossuriya, keyinroq Ahamoniylar, Salavkiylar, Parfiyaliklar qabul qilganlar.

Qadimda Bobilda astronomiya fani taraqqiy etgan. Oy jismlari harakatini kuzatish maqsadida minoralar (zikkuratlar) bunyod etildi. Eramizdan avvalgi 700 yillarda Bobilda astronomiya fanidan "Mulapin" deb nomlangan darslik yaratiladi. Bobilda dastlabki vaqtlar eradan foydalanmagan. Voqealar podsholarning hukmronligi davriga qarab hisoblangani bois noqulayliklar tug`dirgan. Bobilda qabul qilingan dastlabki eng Qadimgi era sifatida Nabonassar erasini (er.av.747-743 yillarda hukmronlik qilgan) aytishimiz mumkin. Nabonassar ajdodlaridan qolgan butun yodgorliklarni buzishga farmon berib, yangi erani bosqlaydi (bu Julian kalendar bo`yicha eramizdan avvalgi 747 yil 26 fevralga to`g`ri keladi). Nabonassar erasi bir qator davlatlarda qo`llanilib kelingan.

Zardushtiylik kalendar. Eron, O`rta Osiyo erlarida zardushtiylik dini shakllangach, Navro`zga bu dinga xos urf-odat va an'analar kirib, uni diniy bayram sifatida o`tkazish odatga aylangan. O`sha davrda zardushtiylik ideologiyasiga mos keladigan kalendar ijod qilishgan, uning oxigi islohoti sosoniylar sulolasidan bo`lgan Yazdigird davrida amalga oshirilganligi uchun Yazdigard kalendar deb nomlangan. Bu kalendar 365 kunlik quyosh (shamsiya) kalendar bo`lib, uning 12 oyi 30 kundan 360 kun bo`lgan, qolgan 5 kuni hech bir oyga kirmagan, bu 5 kun 21-martda kiramagan yangi yil

oldidan alohida hisoblangan va bu kunlarda navro`z oldidan ibodat qilishgan va tayyorgarlik ko`rishgan. Yazdigard kalenderidagi oy nomlari uning zardushtiylik ideologiyasi bilan bog`liq ekanligini ko`rsatib turadi. Bu oylarning Qadimiy Avestodagi va hozirgi nomlarini keltiramiz.

Fravashi (hozirgi nomi Farvardin) - butun mavjudotning ruhi-xudo Axuramazdaning sifatlaridan biri.

Ashi Vaxishta (hozirgi nomi Ordibequesht chinakam) taqvodorlik.

Xarvatot (hozirgi nomi Xo`rdod) - butunlik va salomatlik xudosi.

Tishtriya (hozirgi nomi Tir) - Sirius yulduzi-zardushtiylar bunga ham sig`inganlar.

Ameretot (hozirgi nomi Mo`rdod) - abadiylik.

Xshatra-varya (hozirgi nomi Shaqrevar) - oliv hokimiyat.

Mitra (hozirgi nomi Meqr) - yorug`lik, ahd va osmon xudosi.

Apu (hozirgi nomi Obon) - suv xudosi.

Odar (hozirgi nomi Ozar) - olov xudosi.

Dotush (hozirgi nomi Dey) - yaratuvchi.

Vohu Manoh (hozirgi nomi Baxmon) - yaxshi fikr.

Spenti Omoti (hozirgi nomi Esfand) taqvodorlik asosiy aqidalardan biri.

Hozir jahonda zardushtiylar 130 mingga yaqin bo`lib asosan, Eron, Pokiston va Hindistonda yashaydi. Barcha islomlashtirilgan hududlarga islom an'anasi bo`yicha 354 kunlik hijriy qamariy yil hisobi amalga kiritiladi, islom urf-odatlari va an'analari ana shu kalender bo`yicha ado etiladi. Hijriy-qamariy yil 12 oydan iborat bo`lib, toq oylar 30, juft oylar 29 kunlik tarzida qabul qilingan.

Navro`z 365 kunlik quyosh kalendar bo`yicha kiradigan yangi yilning 1-kuni sifatida bayram qilinadi. Bu kalendar Malik shoh (1072-1092 yillar) davrida kiritilgan, uning oylari yulduz turkumlari nomi bilan atalgani uchun u “burjiy” kalendar deb nomlangan. Quyosh kalendarini oylarining nomlari, ularning lug`aviy ma'nosi va milodiy kalendar oy-kunlariga mosligi jadvali.

O`rta Osiyo va Eron xalqlari qo`llagan eng Qadimgi yil hisobidir. Zardusht yil hisobi quyosh yiliga asoslangan bo`lib, 12 oydan iborat. Har bir oy 30 kun, yana qo`shimcha besh kun bor. Bu besh kun alohida oy hisoblanadi. Bu besh kun sakkizinchи oydan keyin qo`yilgan bo`lib, shunda to`qqizinchи oyning boshlanishi Navro`zga to`g`ri kelgan. Taqvimdagи 12 oyning nomi "Avesto"dagi ma'budalarning nomiga borib taqaladi. Oy nomlaridan tashqari oy tarkibiga kirgan kunlar(30 kun)ning ham alohida nomlari bor. "Avesto"ning milodiy VI asrda sosoniylar davrida tuzilgan matnida oylar va kunlarning to`liq nomi ro`yxati keltirilgan. Biroq ba`zi kalendar atamalari "Avesto"ning eng azaliy qismlari deb hisoblanuvchi miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda tarkib topgan. "Gotlar" da ham uchraydi. Olimlarning taxmin qilishicha bu taqvim sharqiy Eron va O`rta Osiyoda Osiyoda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida tuzilgan. Dastlab, harbiy Eronda Ahmoniylar davrida rasmiy davlat taqvimi sifatida qabul qilingan (ilmiy adabiyotlarda Qadimgi Eron yil hisobi deb atalishining sababi ham shu).

Abu Rayhon Beruniy o`zining "Xronologiya" asarida miloddan avvalgi 441 yilni zardusht yil hisobi shu yildan boshlangan deb ko`rsatadi. Zardusht kalendar 365 kun, har biri 30 kundan tuzilgan 12 oy va yana 5 kundan iborat, to`rt yilda yana bir kun orttirilgan. Demak, har to`rt yilda (kabisa yilida) o`n ikkinchi oyning oxiriga 5 kun emas, 6 kun qo`shilgan.

O`ttiz kunga atab qo`yilgan mazkur nomlar yilning o`n ikki oyidagi hamma kunlarga taalluqli bo`lgan. Zardusht yil hisobi milodiy 632 yilgacha qo`llanib keldi. 632 yilda sosoniy shohlardan Yazdgird III zardushtiylik taqvimini isloh qiladi.

Abu Rayhon Beruniy So`g`d oylar to`g`risida ham ma'lumot beradi. Ularda o`n ikkita oy bo`lib, ularning har biri o`ttiz kundan hisoblangan.

So`g`diy oy nomlari:

- 1. Navsarz**
- 2. J-r-j-n**
- 3. Nisan**
- 4. B-sok**
- 5. A-sh-n-a-x-n-z-a**
- 6. M-j-i-x-n-z-a**
- 7. F-g`oz**
- 8. L-ba-n-x**
- 9. F-v-g`**
- 10. M-so-f-v-g**
- 11. J-i-m-da**
- 12. X-sh-v-m**

So`g`diy lar har birunni alohida nom bilan ataganlar. Kunlarning nomlarini Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida berib o`tadi.

Xorazm kalendari. Qadimgi Xorazmda quyosh kalendariga asoslangan yil hisobidan foydalanilgan. Abu Rayxon Beruniyning yozishicha, Xorazm yil hisobi O`rta Osiyodagi eng Qadimgi yil hisoblaridan biri hisoblangan. Xorazm kalendarida bir yil 12 oyga bo`lingan va har bir oy 30 kundan iborat bo`lgan. Qo`shimcha 5 kun yil oxirida o`n ikkinchi oyga qo`shilgan va bir yil 365 kunni tashkil etgan. Har yili qoldiq sifatida ortib qoladigan chorak kunga Xorazm kalendarida e'tibor berilmagan. Yangi yil bahorgi tengkunlikdan boshlangan. Oy nomlari Abu Rayhon Beruniy asarida ikki xil to`liq va qisqartirilgan shakllarda keltiriladi. Oylarning to`liq nomi juda uzun bo`lib, ko`pchilik tovushlarni undosh xarflar tashkil qiladi. Beruniy Xorazm kalendarini oy nomlarining to`liq va qisqartirilgan shaklini quyidagicha keltiradi:

Xorazm kalendari oylarining to`liq nomi

1. Ruchnofunovsrochi
2. Ardushfvsirx ankom
3. Xrvdod fvihiiri
4. Jiriy forozok
5. Xmdod
6. Axshrivriy
7. Avmriy
8. Yonoxn foxsrson rochibk
9. Arvfvfimxkobhrfin
10. Vsmrfvnofkonj ankom
11. Ashmn fvird ankom
12. Isbandarmajiy fvxshvm.

Xorazm kalendaridagi oylar nomlarining qisqartirilgan shakli

1. Novsorjiy.
2. Ardvst.
3. Xrvdod.
4. Jiriy.
5. Xmidod.
6. Axshrivriy.
7. Avmriy.
8. Enoxi.
9. Arv.
10. Rimjd.
11. Arshmn.
12. Isfandorajiy.

Abu Rayxon Beruniy oylarining to`liq nomini bergan bo`lsada, ammo kundalik ish yuritishda va ma'muriy xujjatlarda oylarning yuqorida keltirilgan qisqa shaklidan foydalanilgan. IV-VIP asr Qadimgi xorazmiy yozuvi xujjatlarida va XP-XIV asr arab-xorazm yozuvi manbalarida oy nomlari yuqoridagi shakkarda qo`llanadi. O`n ikkinchi oyga qo`shiladigan 5 kunning maxsus nomi bo`lman. Yil oylari kunlariga ortiqcha kunlarni qo`shish, ya`ni yilni kabisali qilish kalendar tarixida muxim masala bo`lgan. Beruniy Xorazmda kabisali yilga o`tish masalasiga ham to`xtalib o`tib, ular ortiqcha besh kunni oxirgi oyga qo`shganliklari to`g`risida ma'lumot beradi. Xorazmliklar bilan So`g`diylar yil boshini belgilash uchun ortiqcha kunlarni qo`shishda bir xil amal qilganlar. Xorazm kalendarida ham oyning har bir kuni (30 kuni) alohida nom bilan yuritilgan. Beruniy Xorazm kalendaridagi oy kunlarining nomini ham berib o`tadi. (Ushbu ma'lumot Z.Rahmonqulovaning "Xronologiya" nomli o`quv qo`llanmasidan olindi.)

Musulmon kalendari. Musulmon oylari, hafta nomlari. (hijriy-qamariy yil hisobi, hijriy-shamsiy yil hisobi). Eron, Afg`oniston, O`rta Osiyo, Kavkaz davlatlari islomlashтирilgach zardushtiylik kalendaridan foydalanishmagan. Bunga faqat zardushtiylar amal qilganlar.

Islom dini vaqtini hisoblashga ham o`z ta'sirini ko`rsatdi. Islomdan avval arablar Oy kalendaridan foydalanganlar. Abu Rayxon Beruniyning yozishicha, arablar yahudiylardan yilga qo`shimcha oylar qo`shishni o`rganganlar va u oyni "ayam an-nasi" deb ataganlar. Bundan biz arablarning Oy-quyosh kalendaridan foydalanganligini bilishimiz mumkin. Arab kalendarida 12 oy bo`lib, ular quyidagicha atalgan.

- 1) **Muharram** - "ta'qiqlangan", "man etilgan", "muqaddas" ma'nolarini beradi. Muharramda johiliyat davrida urush harom qilingan. Bu holat yettinchi (rajab), - o`n birinchi (zulqa'da) va o`n ikkinchi (zulhijja) oylariga ham tegishli bo`lgan.
- 2) **Safar** - "sariq", "za'faron" degan ma'noni beradi. Bu oyda arablarga halok qiluvchi yara toshar edi. Insonlarga bu kasallik yetganida yuzlari sarg`ayib ketardi. Shu sababli bu oyni safar "sariq" deb nomladi. Shuningdek, boshqa bir farazga ko`ra, safar oyida arablar "safariya" nomli guruh bilan birgalikda oziq-ovqat qidirganliklari uchun bu oyga shunday nom berilgan.
- 3) **Rabi ul-avval.** "Rabi'" so`zi arab tilida "baxor" ma'nosini beradi. Ammo Qadimgi arablar "rabi'" so`zini "kuz" ma'nosida ham qo`llaganlar. Ushbu oy kuz faslida kelgani uchun "birinchi kuz" ma'nosini anglatgan.

- 4) **Rabi us-soniy** - "ikkinchi kuz".
- 5) **Jumodu-l-avval, Jumodu-s-soniy** - bu ikki oy qish kunlariga, sovuq qattiq bo`lib, suv muzlagan paytini anglatuvchiga arabcha "jamoda" so`zidan olingan bo`lib, "qotib qolmoq", muzlamoq ma'nosini beradi.
- 7) **Rajab** - arablar bu oyni ulug`laydilar, yana bu oyni "kar oyi" ham deb nomlaydilar, chunki bular bu oyda urush ovozini eshitmasdilar.
- 8) **Sha'bon** - "tashaaba" so`zidan olingan bo`lib, "tarqalmoq" ma'nosini beradi.
- 9) **Ramazon** - "yondirmoq", "jazirama oy" ma'nolarini anglatadi. Bu oy yozning eng issiq paytiga to`g'ri kelgani uchun shunday atalgan.
- 10) Shavvol - "ko`tarilmoq", "olib bormoq", "ko`chirmoq" ma'nolarini beradi. Arab qabilalari bu oyda o`z joylaridan ko`chib ketardi, shuning uchun shavvol deb nomlangan.
- 11) **Zulqa'da** - "o`tirmoq", "uyda qolmoq" ma'nolarini anglatadi. Bu oyda urushlar bo`lmaydi.
- 12) **Zulxijja** - "haj" so`zidan olinib, "haj qilish" ma'nosini beradi. Arablar bu oyda haj qilganlar.

Bu oylarning nomlarining qo`yilishi sabablari xaqida birmuncha sabablar bayon qilingan. Ulardan biri shuki, muharram “muqaddas oylar” jumlasidan bo`lgani uchun ular shu nom bilan atalgan. Safar oyida arablar “Safariya” nomli guruh bilan birgalikda oziq-ovqat qidirishganlari uchun bu oyga shunday nom bergenlar. Ikkala rabi oylarida o`simliklar gullagan, ketma-ket shabnam va yomg`ir yoqqani uchun ular shunday ataladi. Bu biz “harif” (kuz) deb ataydigan fasl tabiatiga tegishlidir. Qadimgi arablar uni “rabi” (bahor) deb atadilar. Ikkala jumoda oyida suv yaxlaganidan ularga bu nom berilgan. Rajab oyida urish bo`lmay, tinchlik bo`lganidan arablar bu oyda safarga chiqqanlar. Shabonda arab qabilalari tarqalganlari sababli shunday ataladi. Ramazon oyi deyishga sabab bu oyda issiqning kuchliligidan toshlar ham kuyadi. Shavvol deb atalishiga bu oyda issiq ketib, harorat pasayadi. Zulqa'da oyida arablar hamisha uylarida bo`lganlardan bunga shunday nom berilgan. Zulhijjada arablar xaj qilganlaridan shunday atalgan. Arablar oylarini johiliyat davrida ham hozir musulmonlar ishlatayotganlaridek ishlatganlar, ularning haj marosimlari yilning to`rt faslida aylanaverган. Keyin ular teri, ko`n, meva va boshqalardan iborat mollari etilgan vaqtida xaj qilishni va bu marosimni bir holatda eng yaxshi va farovonchilik vaqtida ado etishni ko`zda tutib, o`z qo`snilari bo`lgan yahudiylardan yilni kabisali qilishni o`rgandilar.

Islomgacha bo`lgan davrda arablar Oy-quyosh kalendaridan foydalanganligini ba'zi oy nomlaridan bilishimiz mumkin. Islom dini paydo bo`lgan, diniy va dunyoviy ishlarni yuritish uchun yangi kalendar zarur edi. Bu masala halifa Umar davri (634-644)da hal qilinadi. O`sha davrda faqatgina yillar voqealar nomlari bilan atalar, tartib raqami bilan yuritilmagan edi. Arablar o`rtasida xat, hujjatlarga sana qo`yish odati bo`limgan. Bir kuni bir kishi halifa Umar huzurlariga kelib sha'bon oyida to`lanishi kerak bo`lgan qarz haqidagi hujjatni ko`rsatdi. Shunda halifa Umar "bu hujjat qaysi sha'bonga tegishli? O`tgan yilgi sha'bongami yoki bu yilgi sha'bongami?" deb so`raydi. Bunday vaziyatga Jazira viloyatining voliysi Abu Muso ham duch keladi. Unga ikkita buyruq yozib beriladi. Bu buyruqlarning biri ikkinchisiga sira to`g'ri kelmas, boshqa-boshqa edi. Ularning qaysi oldin, qaysi bir keyin yozilganini aniqlay olmagan Abu Muso halifa Umarga murojaat qiladi. Chunki, har ikki buyruqda ham sana yo`q edi. Bu masalani hal qilish uchun halifa Umar Mashvarat o`tkazadi. Mashvarat oy hisobi bo`yicha kalendar tuzishni ma'qul topadi.

Ular yangi kalendarda o'sha vaqtgacha qo'llanilib kelingan qamariy oy nomlarini saqlab qolishni lozim ko`radilar. Bu oylar arablar o`rtasida juda mashhur edi. Mashvaratdagilar kalendar boshi - era boshini qaysi vaqtdan hisoblashga oid turli fikrlarni o`rtaga tashladilar. Ba'zilar payg`ambarning tug'ilgan kunidan desa, ba'zilar payg`ambarlikning kelishidan hisoblashni taklif qildi. Ali ibn Abu Tolib islam kalendarini payg`ambarning Makkadan Madinaga xijratlaridan boshlashni taklif etdilar. Bu taklif ma'qullandi. Payg`ambarning Makkadan Madinaga hijrat qilib yetib borgan vaqtłari rabi ul-avval oyidan 11 kecha o'tganda dushanba kuni bo`lgan edi. Bu milodiy hisob bilan 622 yilning 23 sentyabr kuniga muvofiq keladi. Mazkur mashvarat hijratdan 17 yil keyin muharram oyining birinchi kuni (milodiy 638 yil 23 yanvar) bo`lgan edi. Hijrat esa yuqorida aytilganidek, rabi'ul avval oyining o'n birinchi kunida, ya'ni hijriy-qamariy sananing uchinchi oyida bo`lib o`tgan. Vaxolanki, arablarda avvaldan yil boshi muharram oyining birinchi kunidan hisoblangan. Shu sababli tarixiy voqealarni hisoblaganda chalkashlik ro`y bermasligi uchun hijrat voqeasini bo`lgan uchinchi oydan oldingi birinchi va ikkinchi oylar (muxarram, safar) ham xijrat yili hisobiga qo'shib olindi va muxarram yil boshi bo`lib qoldi. Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, hijriy hisobning birinchi yilining birinchi kuni muxarram bo`lib qoldi. Bu sanani milodiyga aylantirganda 622 yilning 16 iyuliga muvofiq keladi.

hijriy yilni aniqlash formularasi.

$$h = (m - h) + \frac{m-h}{32}$$

$$h = (2008 - 622) + \frac{2008-622}{32}$$

$$h = \frac{1386 + 1386}{32} - 138$$

$$h = 1386 + 43$$

$$h = 1429$$

Hijriy-qamariy hisobda bir yil 354 kun bo`ladi. Toq oylar (muxarram, rabi ul-avval, jumodu-l-avval, rajab, ramazon, zulqa'da) - 30 kundan, juft oylar (safar, rabi ussoniy (oxir), jumodu-s-soniy, sha'bon, shavvol, zulhijja) - 29 kundan hisoblanadi. Xijriy-qamariy kalendarda kabisa yillari tartibi arab davriyligiga ko`ra hisoblanadi. Unda 30 yilda 11 ta kabisa yili mavjud. Kabisa yilidagi bir kun zulhijja oyi oxiriga qo'shiladi. Hijriy yil milodiy yilga nisbatan qisqaroq (354 yoki 355) bo`lgani bois, yil boshi har yili ma'lum vaqtda kelmaydi. Kelgusi yil oldingi yilga nisbatan 10, 11 yoki 12 kun (yilning oddiy yoki kabisa bo`lishiga qaram) ertaroq keladi. Milodiy hisobda o`ttiz uch yil, hijriy hisobda o`ttiz to`rt yilga barobar bo`ladi.

Islam dini tarqalgan barcha mamlakatlarda xijriy-qamariy yil hisobi diniy kalendar sifatida qabul qilingan. Ro`za, xayit, haj kabi islomiy ibodatlar shu kalendar asosida olib boriladi. Hijriy-qamariy yil hisobi VIII asrdan boshlab islam dini, arab tili va yozuvni bilan birga O'rta Osiyoga kirib keldi. XX asrning birinchi choragiga qadar O'rta Osiyo yil hisobidan foydalandilar.

Hijriy-shamsiy yil hisobi. Hijriy-shamsiy yil quyosh (shams)ning bir yillik harakatiga asoslangan. Milodiy 1079 yilda Saljuqiylar sultonasi Jaloliddin Malikshoh

Yazdigird yil hisobini isloh qilish to`g'risida buyruq beradi. Kalendar islohoti maxsus tuzilgan hay'at tomonidan o`rganib chiqiladi. Unga shoir va olim Umar Xayyom (1040-1123) rahbarlik qiladi. Yangi kalendarda yilning boshlanishi bahorgi tengkunlikka to`g'ri kelishi kerak edi. Chunki o`sha vaqtida yangi yilning boshlanishi bahorgi teng kunlikdan deyarli bir hafta uzoqlanib, 14-16 martga to`g'ri kelib qolgan edi. Agar yangi yil 20, 21 va 22-martdan boshlansa maqsadga muvofiq bo`lar edi. Umar Xayyom boshchiligidagi hay'at yangi yilni bahorgi tengkunlikdan boshlaydi va buning uchun kabisa yili tanlab olinadi. Bu kalendarda ham Yazdigird yil hisobidagi kabi bir yil 12 oyga bo`linadi va har bir oy 30 kundan iborat bo`ladi. Bu kalendarda Yazdigird kalendaridan farqli o`laroq kabisa yiliga 6 kun ham qo`shilgan. Kalendarda har 33 yil bir davr (tsikl) hisoblangan. Unda har o`ttiz uch yilda sakkiz marta kabisa yili kelgan. Bunda kabisa kuni yetti marta to`rtinchchi yil oxiriga, sakkizinchchi kabisa kuni esa beshinchchi kabisa yili oxiriga qo`shilgan. Bu kalendar xijratning birinchi yili (622 yil) dan boshlab hisoblanadi. Kalendarning tadbiq etilgan kuni xijriy 471 yil 10 ramazon, (Yazdigir hisobi bo`yicha 448 yil 19 fevraldin) milodiy 1079 yil 16 martga to`g'ri keladi. Ushbu sana xijriy-shamsiy hisobi bo`yicha 458 yilning birinchi boshlanish kuni - bahorgi tengkunlik kuni (Navro`z) bo`ldi. Bu kalendar saljuqiylar sultonni Jaloliddin Malikshoh nomi bilan Jaloliy kalendari deb nom oldi. Umar Xayyom kalendari dunyoda bugungi kungacha yaratilgan mukammal kalendarlardan biri hisoblanadi. Unda xatolik bir sutkaga yetish uchun 4500 yil kerak bo`ladi. Bu esa kalendarning aniqlik darajasi qanchalik yuqori ekanligini ko`rsatadi. Jaloliy (Umar Xayyom) kalendari XIX asr o`rtalarigacha Eronda qo`llanildi. Keyinroq hijriy-shamsiy kalendari isloh etilib, oylarning kun miqdori burj oylarining kun miqdoriga to`g'rilanadi. Shu vaqtadan boshlab xijriy-shamsiy kalendarida Qadimgi Eron oylarining nomi ham qo`llanila boshlandi. Ularning tartibi quyidagicha:

1. Farvardin-qamal (qo`y)
2. Ordibexisht-savr (xo`kiz)
3. Xurdod-javzo (egizak)
4. Tir-saraton (qisqichbaqa)
5. Murdod-asad (arslon)
6. Shaxrivar-sunbula
7. Mexr -mezon
8. Obon -aqrab (chayon)
9. Ozar-qavs (yoy) 76
10. Day -jadi (echki)
11. Baxman-dalv (qovqa)
12. Isfand-xut (baliq)

1925 yilning 21 martida Eronda yangi quyosh hijriy kalendari joriy etildi. Bu kalendarning erasi xijriy, ya'ni 622 yilning baxorgi tengkunligidan boshlanib, oddiy va kabisa yillarining uzunliklari 365 (366) kundan har yilning 12 oyidan dastlabki olti oyi 31 kundan, keyingi beshtasi esa 30 kundan va oxirgi o'n ikkinchi oyi oddiy yillari 29, kabisa yillari esa 30 kundan edi. Ayni vaqtida Eronning rasmiy kalendar hisoblangan bu kalendarda oylar, Qadimgi Yazdigard III kalendaridagi oylar nomi bilan ataladi. Ushbu kalendarda kunlar sonining yuqoridagidek taqsimlanishi tasodifiy bo`lmay, quyoshning yillik ko`rinma harakatini o`ziga aks ettiradi.

Afg`oniston rasmiy kalendari ham hijriy-shamsiy kalendar bo`lib, uning asosida 1911 yili Eron bilan bir vaqtida qabul qilingan "Burjiy kalendar" yotadi. Bu kalendarlarda oylarning nomi zodiak yulduz turkumlarining nomlari bilan qamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula, mezon, aqrab, qavs, jaddi, dalv va xut deb yuritilib, ularda kunlarning soni 29, 30, 31 va ba'zan hatto 32 kun bo`lardi. Shuning uchun ham bu kalendar noqulay edi. Natijada, 1958 yilga kelib (hijriy-shamsiy yil bo`yicha 1337 yili) afg`on kalendar ma'lum darajada Eronning hijriy-shamsiy kalendariga yaqinlashtirildi. Bu uchun 32 kunlik javzo oyi kunlarining soni 31ga tushirilib, o`ninchи oy - jaddi oddiy yillari 29 kunga, kabisa yillari esa 30 kunga teng bo`ladigan qilib qayta isloh qilindi. Natijada uning dastlabki olti oyi (qamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula) Eron kalendaridagi kabi 31 kundan qilinib, keyingi jaddidan boshqa besh oyi (mezon, aqrab, qavs, dalv va xut) 30 kundan qilib belgilandi. Eron va Afg`on kalendarlari bo`yicha sanalar to`la mos kelgani xolda oddiy yillarida oxirgi ikki oy dalv va qut bir-biridan bir kunga farq qiladi.

Agar Grigoriy kalendarining ma'lum sanasiga to`tri keladigan hijriy-shamsiy yilini topish zarur bo`lsa, u holda Grigoriy kalendar yildan 622 ni (sana 21 martdan oldingi kunga to`g`ri kelsa), yoki 621 ni (agar sana 21 martdan keyingi kunga to`g`ri kelsa) ayirish kerak. Masalan, 1990 yilning 15 fevrali hijriy-shamsiy kalendarida qaysi yiliga to`g`ri kelishini topish uchun 1990 dan 622 ni ayirish kerak bo`ladi, chunki 15 fevral 21 martdan oldin keladi. Demak, 1990 yil hijriy shamsiy 1368 yilga to`g`ri kelar ekan.

Hijriy-shamsiy kalendar yilning muayyan vaqtida bahorning birinchi kuni (navro`z)da boshlangani uchun fasllar, iqlim, ob-havo va tabiatda yuz beradigan davriy hodisalarini kuzatib borishda juda qulay. Shuning uchun ham qishloq xo`jaligi bilan bog`liq barcha ishlarni olib borishda undan foydalaniladi.

Tayanch tushunchalar:

Fravashi (hozirgi nomi Farvardin) - butun mavjudotning ruhi - xudo Axuramazdaning sifatlaridan biri.

Ashi Vaxishta (hozirgi nomi Ordibequesht chinakam) taqvodorlik.

Xarvatot (hozirgi nomi Xo`rdod) - butunlik va salomatlik xudosi.

Tishtriya (hozirgi nomi Tir)-Sirius yulduzi-zardushtiylar bunga ham sig`inganlar.

Ameretot (hozirgi nomi Mo`rdod) - abadiylik.

Xshatra-varya (hozirgi nomi Shaqrevar) - oliv hokimiyat.

Mitra (hozirgi nomi Meqr) - Qadimdan bo`lgan xudo, zardushtiylikda yorug`lik, ahd va osmon xudosi.

Apu (hozirgi nomi Obon) - juda Qadimgi suv xudosi.

Odar (hozirgi nomi Ozar) - olov xudosi.

Dotush (hozirgi nomi Dey) - yaratuvchi.

Voqu Manoq (hozirgi nomi Baxmon)-yaxshi fikr.

Spenti Omoti (hozirgi nomi Esfand) taqvodorlik-asosiy aqidalardan biri.

Muharram - "ta'qiqlangan", "man etilgan", "muqaddas" ma'nolarini beradi. Muharramda johiliyat davrida urush harom qilingan.

Safar - "sariq", "za'faron" degan ma'noni beradi. Bu oyda arablarga halok qiluvchi yara toshar edi. Shuningdek, boshqa bir farazga ko`ra, safar oyida arablar "safariya" nomli guruh bilan birgalikda oziq-ovqat qidirganliklari uchun bu oyga shunday nom berilgan.

Rabi ul-avval - "Rabi'" so`zi arab tilida "bahor" ma'nosini beradi. Ammo Qadimgi arablar "rabi'" so`zini "kuz" ma'nosida ham qo'llaganlar. Ushbu oy kuz faslida kelgani uchun "birinchi kuz" ma'nosini anglatgan.

Rabi us-soniy - "ikkinchi kuz" ma'nosini anglatgan

Jumodu-l-avval, Jumodu-s-soniy - bu ikki oy qish kunlariga, sovuq qattiq bo`lib, suv muzlagan paytini anglatuvchiga arabcha "jamoda" so`zidan olingan bo`lib, "qotib qolmoq", muzlamoq ma'nosini beradi

Rajab - arablar bu oyni ulug`laydilar, yana bu oyni "kar oyi" ham deb nomlaydilar, chunki bular bu oyda urush ovozini eshitmasdilar

Sha'bon - "tashaaba" so`zidan olingan bo`lib, "tarqalmoq" ma'nosini beradi Ramazon - "yondirmoq", "jazirama oy" ma'nolarini anglatadi. Bu oy yozning eng issiq paytiga to`g'ri kelgani uchun shunday atalgan

Shavvol - "ko'tarilmoq", "olib bormoq", "ko'chirmoq" ma'nolarini beradi. Arab qabilalari bu oyda o`z joylaridan ko`chib ketardi, shuning uchun shavvol deb nomlangan

Zulqa'da - "o'tirmoq", "uyda qolmoq" ma'nolarini anglatadi. Bu oyda urushlar bo`lmaydi

Zulxijja - "haj" so`zidan olinib, "haj qilish" ma'nosini beradi. Arablar bu oyda haj qilganlar.

Savol va topshiriqlar.

1. Yazdigird kalendaridagi oy nomlari uning zardushtiylik ideologiyasi bilan bog`liqligini aniqlang.
2. Musulmon oylari mazmunini izoqlang.
3. Shamsiy kalendariga ta'rif bering.
4. Qamariy kalendarini ta'riflang.
5. Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida hijriy yilda berilgan sanalarni toping va milodiy yilga aylantiring.
6. Abu Rayhon Beruniyning asarlarida hijriy yil hisobiga oid qanday ma'lumotlar berilgan?
7. Hijriy-shamsiy yil hisobi haqida qaysi manbalarda ma'lumotlar berilgan?

Foydalanimgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Iofe V.G. Xronologiya i metrologiya. G` Konspekt kursa lekstiy. - T., 2001.
2. Rahmonqulova Z. Xronologiya. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, - T., 2006. - 135 b.

2 – Bob. Numizmatika

1 - Mavzu: Dastlabki tangalarning paydo bo`lishi tarixi.

Reja:

1. Numizmatika fani predmeti, maqsad va vazifalari. Uning fan sifatida shakllanishi.
2. Tovar ayirboshlashning vujudga kelishi.
3. Dastlabki tangalar.

Numizmatika fani predmeti, maqsad va vazifalari. Uning fan sifatida shakllanishi. Numizmatika - tanga pullar xaqidagi fandir. U lotincha “numisma” so`zidan olingan bo`lib, tanga ma'nosini bildiradi. Numizmatlar tangalardagi rasmlarni

(tip), yozuvlarni (izohlarni), ularning og`irligi, o`lchami, metall sifatini, kim tomonidan zarb etilganligi, qachon va qaerda muomalada bo`lganligi va hokazolarni o`rganadilar. Numizmatik izlanish asosida tangalardan tarix va madaniyat bilan bog`liq bo`lgan ma'lumotlarni maksimal darajada olish vazifasi yotadi. Numizmatika tushunchasiga yana qog`oz pullarni o`rganish ham kiradi va ularni *bonistika* o`rganadi.

Insoniyat tarixi va madaniyatini o`rganishda tangalarning ahamiyati katta. Xususan, tarix, siyosat, iqtisod, san'atshunoslik, ideologiya, til, me'morchilik, savdo, xalqaro aloqalar bilan bog`liq bo`lgan bir qancha muammolarni yechishda ular muhim rol o`ynaydi. Tangalar bo`lib o`tgan tarixiy voqealarning sanasi, shohlar hukmronligi, davlat chegaralari, kiyimlarini o`rganishda ham katta ahamiyatga ega. qo`lyozmalar asrlar davomida boshqalar tomonidan o`zgartirdilar, qayta ko`chirib yozilar, ayrim so`zlarning ma'nosi aslidan uzoqlashib ketardi. Tangalardagi zerb etilgan yozuvlar esa qanday bo`lsa shundayligicha saqlanib qolaveradi.

Dastlab mashhur tanga kolleksionerlari bo`lgan. Ayniqsa XIV-XV asrlarda Uyg`onish davri mamlakati bo`lgan Italiyada Qadimgi tangalarni yig`ishgan. Jumladan, *mashhur shoir Petrarka* (1304-1374) va *florentsiyalik Kozimo Medichi* (1389-1464). 1-numizmat *Paduyalik Djovanni Kavini* (1499-1570) bo`lib, uning kollektsiyasida ko`plab Qadimgi davr tangalari bo`lgan. 1517 yilda Rimda *Fulvioning* “*Izobrajeniya znamenito`x lyudey*” («Mashhur shaxslarning tasviri”), 1553 yilda *Lionda Gilom Rullning* “*Beglo`y obzor monet naibolee znamenito`x lits, suhesvovavshix s sotvoreniya mira, s kratkим opisaniem ix jizni i deyaniy, zaimstvovanno`m u klassikov*” asari bo`lib, u tarixiy shaxslar ya'ni Rim hukmdorlarining tasvirlariga qiziqqan xolos. Lekin ulardan qech biri tangalarni o`rganishga ilmiy nuqtai nazardan yondashmagan.

XVIII asrlarda numizmatika bilan ilmiy shug`ullanuvchi mutaxassislar “*Numizmatlar*” paydo bo`ldilar. Avstriyaning Vena shahrida imperator Maksimilian I saroyida, Parijda qiroq Genrix IV va Lyudovik XIVning kabinetida qirollarning medallari to`plangan. XVIII asrlarda Britaniya muzeyida tangalarning yirik kollektsiyasi yig`ilgan.

Peterburgda *Piotr I muzeyga asos solgan* (*Uni XVIII asrda Kunstkamera deb atalgan*). Unda tangalardan tashqari medallarning ham katta kollektsiyasi saqlangan. Keyin bu kollektsiyalar Ermitajga berildi. Hozirgi kunda Ermitaj tangalar kollektsiyasi bo`yicha Yevropa da 1-o`rinda turadi.

Demak, Yevropaning beshta shaharida - Parij, London, Peterburg, Vena, va Berlinda Qadimgi tangalarning yirik kollektsiyalari jamlangan.

Birinchi tadqiqotchi venalik numizmat Iosif-IIlariy Ekkel (1737-1798)ning “*Nauka o drevnix monet*” nomli sakkiz jildlik to`plami uchun unga antik davr tangashunosligining otasi nomini olgan. *Germaniyalik* akademik Rossiya Fanlar Akademiyasi Qozon universiteti professori Xristian Martin Fren (1782-1851)ni 1807 yilda universitetiga taklif etishganda, u «*Opisanie nekotoro`x samanidskix i buveyxidskix monet*” mavzusida ma'ruza o`qigan va bu ma'ruza arab tilida kitob qilib chop etilgan. U bu yerda Povoljedan topilgan tangalaridan 400 turini o`rgandi va yozma manbalarda keltirilmagan Oltin O`rda xonlarning nomlarini aniqladi. Bundan keyin yosh olim Peterburgdan ketmadni. U taqdirini Sharq tangalarini o`rganishga bag`ishladi. U xatto o`z familiyasiga Xristian Danilovich nomini qo`shdi. Uning shogirdi P.S. Savelev u haqda – “*Martin Fren Rossiya uchun Sharq tangalarini manbashunosligini ochdi*”.

1834 yilda A.D.Chertkovning “Opisanie drevnih russkix monet” asarida Qadimgi rus tangalarini ilmiy klassifikatsiyasini amalga oshirdi.

Rus numizmati Aleksey Vasilevich Oreshnikov (1855-1933) tangani muhim tarixiy manba deb ataydi. Uning “Russkie moneto” asarida tangalarni knyazliklarga ajratib katalog tuzgan.

O’zbekistonda O’zR FA M.T.Oybek nomli O’zbekiston xalqlari tarixi muzeyining “Numizmatika” bo’limi O’rta Osiyo bo’yicha eng ko’p va eng boy haqiqiy tangalar saqlanadigan va uni o’rganadigan ilm-fan dargohlaridan biridir. Eron shohi Doroning tilla pullari va Yunon shohi keyinchalik ko’p yerkarni egallagan. O’rta Osiyo xalqlari tarixida Iskandar Zulqarnayn deb nom olgan Makedonskiyning tetradraxmasidan tortib XX asrning boshlarida O’rta Osiyoda zarb qilingan va savdo muomalasida yuritilgan 65 mingdan ko’p turli tuman oltin, kumush va misdan ishlangan pullar saqlanmoqda. Erpan To’xtiev yozgan “Tangalar tilga kirganda” nomli numizmatika va uning maqsadi, vazifalari yoritilgan.

Topilgan tangalar o`lkamizning iqtisodiy rivojlanish tarixi, savdo, hunarmandchilik va qo’shni mamlakatlar bilan bo`lgan savdo aloqalari tarixini o’rganishimiz uchun nihoyatda qimmatli manbalar beradigan ilm xazinasidir. Numizmatika ba’zan tarixning muhim sahifalari bo`lgan o’z zamonasining siyosiy-iqtisodiy tuzilmalarini ochib berishda qimmatli ma’lumotlarni, ya’ni tarixiy hujjatlarda o’rganilmagan, qayd qilinmagan voqealarni, podsholarning hukmronlik qilgan yillari, nomlarini aniqlashda muhim rol o`ynaydigan asosiy manba bo`lib xizmat qiladi. Misol uchun tushunish bir jarayon tanganinig qay darajada muhim manbaligini ko`rsatadi: Ilk o’rta asr davrida Sharq musulmon davlatlarida zarb qilingan tangalarga mahalliy hukmdor o’z nomi bilan birga halifa nomini ham qo’shib zarb qilgan. Chunki halifa xudoning yerdagi noibi, diniy va siyosiy hokimiyat ramzi hisoblangan. Agar tangalarda halifa nomi qayd qilinmagan bo`lsa, demak yerli hokimiyat va Amir-al-Mo`minning o’rtasida qandaydir nizo borligini va yoki unga qaram emas, mustaqil davlat ekanligini ko`rsatadigan asosiy dalil bo`lgan.

Tovar ayriboshlashning vujudga kelishi. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, odamlar orasida turli narsalar ayriboshlash Qadimgi tosh davridayoq paydo bo`lganligini shohidi bo`lamiz. Avval qabila ichida, ma’lum vaqt o’tishi bilan qabilalararo ayriboshlash paydo bo`lgan. Yillar asrlar o’tishi bilan ayriboshlash uchun mo`ljallangan mollarning xillari ko`payib borgan. Nihoyat jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida ayriboshlashda vositachi tovarning paydo bo`lishini taqozo qila boshladi. Bu vositachi tovar boshqa hamma mol tovarlarning ekvivalenti bo`lishi kerak edi.

Shunday qilib, endi ayriboshlash uchun ajratilgan mollar vositachi tovarning qiymati bilan aniqlanadigan bo`ldi. Bu vositachi tovarlar odamlar bilgan birinchi pul edi. Osiyo va Afrikaning ko`pgina xalqlari orasida yaqin vaqt largacha chig`anoq, it tishi, tosh bolta, munchoq va boshqalar pul vazifasini bajargan. Bunday pullar jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichlarida o’zini oqladi. Ammo vaqt o’tishi bilan ular davr talabiga javob bermay qoldi. Chunki bu pullarda ifodalangan qiymatlar nisbiy qiymat edi. Ulardan foydalanishda qator qiyinchiliklar bor edi. Shuning uchun muomalada yanada qulay bo`lgan yuqori qiymatli, oson bo`linadigan tovar pulga ehtiyoj tug`ila boshladi.

Bunday pul uzoq vaqt izlandi va nihoyat odamlar shunday pul sifatida metallarni tanladilar. Chunki metall pullarni uzoq saqlash mumkin, uni kichik bo`laklarga bo`lish mumkin. Ular ko’p joy egallamagan, olib yurish ham oson bo`lgan. Metall pullar orasida,

ayniqsa oltin va kumush pul juda qadrlangan. Dastlab metall pullar Qadimgi dunyo davlatlarida masalan, Misr va Mesopotamiyada mil. avv III ming yillikda paydo bo`lgan.

Tanganing ikki, old (avers) va orqa (revers) tomoni bor. Tanganing har ikkala tomoniga ham rasmlar va yozuvlar tushirilgan bo`ladi. Rasm va yozuvlar tasvirlangan maydon “tanga maydoni” deb ataladi. Odatda tanga maydoni chiziqli yoki nuqtali, yo bo`lmasa uzun munchoqqa o`xshash xoshiya bilan o`ralgan bo`ladi. Tanga qirrasi “gurt” deb ataladi. Tangada tasvirlangan rasm va yozuvlar tanga tipining asosini tashkil etadi. Rasm va yozuvlar mazkur tangani zARB etgan davlat, qirolik, xonlik yoki shaharning o`ziga xos muhridir. Bu bilan shoh, qirok, xon yoki shahar hokimi bozorga muomalaga chiqarilayotgan tangalar haqiqiy va to`la qiymatga ekanligini takidlaydi. Tanga metalli, uning sofligi va og`irligi davlat tomonidan kafillanishi kerak.

“Moneta” – so`zi qanday kirib kelgan? Bunga javobni Rimning kumush tangalaridan olish mumkin. Birinchi marta “moneta” so`zi eramizdan avvalgi 45 yilda Tit Kariziy zARB etgan tangada yozilgan. “Moneta” so`zi Yunona ma'budasining yana bir nomi bo`lib, uning sharafiga zARB etilgan tangalar moneta deb atala boshlandi. Ma'budaning odatda Rimliklar “Yunona Moneta” deb atalgan. Uning sharafiga Rimning eng baland yerida Kapitoliyda ibodatxona qurilgan bo`lib, bu yerda tanga zARB qilinadigan ustaxona joylashgan. Shuning uchun ham ma'buda Yunona Moneta va tangalar zARB qilinadigan ustaxona sharafiga tangalarni “moneta” deb atay boshlaganlar. Xatto “moneta” so`zini tangalarning o`zida ham qayd qilganlar. Xususan, miloddan avvalgi birinchi asrning o`rtalarida Rim magistirati Tita Karziya nomidan zARB qilingan tangalarning old tomonidan Yunona mabudasining rasmi va “moneta” so`zini ko`rish mumkin. Keyinchalik bu so`z boshqa xalqlarga ham yoyilib ketdi va shu tariqa metall pullarning ko`pincha moneta deb atay boshladilar. Tangalarning old tomonida odatda hokim, shoh yoki imperator, yo bo`lmasa biror bir muqaddas hayvon, orqa tomonida ham bir o`rta ma'buda yoki boshqa bir narsa, yozuvlar va tamg`a tasvirlangan bo`ladi. O`rta asrlardagi Sharq mamlakatlarining tangalarida rasmlar tasvirlash mumkin bo`limgani uchun rasm o`rniga yozuvlar zARB qilingan. Bu tangalarning old tomonida Qur'onidan oyat, qachon va qaerda zARB qilingani qayd qilingan. Tanganing orqa tomonida oyatning davomi, xudoning yerdagi nomi Muhammad, halifaning ismi va amir yoki ushbu tangani zARB qildirayotgan hokimning ismi keltirilgan. Tangalar nafaqat siyosiy ma'lumotlarni balki, madaniyat san'atga oid ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Ulardan biz Qadimgi arxitektura yodgorliklari suratini aks ettirganligi, ularga qarab arxitektorlar binolarni ham ta'mirlashi mumkin. Jumladan, Afinada zARB etilgan bir tangada Akropoldagi Dionis teatri tasvirlangan. Bu bilan Akropolning qaysi tomonida bu teatr joylashgan o`rni aniqlangan.

Tayanch tushunchalar:

Numizmatika - tanga pullar haqidagi fan

Dariklar - Doro I zARB qildirgan tangalar

Tanganing avers - old tomoni

Tanganing revers - orqa tomoni

Tanga maydoni - rasm va yozuvlar tasvirlangan maydon

Gurt - tanga qirrasi

Emitent - tanga huquqi

Statyer - yunoncha “tarozi dastagi” degan ma'noni bildiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Numizmatika fani predmeti nima?
2. Numizmatikaning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
3. Tarix fanini o`rganishda numizmatikaning tutgan o`rni va ahamiyati?
4. Tangalarning asosiy tarixiy manba ekanligini asoslang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Babayarov G. Drevneturkskie moneto` Chachskogo oazisa. (VI-VIII vv. n.e.) Izdatelstvo Natsionalnoy biblioteki Uzbekistan imeni Alishera Navoi. – T., 2007.

2 - Mavzu: Qadimgi davr O`zbekiston tangalari.

Reja:

1. **Qadimgi davrdagi dastlabki tangalar. O`zbekiston hududidan topilgan eng Qadimgi tangalar.**
2. **Ellinizm davri tangalari. Yunon-Baqtriya tangalari**
3. **Yunon-Baqtriya davlatining iqtisodiy hayotini o`rganishda tangalarning o`rni.**

Qadimgi davrdagi dastlabki tangalar. O`zbekiston hududidan topilgan eng Qadimgi tangalar. Gerodotning va Ksenofontning ma'lumotlariga qaraganda birinchi tangalar Kichik Osiyoning *Lidiya* davlatida paydo bo`lgan. Ularni elektradan - ya'ni oltin va kumushning qorishmasidan tayyorlaganlar.

Keyinroq Yunonistonning *Egin* shahrida ham kumushdan tanga so`qilgan. Shuni aytish lozimki, bu davlatda tanga chiqarishni Lidiyadan o`zlashtirmay mustaqil ravishda zARB qilganlar. Tulki lidiyaliklarda muqaddas hayvon hisoblanib ularning eng ulug` ma'budasi Bassarayning ramzi tasviri bo`lgan. Bu tangani lidiyaliklar *oltin statyer* deb ataganlar. “*Stater*” yunoncha - “*tarozi dastagi*” degan ma'noni bildiradi. Lidiyaliklardan bir necha o`n yillardan keyin Eginda ham tanga zARB qila boshlaganlar. Qiziqi shundaki, Eginda tanga zARB etish mustaqil ravishda ixtiro etildi. Bunda biz lidiyaliklarning ta'sirini aslo ko`rmaymiz. Eginliklar tangani sof kumushdan zARB qilganlar. Uning shakli ham, undagi tasvir ham lidiyaliklarnikidan o`zgacha bo`lgan. Bu tangada toshbaqa tasvirlangan. Ko`p o`tmay, lidiyaliklar va eginliklar ta'siri ostida Yunonistonning boshqa shaharlari, ularning qora dengiz bo`yidagi kaloniyalarida, keyin mustaqil ravishda Eron, Rim, Hindiston, Xitoy va boshqa joylarda tanga zARB qila boshladilar.

Tanganing zARB etilishi davlatning tashkil etilishi bilan ham bog`liq. Biroq bu bilan davlatlarning tashkil topishini ibog`lash mumkin emas. Chunki Lidiya va Eginga qaraganda Shumer, Akkad, Bobil va grek shahar davlatlari nisbatan taraqqiyoti yuqori darajada bo`lgan, ammo tanga zARB qilinmagan edi.

Tanga turi (monetnoy tip) – deb tangadagi barcha yozuv va belgilarning majmuasiga aytiladi. Qadimgi Yunoniston tangalarida xudolar bilan birga muqaddas hayvonlar tasvirlangan. Masalan, Afina tangalarida Afina ma'budasining bosh qismi yoki bo`yoqli, Olimpiya tangalarida esa bosh xudosi Zevsning bosh qismi tasvirlangan. Qora dengizning shimoliy sohilida joylashgan greklarning Olviya shahrida delfinga hamla qilayotgan burgutning tasviri tushirilgan. Xersonesda esa Deva ma'budasi tasvirlangan. Skiflarning tangalarida esa kamon tutgan chavandoz tasvirlangan.

Rim sultani imparatorlarning portreti bilan birga ular yuritgan siyosatni targ`ib qiluvchi shiorlar ham aks etgan. Tanga metalli sifati o'sha davlatning tarqqiyoti haqida ham ma'lumot beradi. Masalan, Qadimgi grek tangalari ichida Afina draxmasi yuqori sifati bilan ajralib turgan va yuqori baholangan.

Tangalardagi ramziy ma'noni anglatuvchi belgilarning o'zgarishi, davlatdagi o'zgarishlar bilan bog`liq.

O'zbekiston hududida Qadimgi tangalar Eron ahamoniylari shohi Doro II Gistals tomonidan zarb qilingan oltin tangalar bo`lib, ular "darik" deb atalgan.

Eronda birinchi marta tanga pullarni miloddan avvalgi 522-486 yillarda hukmronlik qilgan shoh Doro I zarb qildirgan. Shuning uchun ham u zarb qildirgan tangalar "dariklar" deb atalgan. Dariklar sof oltindan tayyorlangan va og`irligi 8,4 grammga teng. Tangada kamon otayotgan shoh tasvirlangan. Dariklardan tashqari Ahamoniylar Eronda kumish tangalar ham zarb qilingan.

Aleksandr Makedonskiy zarb etgan tangalar hukmdorning boshqaruvi va g`olibona yurishlarini aks ettirgan. Eramizdan avvalgi 334 yilda Aleksandr 22 yoshida birinchi tangasini zarb qildirgan.

1930 yilda Marmar dengizidagi shahzoda nomli orollardan arxeologlar er. av. IV asrga oid oltin va elektra tangalar xazinasi topilgan. Tadqiqotchilar bu xazinani eramizdan avvalgi 334 yilda armiyaning bu yerga yaqinlashib kelayotganidan hhavotirga tushib, bir savdogar yoki boy yashirgan, degan xulosaga keladilar. A.Makedonskiy yurishlaridan so`ng Qadimgi dunyoda ellinizm davri boshlangan. Aleksandrning otasi Filipp faqat o`z nomi bilan tangalar zarb ettirgan bo`lsa, Aleksandr Makedonskiy "*Basilevs Aleksandr*" - podshoh Aleksandr nomi bilan tangalar zarb ettirilib, bu bilan u o`zining yakka hokimligini yana bir bor ta'kidladi. Shunday deb esa o`zlarini fors podshohlari ataganlar.

"*Basilevs*" tituli Aleksandr Makedonskiyning siyosatini bildirar edi. Aleksandrdan keyin bu nom bilan barcha shohlar o`zlarini shunday deb ataganlar.

Avvallari Yunonistonning barcha shaharlarining o`z tangalari bo`lgan bo`lsa, endilikda Aleksandr Makedonskiyning kumushdan zarb ettirgan tangasi u bosib olgan yirik hududda muomalada bo`ldi. Bu tangalarda Aleksandr Makedonskiyning portreti bilan Afina ma'budasining oltindan yasalgan bo`rtma portreti tasvirlangan. Kumush tangalarda Aleksandrning tasvirining bo`lishi uning xudo deb ulug`laganidan dalolatdir. Katta hududlarni zabit etgach, Aleksandr Makedonskiy sher terisini yopingan Geraklni, keyinchalik o`zining ham sher terisini yopingani tasvirlangan tangalar zarb etdi.

Ellinizm davri tangalari. Ellinizm davri shohlari ham shunday yo`l tutganlar, ya'ni tangada o`zi bilan birga xudolarning hoqirliam tasvirini tushirganlar. Ellinizm davri shohlari, o`zlarini Aleksandrning vorislari deb hisoblaganlar. Misr shohi Ptolomey Sotyer (eramizdan avvalgi 305-283 y.) o`z tangalarida Aleksandr nomini yozgan. Kichik Osiyodagi Pont davlati shohi Mitridat Evpator (eramizdan avvalgi 132-63 y.) o`z tangalarini Aleksandrnikiga o`xhash zarb ettirib, u o`zini yarim xudo darajasiga ko`targan. U shu qadar shafqatsiz bo`lganki, o`zining sodiq xizmatkorlariga oldindan har ehtimolga qarshi o`ldrish rejalarini ishlab chiqqan. Xatto unga qarshi bo`lgan deb o`ylab o`z onasi, aka-singillarini ham qatl etgan.

Eramizdan avvalgi III asr o`rtalarida taxminan 250 yillarda Baqtriya Salavkiylar davlatidan ajralib chiqadi va shu davrdan boshlab Yunon-Baqtriya podsholigi davri boshlandi. Bu davlat haqida yozma manbalarda ma'lumot kam bo`lgani uchun u haqda

tangalardan qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Yunon-Baqtriya davlatiga Baqtriya davlati shu bilan birga uning tarkibiga Hindistonning shimoli-g`arbiy qismi ham kirgan. Shimoliy Afg`onistonidagi Balx shahri o`midagi Baqtr shahri davlat poytaxti bo`lgan. Yunon–Baqtriya davlatining birlinchi hukmdori Diodot I kumush tanga zarb etgan bo`lib, uning bu davlatning asoschisi ekanini tangalardan bilib olish qiyin emas. Tangalarda u o`zining portretini tasvirlab, tagiga “*Shoh Antiox*” deb yozdirgan. U umrining oxirigacha o`z nomini yozdirmaydi. Tanganing reversida qo`lida chaqmoq va burgut ushlagan Zevs tasvirlangan. Buning mazmuni shuki, Diodot va uning ajdodlariga Zevs homiylik qilgan. “*Diodot*” – nomining tarjimasi ham “*Xudo bergen*” degan ma'noni anglatadi.

Diodot II (Diodotning o`g`li) ham huddi shunday tasvirli tangalarini otasidan farqli o`laroq o`zining nomidan zarb etdi. Diodotni taxtdan tushirgach Evtidem o`z tangalarida Geraklni aks ettirdi. Demetriy tangalarida ham Gerakl tasvirlangan, ammo uning Geraklning boshida gulchambar bo`lib, bu Mitranning tasviri bilan qo`shilgan edi. Ellinizm davrida yunon madaniyati bilan mahalliy xudolar qo`shilib, gibril xudolar tasvirlangan. Antimox davrida Farg`ona vodiysi zabit etildi. Uning tangalarida Poseydon (dengiz xudosi) tasvirlangan. Tadqiqotchilarining fikricha, Farg`onani bosib olish jarayonida Amudaryo bo`yidagi jangda yordam bergan bo`lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya podsholigi nodir san'atining namunalari bo`lgan tangalar yordamida podsholikning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy hayoti haqida ko`pgina ma'lumotlar olamiz.

Demak, e'tiborga molik Yunon-Baqtriya tangalari topilmalari ichida quyidagi tangalar mavjud: 1 ta Diodotning tangasi, 8 ta Evtidemning, 2 ta Demetriyniki.

Yunon-Baqtriya davri iqtisodiy xo`jalik, hunarmandchilik, madaniyat va shahar hayotining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. G`oyat muhim tomon shundaki, bu tangalar ichida yirik savdo bitimlari uchun belgilangan kumush tatradraxmalar va draxmalar qatorida, kichik chakana savdo aloqalari bilan bog`liq bo`lgan mis tangalar ham bor. Bu bir tomonidan pul xo`jaligini rivojlanganligini, ikkinchi tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va muomalada bo`lishning ancha kengayganini bilishimiz mumkin.

Tayanch tushunchalar:

Elektra - oltin va kumish aralashmasidan zarb qilingan tangalar

Darik - O`zbekiston hududida Qadimgi tangalar Eron ahamoniylari shohi Doro II Gistals tomonidan zarb qilingan

Elektra - Kichik Osiyoning Lidiya davlatida oltin va kumish aralashmasidan tangalar zarb qilingan.

Statyer - yunoncha “tarozi dastagi” degan ma'noni bildiradi.

Tanga turi (monetno`y tip) - deb tangadagi barcha yozuv va belgilarning majmuasiga aytildi.

Salavkiylar tangalarida - o`ng tomonida Zevs-grek bosh xodosi, chap tomonida g`alaba ma'budasi Nikaning filga qo`shilgan aravada tasvirlangan surati tasvirlangan.

Savol va topshiriqlar

1. Doro II tomonidan zarb qilingan oltin tangalar qanday nom deb atalgan?
2. Iskandar o`z tangalarini nimadan zarb qildirgan?

3. Salavka II Nikatorning tangarida o`ng tomonida qanday tasvir, chap tomonida qanday tasvirlangan sur`at zARB qilingan?
4. Salavkaning o`g`li Antiox tetradraxmalarida qanday tasvir tushirilgan?
5. Demetriy zARB qildirgan tangalarda nima tasvirlangan?

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Numizmatika Sentralnou Azii. VII Sbr., - T., 2004.

3 - Mavzu: Ilk o`rta asr O`zbekiston tangalari.

Reja:

- 1. Ilk o`rta asr tangalari. Turk – So`g`d tangalari.**
- 2. Choch tangalari va ulardagi So`g`dcha yozuvlar.**
- 2. Farg`ona tudunlari tangalari.**

Ilk o`rta asr tangalari. Ilk o`rta asrlarda O`zbekiston hududidagi Choch, Farg`ona, Usturshona, So`g`d, Buxoro, Xorazm harbiy turk hoqonligi tarkibida bo`lsa-da, ularning yabg`ulari o`zining bir-biridan mustaqil siyosat yuritar edilar. Ularning har birining o`z davlat boshqaruv sulolalari, boshqaruv markazi (poytaxti), qonuni, harbiy kuchlari, aniq chegaralari va pul birligi mavjud edi. Turk hoqonlari bu viloyatlarning ichki ishlariga aralashavermaganlar. Viloyatlar hoqonlik markaziga asosan soliq yig`ishga e'tibor bergenlar.

Sharqiy Turk hoqonligiga oid tangalar Kanxa, Binokat kabi Toshkent oazisiga oid hududlardan topilgan bo`lib, bu esa o`lkalarning savdo - hunarmandchilik markazi bo`lganligidan dalolat beradi.

Turk-So`g`d tangalari nomi ostida bronza tangalar zARB etilgan bo`lib, ularning reversida “xotun” tituli bilan chiqib, ushbu seriyada tanganing aversida erkak va ayol juft holda tasvirlangan. Bu haqda M.E.Masson bildirgan fikr (“K voprosu o vzaimootnosheniyax Vizantii i Sredney Azii po danno`m numizmatiki” maqolasi G`G` Trudo` SAGU, Novaya seriya, XXII. V.kn. 4. Tashkent, 1951) yetakchi fikr bo`lib qolmoqda. Ularda turkiy runiy yozuvlari bilan so`zlar bitilgan. Bu so`zlarni o`qishga urinish bor, ammo hozirgacha to`liq o`qib chiqilmagan.

Choch tangalari va ulardagi So`g`dcha yozuvlar. To`n yabg`u-qoqon (618-630) davriga oid tangalarning uch tipi ma'lumdir. Uning davrida hoqonlikning markazlashuvi yanada kuchaydi. Shu bilan birga VII asrda mahalliy hokimliklarda ham masalan, Chochda turk sulolalaridan teginlar (605-746) va tudunlar (620-750) tomonidan tangalar zARB etildi.

Chochdan topilgan numizmatik materiallar Markaziy Osiyoning harbiy turk hoqonligi davri ilk o`rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga muhim ma'lumotlarni beradi.

Qadimgi turk tangalari, xususan, Choch tangalarini maxsus o`rgangan tarixchi va arxeologlar M.E.Masson, O.I.Smirnova, V.A.Livhits, E.V.Rtveladze, E.V.Zeymal, Q.Boboyorov M.Isqoqov tadqiqotlarida “turk-sug`d tangalari”, “Sug`d-turk tangalari”, “turk sulolalarining choch tangalari” kabi iboralar ifoda etilgan.

VII-VII asrlarda hoqonlik hududlarida mahalliy hokimlar turk tudunlari, turk tekinlari tomonidan ham tangalar zarb etilgan. Biroq hoqonlikka qaragan hokimlaning sulolasi tarixi, sanalari haqida hanuzgacha uzuq yuluq ma'lumotlar bor.

Choch tangalari seriyasi yozuvlari tasvirlari turlari topilgan bo`lib ularda hukmdorlarning surati, tanganing o`rtasida kvadrat xalqali yo`lbars surati tushirilgan. Bundan tashqari tangalarda hukmdorning boshi uzra yarim oy, chap tomonida yulduz kabi tasvirlar ham tushirilgan. Masalan, Choch hukmdori Teginning sochlari yelkasiga tushgan, ko`zlar qisiq, chap va o`ng tomonlarida yarim oy va yulduzning tasviri tushirilganini ko`ramiz. Yoki tangalarda hukmdorning kiyimi uning quyuq qoshlari va qovog`ini bo`rtib chizilgani, ularda xatto ko`zlarini ham tushganini ko`ramiz. hukmdorning qulqlarida ziraklari bor. Tanga legendalari (tanga yozuvlari)da juda qisqa sug`d yozuvlari bor. Bu yozuvlarda faqat hukmdorning ismi va uning oldida “*tangri yorlaqagan hukmdor*”, “*hukmdor tudun, iloqiy qonun tayanchi*” kabi so`zlar bitilgan.

Choch tangalari gruppasi tanga doirasidagi tasvirlar bo`yicha mutlaqo originaldir. Masalan, turkumning ko`pgina tangalari o`ng yuzasiga fantastik vahshiy hayvonning hujumkor (dahshat soluvchi) qiyofasi tushirilgan. Hayvon tasviri tanga tiplari bo`yicha har xil. Ba'zan hayvonning boshi o`ng tomonga, goho chap tomonga qaratilgan. Ba'zi tangalarda hayvon oldingi o`ng oyoqiga cho`kibroq, chap oyoqini mushuksimonlarga xos ko`targan holda tasvirlanadi. Dum esa keskin baland ko`tarilgan va tananing tepasiga joylashgan. Choch tangalari seriyasida hokimiyat ramzi sifatida u yoki bu tomonga qaratilgan panshaxasimon tamg`a tasvirlangan. Shunisi muhimi, Choch tangalariga So`g`d milliy yozuvi asosidagi xat bitilgan. Umuman, keyingi vaqtida So`g`dcha yozuvli tangalarning qator yangi tiplari topilayotgani So`g`d yozuvining Choch uchun ham Qadimdan o`ynagan madaniy rolini tushunishga yordam beradi. Choch tangalaridagi So`g`d yozuvlari M.Ixoqov va B.To`xlievning “O`lmas obidalar” nomli tadqiqotida mukammal yoritilgan.

Farg`ona tudunlari tangalari. Farg`ona tudunlari tangalari quva, O`tror, Varaxshadan topilgan. Tip jihatdan seriya namunalari o`rtasida kvadrat teshikli tanga bo`lib, teshikchaning o`ng tomonida runiy harf belgilari bor. Ularni M.Ixoqov ta'biri bilan aytganda “Alp” ismining So`g`dcha yozilishidir.



Кушаны. Тетрадрахма "Герая". Аверс, реверс.
Кон. 1 в. до н. э.



Кушаны. Монета Сотера Мегаса.
Аверс, реверс. 1 в. пол. 1 в.



Кушаны. Халк Вимы Кадфиза.
Аверс, реверс. 2 пол. 1 в.



Кушаны. Динар Канишки. Аверс, реверс. 1 пол. 2 в.



Согд. Монета Гиркода. Аверс, реверс. 1 в. до н. э.



Чаганиан. Подражание драхмам Пероза I.
Аверс, реверс. Кон. 5 – нач. 6 в.в.



Бухархудаты. Драхма. Аверс, реверс. 7 в.



Ишхиды Согда. Гурак. 710–732 г.г.



Чаганиан. Драхма Хосрова I с начеканами.
Аверс, реверс. 6 в.



Монета Чача. Аверс. Кон. 3–4 в.в.



Сасаниды. Драхма Шапура II. Аверс, реверс. 309–379 г.г.



Чаганиан. Драхма Пероза с начеканами.
Аверс. Кон. 5–нач. 6 в.

Tayanch tushunchalar:
Choch tangalaridagi tanga legendalari - tanga yozuvlari

Savol va topshiriqlar:

1. Choch tangalaridagi tasvirlar qanday bo`lgan?
2. Choch tangalaridagi legendalari (tanga yozuvlari)da yozuvlar haqida ma'lumot bering.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Babayarov G. Drevnetyurkskie moneto` Chachskogo oazisa (VI-VIII vv. n.e.). - T: Izdatelstvo Natsionalnoy biblioteki Uzbekistana im. Alishera Navoi, 2007.
2. Numizmatika Sentralnoy Azii. VII Sbr., - T., 2004.

4 - mavzu: Amir Temur va Temuriylar sulolasining tangalari
Reja:

1. **Amir Temur tangalari.**
3. **Amir Temur avlodlaridan Muhammad Sulton, Jahongir va Xalil sulton tangalari.**

Amir Temur va uning tangalari. Amir Temur Movarounnahrda Chig`atoy avlodlarining tarqoq hukmronligi va ularning hokimiyat talashib betinim olib borgan urushlariga tezda barham beradi va Movarounnahrni bir butun markazlashgan davlatga birlashtiradi.

Temur o`zini «Amir» deb ataydi. 1372 yildan 1388 yilga qadar qo`g`irchoq xon Suyurg`ot mish, undan keyin esa uning o`g`li Mahmudxon nomidan tangalarga ularning nomi bilan birga o`z nomini ham qo`shib zarb qildiradi. 1402 yili Mahmudxon vafot etgach, Amir Temur Mahmudxonning nomi bilan pul zarb qilishni davom ettiradi.

Bu tangalarning old tomoniga:

“*Lo iloha illoloh Muhammad rasul Olloh*” deb - Qur'ondan kalima yozdirdi. Tangalarning to`rt burchagiga esa to`rt xalifa: Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilar ning nomlarini yozdirdi.

Tanganing orqa tomoniga esa:

“*Suyurg`ot mishxon yorlig`i Amir Temur Ko`ragan akmonu*”, deb yozilgan. Samarqandda (1380, 1381, 1383, 1384, 1386 y.,) zarb qilingan kumush mirilarga ham ana shunday Suyurg`ot mishxon va Amir Temur nomi yozilgan.

Sulton Mahmudxon va Amir Temur nomidan zarb qilingan kumush tanga va mirilarning oldi tomoniga:

“*Lo iloha illoloh Muhammad rasul Olloh*” - deb, tangalarning orqa tomoniga esa:

“*Sulton Mahmudxon yorlig`i Amir Temur Kuragan ak-mano*” - deb yozilgan. Tangalar asosan kumushdan zarb qilingan.

Og`irlik vazni 6 grammni tashkil qilgan bo`lsa, uni tanga deb atalgan. Tanganing to`rtadan biriga to`g`ri keladigan 1,5 grammlik kumush pullar esa Amir Temur nomi bilan «*mir*» deb yuritilgan.

Undan boshqa kundalik turmushda ishlatiladigan juda ko`p mis chaqalar Amir Temur nomi bilan zarb qilingan.

Shuningdek, tangalar Samarqand, Buxoroda, Afg`oniston va Ozarbayjon singari mamlakatlarning Ardabil, Astroboqd, Astra, Darband, Domg`on, Boku, Mahmudobod,

Mordin, Isfaxon, Qum, Qirmon, Kasong Shabanqora, Xoy, Tabriz, Sabzavor, Sova, Sheroz, Shemaxa, Shabron singari qirqga yaqin shaharlarida zerb qilingan.

Biz quyida Amir Temur va Sulton Mahmudxon nomi bilan Afg`oniston, Eron, Iroq va Ozarbayjon shaharlarida turli davrlarda zerb qilingan tangalarning orqa tomonidagi yozuvlardan ayrim namunalar keltiramiz: Sulton Mahmudxon yorlig`i Amir Temur Ko`ragon qaldolloh mulikihu, zerb Astrobod, Sulton Mahmudxon, Amir Temur Ko`ragon...

Amir Temurning geometrik va har xil nafis naqshlar bilan bezatilgan tangalarida tamg`alar, ya`ni uchta chambaraksimon kichik halqachalardan iborat. Ispaniya qirolineg elchisi Klavixoning fikricha, bu tamg`alar «Temur - uch tomonning hukmdori», - degan ma`noni anglatadi. Yana ba`zilar mazkur tamg`a ho`kiz boshining ramzidir, ya`ni ho`kiz boshining faqat ikki ko`zi bilan og`zi tasvirlangan, deb taxmin qiladilar.

Temur saroyida arab yozuvi bilan birga eski turk (uyg`urcha) yozuv ham qo`llanilgan. Bu yozuv bilan bitilgan yozma yodgorlik va yorliqlar temuriylar sulolasining eng oxirgi vakillari davrida ham ishlatalib kelingan. Amir Temur o`zining 1391 yili Oltin O`rda xoni To`xtamishga qarshi harbiy yurishlari haqidagi xotira toshini ham ana shu yozuv bilan yozdirgan edi. Amir Temur tangalarida biz arabcha, forscha, turkcha va mo`g`ulcha so`zlarni o`qiymiz. Masalan: **arabcha: Alloh uning podsho va sultonligini mangu boqiy qilsin, forscha zarb, yorlig`i va mo`g`ulcha akmanu - mening so`zim, Ko`ragan (kuyov)** singari so`zlarni uchratamiz.

Movarounnahr va Samarqandda Chig`atoy avlodlari hukmronlik qilgan 150 yil (1220-1370 y.) ichida biron katta ijtimoiy foydali imorat deyarli qurilmagan bo`lsa, Amir Temur va uning avlodlari zamonida davlatning markazi Samarqand shahri siyosiy-iqtisodiy, fan-madaniyatda gullab, ravnaq topib, dunyodagi eng katta go`zal shaharlardan biriga aylangan. Uning atrofidagi qishloqlarga esa musulmon davlatlaridagi eng katta shaharlarning nomi berilgan. Masalan, Damashq (Ummaviylar halifaligining markazi), Bag`dod (Abbosiyylar sulolasining markazi), Misr (Fotimiylar sulolasining markazi). Amir Temur davrida Samarqandda Bibixonimning Jomiy machiti, Ko`k saroy, Shohizinda ansamqli, Bog`i Chinor, Bog`i Shamol, Bog`i Dilkusho, Bog`i Behisht va boshqa bog`lar barpo etilgan. Shuning uchun ham Samarqand «Samarqand sayqali ruyi zamin ast» (Samarqand yer yuzining ko`rki), Buxoro esa «Buxoro quvvati diniy islom ast» (Buxoro islom diniga quvvat) deb atalgan. Samarqanddagagi Bibixonim madrasasi peshtoqiga dunyo o`tkinchidir, uni ezgulikka sarf etingiz», degan hikmat bitilgan.

Yuqorida keltirilgan dalillar Amir Temur davrida O`rta Osiyo shaharlari iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalib, jahonda mashhur bo`lganini ko`rsatadi.

Muhammad Sulton, Muhammad Jahongir va Halil Sulton tangalari.

Amir Temurning to`rt o`g`li bo`lib, eng kattasi Mirzo Jahongir Temur hayot vaqtidayoq 1376 yili vafot etgan.

Ikkinchi o`g`li Mirzo Umarshayx Fors hokimi bo`lib, u ham Temur hayot vaqtidayoq 1394 yili Qurdistondagi jangda o`q tegib o`lgan.

Uchinchi o`g`li Mirzo Mironshoh 1366 yili tug`ilib, 14 yoshidan boshlab Temurning Xurosonga 13 qilgan harbiy yurishlarida ishtirot etgan. U Eron, Ozarbayjonning hokimi bo`lib turgan paytda 1396 yili otdan yiqilib, aqli bir oz zaiflashib qolgan. U Tabriz yaqinidagi turkman lashkarboshisi qora Yusuf bilan bo`lgan jangda o`ldirilgan.

To`rtinchi o`g`li Mirzo Shohruh 1387 yili tug`ilgan, Amir Temur uni 1396 yili Xuroson hokimi etib tayinlagan.

Mirzo Jahongirning o`g`li Muhammad Sulton Amir Temurning eng sevimli nabirasi bo`lib, otasi Jahongir vafot qilganidan keyin Temur uni o`zining vorisi etib tayinlagan.

Muhammad Sulton 1374 yili tug`ilgan bo`lib, 24 yoshida 40 ming lashkarga boshchilik qilib, hozirgi Qирғизистондаги Ashpara shahri uchun bo`lgan janglarda qatnashib, g`olib chiqqan. 1399 yili Temur Hindistonga yurish qilgan vaqtida Muhammad Sultonni Samarqandning hokimi etib tayinlagan. U 1401-1402 yillardagi Shimoli-g`arbiy Eron va Kichik Osiyodagi urushlarda, Turkiya sultonni Boyazidga qarshi janglarda qatnashib, qaytib kelayotgan vaqtida to`satdan kasalga chalinib, 1403 yil 13 martda vafot etgan. Shahzodaning jasadi Samarqandga dafn qilingan. Go`ri Amir maqbarasi Temurning arzanda nabirasi Muhammad Sulton nomi bilan bog`liqdir. 1405 yili Amir Temur vafot etganidan so`ng uni Muhammad Sulton jasadi yoniga dafn etganlar. Bu maqbara qurilishi faqat Ulug`bek davriga kelibgina tamomlandi va Temuriylar avlodining xilxonasiqa aylantirildi. Bu erga Mironshoh, Shohruh va Ulug`beklar ham dafn qilingan.

Amir Temur o`zining bu arzanda nabirasidan bevaqt judo bo`lganligiga juda qattiq qayg`urib, uning nomini mangu yod etish maqsadida Muhammad Sulton nomi bilan tangalar zarb etgan.

Bu tangalarning old tomoniga Qur'onдан kalima va uning to`rt burchagiga birinchi to`rt halifaning nomi, boshqa burchaklariga esa tangalarni zerb qilgan shahar hamda yillar yozilgan.

Samarqand 1402-03 yil. Orqa tomoniga esa:

- *Sulton Mahmud Amir Temur Ko`ragon Amir Muhammad Sulton.*
- *Sulton Mahmudxon Amir Temur Kuragon vali al'-aqdi fizomon Muhammad Sulton. Sultoniy.*
- *Alo a'zam Sulton Mahmudxon alo Amir Temur Ko`ragon vali al' aqdi amirzoda Muhammad Sulton xalidolloh mulikixu, zerb. Tabriz.*

Muhammad Sulton Amir Temurdan oldin vafot etganligidan, Temur yana bir boshqa nabirasi, Mirzo Mironshohning o`g`li Xalil Sultonni toj-taxt vorisi deb e'lon qiladi. Xalil Sulton 1384 yili tug`ilgan bo`lib, uni Amir Temurning katta va sevimli xotini Saroymulukxonim tarbiya qilgan edi. U 15 yoshidan boshlab bobosi bilan harbiy yurishlarda qatnashgan bo`lib, harbiy va siyosat ishlaridan boxabar edi. Amir Temur Xalil Sultonni Xitoyga qarshi yurishda (1404 yili) o`ng qanot askarlarning qo`mondoni qilib tayinlagan edi. U Amir Temur vafotidan so`ng, bir oy o`tgach, Samarqand taxtini egalladi. Muhammad Sultonning balog`atga etmagan o`g`li Muhammad Jahongir nomigagina xon deb e'lon qilindi. Nima uchun Xalil Sultonni xon deb e'lon qilmadi? Uning asosiy sababi bunday edi: «Xalil Sultonni ilgari Temurning jiyani amirzoda Alining qizi Jahon Sulton begimga uylantirib qo`ygan edilar. Xalil Sulton qonuniy xotini bo`la turib amir hoji Sayfuddinning cho`risi sohibjamol Shodimulkni yoqtirib qoladi va uni hojasidan tortib olib yashirinchha nikohiga o`tkazadi. Amir Temur buni eshitib darg`azab bo`ladi va yasovulboshini chaqirtirib «Shahzodani qayda bo`lsa ham tutib keltirilsun va mahdi ulyo Bayon oqa turgan qasrga qamab qo`yilsin, behayo Shodimulkni ersa g`ulomlardan biriga xotin qilib berib yuborilsun», deb farmon beradi. Lekin amirlar Sohibqironning kayfiyati durustroq paytni poylab uning ko`nglini yumshatishga erishadilar. Ammo Amir Temur o`zboshimcha nabirasining gunohidan o`tsada, uni valiahd qilish niyatidan qaytgan edi».

Xalil Sulton hokimiyat tepasiga chiqqandan so`ng, zarb qilgan kumush va mis pullarga o`z nomi bilan birga Muhammad Jahongirning nomini «xon» so`zini qo`shmay zarb qildiradi. Tangalarning old tomoniga: Qur'ondan kalima va uning to`rt burchagiga birinchi to`rt xalifa nomi va tangalarni (mirlarni) zarb qilgan shahar, yillar yozilgan. Orqa tomoniga esa:

- *Sulton Muhammad Jahongir omon az-zamon amir Xalil Sulton xaldOllo mulikixu. 1404 - 05 yil.*
- *Muhammad Jahongir al-jalil aldiyon amir Xalil Sulton xaldOllo mulikixulzarb fi sanai ashara sa-mamnia, zarb 1407- 08 yil.*

Shohruh tangalari. Xalil Sulton hokimiyatga chiqishi bilan Temurning o`g`li Shohruh va nabiralari o`rtasidagi hokimiyat uchun bo`lgan kurash tinib-tinchimadi. Bu kurash ba'zan yashirin, ba'zan oshkora qurolli tusda olib borildi. Uzoq yillik adangu jadallar natijasida xalqning qoni bequdaga to`kilar, shahar va qishloqlar vayron bo`lar edi. Ana shunday o`zaro kurashlardan so`ng Amir Temurning kenja o`g`li Shohruh qolib chiqib, 1409 yili o`z o`g`li Ulug`bekni Samarqand hokimi etib tayinladi. Xalil Sultonni bo`lsa harbiy Erondagi Ray shaharining hokimi qilib belgiladi va u shu shaharning shimolidagi Shahriyor qo`rkonida 1411 yili vafot etdi. Muhammad Sultonning o`g`li Muhammad Jahongirni esa qisori Shodmon viloyatiga hokim etib tayinlab, o`zi bo`lsa Hirot shahrini poytaxt qilib, Xuroson va Movarounnahrda 50 yil mustaqil hukmronlik qildi.

Shohruh Mirzo Movarounnahr va Xurosonning bosh hukmdori sifatida bu joylardagi hamma katta shaharlarda: Astrobod, Buxoro, Domg`on, Isfahon, Qushon, Kirmon, Qum, Nishapur, Marv, Samarqand, Sabzavor, Sova, Sultomiya, Tabriz, Xorazm, Hirot, Sheruz va boshqa shaharlarda o`zining kumush tanga pullarini zarb qildi. Bu tangalarning old tomoniga “*Lo iloha illoloh Muhammad rasul Olloh*“ deb Qur'ondan kalima yozilgan bo`lsa, uning to`rt burchagiga dastlab to`rt xalifa - Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarning nomlari yozilgan. Orqa tomoniga esa asosan: “*Sulton al-a'zam Shohruh Bahodir xaldolloh mulikixu va sultanahu*” deb yozilgan so`zlar bilan birga bu kumush tangalar zarb qilingan sana va shaharlarning nomi qayd etilgan. Shohruh tangalarining old tomoniga, biz yuqorida ko`rsatib o`tganimizdek, Qur'ondan kalima va to`rt halifaning nomi yozilgan.

Biz quyida Shohrx tangalarining orqa tomoniga yozilgan so`zlardan ayrim namunalar keltiramiz.

- *as-Sulton al-a'zam Shohruh Bahodir xaldOllo mu-likixu va sultanaqu, zarb Astrobod, 1427-28 y*
- *as-Sulton al-a'zam Shohruh Bahodir xaldOllo mulikixu va sultanaxu, zarb Astrobod, 1412-13 y*
- *as-Sulton al-a'zam Shohruh Bahodir xaldOllo mulikixu va sultanaqu, zarb Iazd, 1419 y*
- *as-Sulton al-a'zam Shohruh Bahodir xaldOllo mu- likixu, zarb Kirmon, 1424-25 y*
- *as-Sulton al-a'zam Shohruh Bahodir xaldOllo mulikixu, zarb Sabzavor, 1424-25 y*
- *as-Sulton al-a'zam Shohruh Bahodir xaldOllo mu-likixu, zarb Sova,*

Ulug`bekning Samarqand saltanatiga kelishi va uning tangalari.

Ulug`bek Amir Temurning nabirasi va Shohruhning o`g`li bo`lib, u 1394 yil 22 martda G`arbiy Erondagi Sultoniy shaharida tug`ilgan. Onasi Gavharshod og`a Chig`atoy turk amirlaridan G`iyosiddin Tarag`ayning qizi bo`lgan. Uning asl ismi Muhammad Tarag`ay bo`lib, lekin bobosi uni yoshligidan beklarning ulug`i deb erkalatgani uchun unga Ulug`bek nomi ism bo`lib qolgan. 1409 yil dekabrda u Samarqand saltanatiga o`tirgan.

Ulug`bek Samarcand saltanatida 40 yil (1409-1449) hukmronlik qilgan. Musulmon olamida Ulug`bekdan boshqa biron podshoh bu qadar ilm-fanda dovrug taratmagan. Ulug`bek Samarcandni ilm-fan maskaniga aylantirdi, falakiyot fani rivojiga ulkan hissa qo`shdi. Ulug`bek davrida Movarounnahrda ilm-fan va madaniyat gulladi, savdo-sotiq ravnaq topdi.

Ulug`bek davrida garchi Samarcand va Buxoroda kumush tangalar zarb qilingan bo`lsa ham ularni Ulug`bek o`z nomi bilan emas, balki padari buzrukrori Shohruhning nomi bilan chiqardi. U o`z nomidan kumush pullarni faqat otasi Shohruh vafotidan keyingina zarb qilishga kirishdi. Uning nomi bilan kumush pullarni Samarcand va Hirotda zarb qilish ishlari faqatgina ikki yilu yetti oy davom etdi. Shuning uchun ham Ulug`bek nomi bilan zarb qilingan kumush tangalar kam uchraydi va noyob hisoblanadi, Shohruhning kumush tangalarida Amir Temur tangalariga xos tamg`a va Temurning nomi yo`q. Ulug`bek tangalarida esa Temur davlatining tamg`asi bilan uning nomi esga olinadi. Masalan:

«Temur Ko`ragon qimmatidin Ulug`bek Ko`ragon so`zim, zarb Samarcand, 1449 yil, deb yozilgan bo`lib Ulug`bekdan boshqa bironta avlodni o`z nomi bilan Amir Temurning nomini qo`shib zarb qilmagan. Ulug`bek xuddi ana shunday tangalarni 1447 yili Xorazmda, 1448 yili esa Hirotda zarb qilgan.

Mirzo Ulug`bek Movarounnahrdagi savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish va bozorda savdo muomalasida yuritilgan mis pullarni tartibga keltirish maqsadida 1428-1429 yillari pul islohoti o`tkazib, mis pullarni yangi ko`rinishdagi shaklda zarb qildi. Bizga ma'lum bo`lgan Sharq manbalari ichida Ulug`bekning pul islohoti o`tkazganligi haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi. Lekin Ulug`bek davrida Movarounnahrdagi zarb qilingan mis pullarni chuqur o`rganish bu davrda pul islohoti o`tkazilganligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, numizmatika fani XV asrning birinchi yarmida O`rta Osiyoning iqtisodiy hayotida muhim rol o`ynagan pul islohoti o`tkazilganligini moddiy dalillar bilan isbotlab, Movarounnahrdagi tarixini o`rganishdagi yana bir sahifani ochib berdi.

O`rta Osiyo nohiyalaridan topilgan juda ko`p dafinalar (xazinalar)ni o`rganish jarayonida bizga shu narsa ayon bo`ldiki, Ulug`bek 1420 yillari birinchi marta pul islohoti o`tkazib, zarb qilgan mis pullarning old tomonidagi burchak shaklida tasvirlangan yulduzcha o`rtasiga: zarb Samarcand adliya - deb yozdirgan bo`lsa, orqa tomoniga esa ya'ni bu pullarning zarb qilingan yili 823G`1420-yil deb arabcha so`zlar bilan yozilgandir. Lekin 823G`1420 yillari Samarcandda zarb qilingan mis pullar 1428-29 yillari Buxoroda zarb qilingan pullar bilan bir dafinada topilmaydi yoki juda kamdan-kam uchraydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: 1420 yillari Samarcandda zarb qilingan tangalar (mis pullar) 1428-29 yillari Buxoroda zarb qilingan pullar bilan almashtirilgan, ya'ni 1420 yillari Samarcandda zarb qilingan eski mis pullar yig`ib olinib, o`rniga yangi ko`rinishdagi pullar muomalaga chiqarilgan.

1428-29 yillarda zarb qilingan pullarning old tomonining markaziy qismiga zarb Buxoro deb yozilgan bo`lib, uning chor atrofi turli gulsimon naqshlar bilan bezatilgandir, orqa tomoniga esa bu pullarni zarb qilgan sanalar yozilgan:

Fi at tarix sanai isna salosina va sammia, ya'ni 832G`1428—29 yil - deb yozilgan. Bunday mis pullar faqat Buxoroda emas, balki butun O`rta Osiyoda eng ko`p tarqalgandir. 832G`1428-29 yillarda zarb qilingan pullarning bunday ko`p topilishining asosiy sababi, bu pullar bu sana bilan zarb qilinibgina qolmasdan, balki undan keyingi yillarda

chiqarilgan pullarga ham 1428 yil sanasi qo'shib zarb qilinganligidadir. Xuddi shunday pullar Movarounnahrdagi boshqa shaharlarda ham, Xuroson, Andigon (Andijon), Qarshi (Kesh), Termez, Samarqand va Shohruhiyada ham zarb qilingan bo'lsa, keyinroq bunday pullarni zarb qilish asosan Buxoroga markazlashtirilgan. 832G`1428-29 yillari zarb qilingan mis pullar XV asrling oxiri va XVI asrning boshlarida ham savdo muomalasida bo'lган. Lekin bu pullarning ustiga har bir shahar o'z tamg`asini urib muomalaga chiqargan.

Biz yuqorida Shohrux vafot etganidan so`ng Hirot hukmronligi Shohruxning nabirasi (Boysunqurning o`g`li) Olouddavla qo`liga o`tganligini aytgan edik, Ulug`bekning katta o`g`li Abdullatif Hirot hukmronligini o`z qo`liga olish uchun Olouddavlaga qarshi ko`p kurashdi. Bu kurashda Ollouddavla g`olib chiqib, Abdullatif o`z maqsadiga erisholmadi.

Ulug`bek qatl qilingandan keyingi Temuriylar avlodining Movarounnahrdagi hukmronligi va ularning tangalari. Padarkush Abdullatif keyin o`z inisi Abdulazizni ham qatl qildi. Lekin ko`p o`tmay Abdullatif Ulug`bekning amirlaridan biri Bobo Husayn Bahodir tomonidan o`ldirildi. Padarkushning jazosi ana shunday bo`ladi deb uning boshini Ulug`bek madrasasining peshtoqiga osib qo`ydilar. Xalq uni olamga sazoyi qildi.

Abdullatif otasini o`ldirib Samarqand sultanatida 6 oy hukmronlik qilgan bo`lsa ham u o`z nomidan pul chiqarishga ulgurdi. Bu tangalarga o`z nomi bilan birga bobosi Shohruh nomini ham qo'shib zarb qildirdi:

As-Sulton al-a'zam Abdullatif Bahodir ibn Shohrux Bahodir ibn Temur Ko`ragon Samarqand, sanasi 853G`144929).

Abdullatif o`ldirilgandan so`ng Samarqand taxtini Ulug`bekning jiyani (Mirzo Ibrohimning o`g`li) Mirzo Abdulla egalladi. U Samarqandda bor-yo`g`i bir yil hukmronlik qildi va shu vaqt ichida o`z nomidan tanga pullar zarb qildi. Bu pullarning old tomoniga odatdagiday Qur'onidan kalima va dastlab to`rt halifaning nomi yozilgan bo`lsa, uning orqa tomoniga:

1451 yili Samarqand hukmronligini o`zini Mironshohning nabirasi, Sulton Muhammadning o`g`li deb yuritgan Mirzo Abusaid egalladi.

Abusaid Shohruh vafotidan keyin parchalanib ketgan Temuriylar davlatini birmuncha tiklashga muvaffaq bo`ldi. U o`z nomidan tangalar zarb qildi. Bu tangalarning orqa tomoniga:

Abusaid vafotidan so`ng o`g`li Sulton O`g`li 1469 yili Samarqand taxtiga o`tirdi. Sulton o`g`li Samarqandda 1469-1494 yillari hukmronlik qilib o`z nomidan tanga pullar zarb qildi. Bu tangalarning orqa tomoniga:

As-Sulton al-a'zam Sulton Axmad Ko`ragon xaldOlloh ta'olo mulikixu va sultonaxu, zarb Samarqand) deb yozdirgan.

1495 yili uning ikkinchi o`g`li Boysunqur 18 yoshida Samarqand taxtiga ega bo`ldi va 1497 yilga qadar hukmronlik qilib o`z nomidan tanga pullar chiqardi. Boysunqur pullarning orqa tomoniga:

As-Sulton al-a'zam xaldOlloh mulikixu va sultana-qu deb yozdirgan. Tanganing markaziy qismida yumaloq doira ichiga Sulton Boysunqur qozi, 901G`1495-96 - deb yozilgan bo`lsa, tangalarning old tomoniga:

Lo ilox illoloq Muhammad rasul Olloh, atrofiga esa avvalgi to`rt halifaning nomi va sifatlari: Abu Bakr as-Siddiq, Umar al-Farrux, Usmon zul-nurayn, Ali al-Murtazoi - deb yozilgandir.

1495-1500 yillari Movarounnahrda Temuriylar (Boysunqur, Sulton Ali mirzo Bobur) orasida toju taxt uchun kurash avjiga chiqdi. Fursatdan Shayboniy-xon foydalanib, Samarqandni 1500 yili bosib oldi.

Temuriylar avlodining Xurosondagi hukmronligi va ularning tangalari Shohruh vafotidan so`ng Amir Temur avlodi o`rtasida Xuroson hukmronligi uchun olib borilgan o`zaro kurashlar kuchayib ketdi. Movarounnahrni Ulug`bek, Xurosonni Mirzo Olouddavla, keyincha Abulqosim Bobur (1477—1451) Eron va Forsni esa uning inisi Mirzo Sulton Muhammad (1458—1452) idora qildi.

Abulqosim Bobur vafotidan so`ng Xurosondagi shahzodalar o`rtasida hokimiyat uchun bo`lgan kurash yanada kuchayib ketdi. Hirotni Olouddavlarning o`g`li Mirzo Ibrohim egalladi. Abulqosim Boburning merosxo`r yosh o`g`li Shohmahmud esa Mashhadga qarab qochdi. Abusaid fursatdan foydalanib Xurosonga qo`shin tordi va Mirzo Ibrohimni tormor keltirib, Hirotni egalladi. Biroq ko`p vaqt o`tmay Balx shahrida Ulug`bekning nabiralaridan (Abdullatif o`g`illaridan) Muhammad Jo`qiy va Mirzo O`g`lilar unga qarshi isyon ko`tardilar. Isyon Abusaid tomonidan bostirildi va u Shohruh vafotidan keyin parchalanib ketgan Temuriylar davlatini ma'lum darajada tiklashga tuyassar bo`ldi.

Abusaid o`ldirilgandan o`ng (1469) Xuroson hukmronligini qo`lga kiritish uchun bo`lgan kurash yanada avj oldi.

1469 yili Sulton Muhammadning o`g`li (Boysunqurning nabirasi) Mirzo Ndgor Muhammad bilan Umar Shayxning chevarasi Sulton Husayn o`rtasidagi keskin janglar natijasida Nodir Muhammad o`ldirilib, butun Xuroson Sulton Husayn Boyqaro qo`liga o`tdi.

Sulton Husayn Boyqaro zamonida (1470 - 1506) Xurosonning Astrobod, Mashxad, Marv, Sabzavor singari katta shaharlarida oltin, kumush va mis tangalar zarb qilinib, savdo muomalasida keng yuritildi. Biz quyida Sulton Husayn tomonidan zarb qilingan tangalardan ayrim namunalar keltiramiz.

As-Sulton al-a'zam, Abulqozi Sulton Husayn Bahodir xaldOlloh ta'olo mulikixu va sultanaxu, zarb Astro-bod, 897G`1491

As-Sulton al-a'zam Abulqozi Sulton Husayn Bahodir xaldOlloh taolo mulikixu va sultanaxu, zarb Mashhad, 874G`1469

As-Sulton al-a'zam AbulTozi Sulton Husayn Bahodir xaldollrq taolo mulikixu va sultanaqu, zarb Hirot, 890G`1485 yil).

Sulton Husayn 70 yil yashab umrining, oxirgi yillarida shol kasaliga mubtalo bo`lib qoldi. Uning 14 o`g`li bo`lib eng kattasi Badiuzzamon edi. O`g`illaridan yettiasi otasi hayot vaqtida vafot etgan bo`lsada, qolganlari otasidan keyin qolib, o`zaro taxt uchun kurash boshladilar. 1506 yili Husaynning vafot etganini va uning o`g`illari o`rtasidagi o`zaro ittifoqsizlikni ko`rgan Shayboniyxon otning chulvorini Hirot tomon burdi.

Ana shunday jiddiy bir paytda Abusaidning nabirasi (Umar Shayxning o`g`li) Zahiriddin Muhammad Bobur Hirotga borib Sulton Husayn o`g`illarini ittifoqlashtirib Shayboniyxonqa qarshi kurashga chaqirdi. Garchi Boburni Sulton Husayn o`g`illaridan

Badiuzzamon va Muzaffarlar juda iliq kutib olgan bo`lsalar ham, lekin ular birlashib ketolmagan edilar.

Ana shunday bir paytda Shayboniyxonning juda ko`p askarlar bilan Balxni egallaganligi haqidagi xabar Hirotg'a yetib keladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Sulton Husayn o`g`illari bilan bir umumiy ittifoqqa kela olmaganligi uchun orqaga qaytib, otni qobul tomon qamchilaydi. Shayboniyxon hujum qilib kelayotganligi uchun u yerda ham turolmay, Hindistonning Agra shahriga chekinib, bu erda Boburiylar sulolasiga asos soladi. Bu imperiya Hindistonda XIX asrga qadar hukmronlik qiladi.

1507 yili Badiuzzamon bilan Muzaffarlar Shayboniyxonga qarshi kurashgan o`g`illari esa har tomonga qarab qochib o`z jonlarini saqlab qolishga harakat qiladilar. 1507 yili Shayboniyxon qech qanday kuchli qarshilikka uchramay juda osonlik bilan Hirotning saltanat taxtini qo`lga kiritadi va o`sha yilning o`zidayoq Hirotdagi katta jamoa machitlaridan birida o`z nomiga xutba o`qittirib tangalar zarb qildiradi. Ana shu xutba Temur va Temuriylar avlodining Xurosondagi hukmronligiga o`qilgan janoza fotihasi ham edi.

Shunday qilib, 170 yil hukmronlik qilib jahonni titratgan Temur va Temuriylar hukmronligi tugatilib, uning o`rniga O`rta Osiyo tarixida yangi bir sulola, Shayboniylar sulolasining hukmronligi boshlanadi.

Amir Temur Samarqand, 1383.





Amir Temur va Sulton Maqmud Yazd 1394-1395.





Temur va temuriylar tangalarida ramziy ma'noni anglatuvchi geometrik shakllar borki ular, tangalarning ichida alohida doira yoki alohida kvadrat bo`lib, ularning ichida 4, 6, 8 qirrali yulduzlar yoki uchburchak, besh burchak va olti burchakli belgilar bor. Bunday shakllarni me'moriy inshootlarda ya'ni, saroy, machit, madrasa va boshqa ob'ektlarda ko`rish mumkin.

Tayanch tushunchalar:

Ko`ragon akmonu - Ko`ragan (kuyov), mo`g`ulcha akmanu «mening so`zim» degan ma'noni anglatadi.

Geometrik xalqalar - “Amir Temur - uch tomonning hukumdori”, degan ma'no Klavixo xotiralarida mavjud.

Mir - Muhammad Sulton tangalari, Jahongir va Xalil sulton tangalari.

Lo iloha illoloh Muhammad rasul Olloh – tangalarning old tomonidagi yozuvlar

Savol va topshiriqlar:

1. Amir Temurning geometrik va har xil naqshlar bilan bezatilgan tangalarida 3 ta xalqa qanday ma'noni anglatadi?
2. Shohruk Mirzo Movarounnahr va Xurosonning qaysi shaharlarda o`zining kumush tanga pullarini zarb qildiradi?
3. Sulton Husayn tomonidan zerb qilingan tangalardagi yozuvlar haqida ma'lumot bering.
4. Ulug`bek tomonidan Samarqand, Buxoroda kumush tangalar kimning nomi bilan zerb qilingan?

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Numizmatika Sentralnoy Azii. VII Sbr., - T., 2004.
2. To`xtiev I. Temur va temuriylar sulolasining tangalari. - T: Fan, 1992.

5 - mavzu: Shayboniylar davri tangalari

Reja:

- 1. Muhammad Shayboniyxon va Kuchkunchixon tangalari.**
- 2. Tangalardagi yozuvlar.**

XV asrda o`zbeklar turkiy tilda so`zlashuvchi va chigiziy Abulkayrxon hukmdorligi ostida birlashgan qabilalarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo`lishgan. 1448 yildan boshlab o`zbeklarning Temuriylar davlatiga yurishlari Abulkayrxondan boshlanadi va Temuriylar davlatining inqirozi bilan tugaydi.

Shayboniyxonlar tomonidan o`lkada ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar o`tkazildi. 1507-1508, 1529-1530, 1583, 1598 yillarda pul islohotini o`tkazilgan.

1992 yilda chop etilgan E.A.Davidovichning “Korpus zoloto`x i serebryano`x monet Sheybanidov” nomli yirik asarida tangalarning sobiq SSSRda o`rganilishi va qaerda saqlanishi haqida umumiylar ma'lumot berilgan.

G.A.Xudyakovning tadqiqotlarida Shayboniylar davri tangalaridan 26 tasi o`rganilib, bu tangalar 6 ta xonga tegishlilagini aniqlagan.

Shayboniyxon va Kuchkunchixonlar tomonidan zerb ettirilgan tangalar o`sha yaxshi o`rganilmagan davr haqida o`ta muhim ma'lumotlarni beradi. Tangalarda shunday yozuvlarni o`qiymiz:

Muhammad Shayboniy*

Zarb Samarqand, 907 h./1501-1502 y.

O`lchami. 23-27 mm; Og`irligi. 4,8 g.

Tanganing chetlarida “Muhammad ... bani xan” – “Sulton” deb yozilgan. Tadqiqotchi G.A.Xudyakov1 shu yuqorida o`chib ketgan yozuvlar o`rnini keyingi tangalar bilan solishtirib shunday qayta tiklagan:

Oliy nasab Sulton, Allohning ishlari davomchisi, din himoyachisi – Muhammad Shayboniyxon. Alloh uning umri va hukmronligini ziyoda qilsin!

Tanganing reversida – **Allohdan boshqa iloq yo`q! Muhammad uning elchisi!**

Aylanasisiga 4 ta halifaning ismlari bitilgan. *Umar-al-Farrux, Usmon al-Affon, Ali al-Murtadi, Abu Bakr.*

Kuchkunchixonning tangasida quyidagi yozuvlar bitilgan:

Kuchkunchi* Buxoro, 932 h.y./ 1526 y.

O`lchami. 26-29 mm; Og`irligi. 4,7 g.

Tanganing old tomonida pastdan yuqoriga “**Zarb Buxoro. 932 y.**”

tanganing o`rtasida esa

As-Sulton al-qoqon

al-Azam Abu Muzaffar

Kuchkunchi Baqodurxon. Olloh uning umri va hukmronligini ziyoda qilsin!

Tanganing reversida *Allohdan boshqa iloq yo`q! Muhammad uning elchisi!*

Shayboniylar tangalarida yozuvlarni bezatgan naqshlar bo`lib, bu bezaklar halqa, gul, uchlari tug`ilgan to`rburchak shakllarida bo`lgan.

Savol va topshiriqlar:

Shayboniylar davri tangalarining o`ziga xos xususiyatlari nimada?

Shayboniylar tangalarining tarixni o`rganishdagi ahamiyati qanday?

Foydalaniman qog`oz pullari ro`yxati.

1. Davidovich E.A. Korpus zoloto`x i serebryano`x monet Sheybanidov. XVI vek. – M., 1992. – 268 s.
2. Xudyakov G.A. Novo`e danno`e o monetnom chekane Karaxanidov i Sheybanidov G`G` Numizmatika Sentralnoy Azii. VII. Sbornik statey. Pod redaktsiey akademika AN Respublikni Uzbekistan E.V.Rtveladze. – T., 2004. – S. 70-79.

6 - mavzu: Buxoro amirligi qog`oz pullari.

Buxoro Davlat muzeyi fondida Markaziy Osiyodagi qog`oz pullarning XIX-XX asrlariga oid eng boy kollektsiyalari mavjud. Ularning ichida Buxoro amirligi va Buxoro Xalq Soviet Respublikasining dastlabki qog`oz pullarini yasashda qo`llanilgan muhrlar va shtamplar ham bor.

1917 yilgi to`ntarishdan so`ng Buxoro amirligida Rus podshosining qog`oz pullari muomaladan chiqarib tashlandi. Endilikda amirlik o`zining qog`oz pullarini chiqarishi kerak bo`ldi va 1918 yilda amirlikning Mir Sayid Olimxon Arkda qushbegi, qozi, qozi al-quzzot, Buxoroning eng yirik savdogarlari ishtirotkida majlis yiqdi. Pulni qanday chiqarish xususida qizg`in bahslar bo`lib, savdogar Yusupov “Pul belgilari haqida”gi qonun loyihasini taqdim etdi. Loyihaga ko`ra, pul belgilarini zamонавиу texnologiyalar yordamida mashinada bosib chiqarish ilgari surilgan edi. Savdogar Mulla Qutbiddin pullarni bunday usul bilan bosib chiqarish musulmon pullari ko`rinishini buzishini aytib, savdogar Yusupovni “kofir” deb atab, uni majlisdan qaydab chiqarishga erishadi va pullarni qo`l mehnati orqali shtamplar bilan bosib chiqarishga kelishiladi.

Qog`oz pullarni ishlab chiqarish uchun maxsus “qog`ozxona” korxonasi tashkil etilib, - unda to`qsoba, jo`bachi, mirzaboshi, qushbegining yordamchisi va 20 ga yaqin “ustalar” shuningdek, ular ichida “naqqoshchi” – bo`yoqchi va rassomlar, zargarlar, “mirzoi xushxat” – xusnixat egalari va boshqalar bo`lgan.

Bog`i Dilkushoning ichida kichik fabrika tashkil etilib, sifatli qog`oz o`sha yerdan olib kelingan. Qog`oz pullarga Buxoro arkida shtamp bosilgan. Bunday ishlarga usta Sadriddin miroxur bosh-qosh bo`lgani to`g`risida ma'lumotlar saqlanib qolgan1.

Buxoro amirligi tugatilgach, BXSR yangi pul belgilarini ishlab chiqdi. Ustalar 1922 yilgacha pul belgilarini qo`lda tayyorlaganlar. 1923 yildan so`ng tipografik usulda pullarni ishlab chiqarishgan va bezashgan. Shu yildan so`ng shtamp va muhrlar BXSR Nozirligi boshchiligida Buxoro Davlat muzeyiga topshirilgan.

Pullarda quyidagi yozuvlar bo`lgan:

Rus tilida va eski o`zbek (arab) grafikasida pullarning nominali (necha pulligi ko`rsatilgan).

Arab grafikasida pullarning sanalari ko`rsatilgan.

Shuningdek, BXSRning pul belgilarida – ramzlari (yarim oy va yulduz), xazinachining xusnixatli qo`li, chiqarilgan joyi va vaqt, pulning nominali kabi ma'lumotlar berilgan.

Buxoro qog`oz pullari davlatning hujjatli dalili sifatida XX asrdagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy ahvoli haqida qiziqarli ma'lumotlarni beradi. Ular orqali biz yuqoridagi jarayonlarni yanada chuqurroq o`rganishimiz mumkin.

Tayanch tushunchalar:

qog`ozxonasi - qog`oz pullarni ishlab chiqarish uchun maxsus korxona

naqqoshchi – bo`yoqchi va rassomlar

mirzoi xushxat – xusnixat egalari

Savol va topshiriqlar:

1. Buxoro Davlat muzeyi fondida Markaziy Osiyodagi qog`oz pullarning XIX-XX asrlariga oid kollektivalarining o`rganilishi
2. BXSRning pul belgilarini tavsiflang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Numizmatika Sentralnoy Azii. VII. Sbornik statey. Pod red. akad. AN Respublikni Uzbekistan E.V.Rtveladze. – T., 2004. – S. 70-79.

III BOB. Tarixiy geografiya

1-mavzu: Tarixiy geografiyaning vazifalari, tarkibiy qismlari. Tarixiy geografiya fan sifatida.

Reja:

1. Tarixiy geografiyaning predmeti va manbalari.
2. Tarixiy geografiyaning asosiy tarkibiy qismlarining xususiyatlari.
3. Tarixiy geografiyaning fan sifatini shakllanishi va rivojlanishi.
4. Tarixiy geografiya yangi va eng yangi davrda.
5. Tarixiy kartografiya.

Mamlakatlarning tarixiy geografiyasini o`rganishda dastlab o`z diqqatini aholini joylashishi tarixiy geografiysi, xo`jaligining tarixiy geografiysi, tarixiy-siyosiy geografiysi, tarixiy iqtisodiy geografiyasiga qaratadi. Tarixiy geografiya sohasida tadqiqot olib borishda, tadqiqotchida ko`plab umumiylar xarakterdagi muammolar kelib chiqadi. (Masalan, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy geografiyasidagi tez va keskin mamlakatning hududiy o`zgarishlari)

Mamlakatning tarixiy-iqtisodiy va tarixiy-siyosiy geografiyasini o'rganishda tadqiqotchi bu mamlakat haqidagi butun bir tarixiy davr ichidagi ma'lumotni bilishi kerak. Shunga qarab, bu mamlakatning iqtisodiy o'sishi yoki inqirozini anglab yetadi. Yana, iqtisodiy va siyosiy tarixiy geografiya o'tgan tarixiy davr moboynida aholining soni, milliy tarkibi, joylashishi, chegaralari va ichki ma'muriy boshqaruv viloyatlarini ham o'rganadi. Vazifalaridan eng mushkuli mamlakatning iqtisodiy geografiysi va uning taraqqiyoti darajasini aniqlaydilar. Shundan keyingina iqtisodiy sohadagi o'zgarishlarning sur'ati ko'z o'ngimizda nomoyon bo`ladi.

Tarixiy geografiyaning asosiy vazifasi – mamlakatning Qadimiy davrdan to hozirgi davrgacha bo`lgan siyosiy davlat chegaralari Qadimgi shaharlarning o'rni, shuningdek, ularning turli davrlardagi o'zgarishlari, aholisining joylashuvini o'rganadi. Shuningdek, tarixiy voqealar, janglar va ularning oqibatlari, bu janglarning davlat chegaralariga ta'sirini ham o'rganadi.

Tarixiy geografiya tarixiy voqealar va hodisalar yanada tushunarli bo`lishi uchun ko`shinlarning yo`nalishi kartasi, jang maydonining geografik hududi kabi vazifalarni ham o`z zimmasiga oladi. Yuqoridagi vazifalarning yechimi tarixchiga aniqlik va ilmiylikda yordam beradi.

Demak, tarixiy geografiya – mamlakatlar tarixidagi geografik tomonlarning tarixiy jarayonlarini o'rganadi. Chunki bunday tarixiy geografik tomonlarni bilmasdan turib, mamlakatning rivojlanish bosqichlarini ham o'rganib bo`lmaydi.

Tarixiy geografik tadqiqotlarni olib borishda huddi tarix fani kabi tarixiy manbalarga tayanadi. Alovida qiymatga ega bo`lgan tarixiy - geografik asarlar, turli xujjalalar, Qadimgi xaritalar va h.k.z. Xususan, davlatning chegaralari ko`rsatilgan qonunlar, kelishuvlardir. Ammo bular haqida ma'lumotlar kam. Eng katta ahamiyatga ega bo`lgan arxeologik manbalar – bo`lib, ulardan ayniqsa Qadimgi davrga oid iqtisodiy geografik tadqiqotlarda mamlakatning iqtisodiy ahvoli, xo`jaligi, hunarmandchilik turlari, savdo-sotiq aloqalari kabi ma'lumotlar olish mumkin.

Tarixiy geografiyanı o'rganishda – tomonimika va antropologiya ma'lumotlari ham muhimdir. Daryolarning nomlari, ko'llar va boshqalar ham nomlari turli davrlarda turli bo`lgan. Antropologik materiallar esa xalqlarning shakllanishida, aralashib ketish jarayonlari sabablarini o`rganadi.

Tarixiy geografiya XVI asrda alovida fan sifatida shakllandi. Uning fan sifatida shakllanishiga XV- XVI asrlardagi ikki yirik tarixiy voqealar turtki bo`lgan:

1. Uyg`onish davri Renessansi
2. Buyuk geografik kashfiyotlar

Uyg`onish davrida ziyoli odamlarning Qadimgi davrga, tarixga, geografiyaga bo`lgan qiziqishi ortdi. Buyuk geografik kashfiyotlarni (XV asr boshlari – XVI asr)ni amalga oshishiga asos bo`lib geografik bilimlar xizmat qildi. Odamlar, sayyoohlar, tarixchilarning Qadimgi davr geografiyasiga qiziqishi yanada kuchaydi.

Dastlabki, yirik asari bilan tarixiy geografiyaga asos solgan, Qadimgi dunyoning 1-atlasini yaratgan flamand geografi A.Orteliy (XVI asr) bo`lib, u o'zining xaritasida har bir xaritaga qisqacha matn yozgan. U 1-bo`lib geografiyaga, "tarixchining ko`zi" bilan qaradi va "tarixiy geografiya" terminini fanga kiritdi. Biroq Orteliy Qadimgi davr mualliflari geografiyanı qanday yoritgan bo`lsalar, shundayligicha qabul qilgan, ularga tanqidiy yondashmagan. Orteliy asaridagi kamchiliklar XVII asrda Gollandiyaning Len Den

Universiteti professori F.KlyuvYerning tarixiy geografiyadan yaratgan “Qadimgi Italiya” va “Qadimgi Germaniya” nomli asarida tuzatilgan.

Tarixiy geografiyaning rivojiga hissa qo’shgan fransuz geograflaridan J.B.D’Anvil bo`lib, u Qadimgi davr geografiyasi bilan birga, o’rta asrlar geografiyasini ham yoritgan. XIX asrning 2-yarmidan boshlab, tarixiy va geografik asarlarning kengayishi tufayli, ijtimoiy-iqtisodiy tarixni rivojlanishi bilan tarixiy geografiyaning mazmuni ham kengaya boshlaydi.

XIX asrda ruslardan tarixiy geografiyaga asos solgan geograflar V.Tatihev, I.Boltin, N.Barkovlardir. XX asr boshlarida bu fan Peterburg arxeologik institutida, Moskva universitetida o’qitilgan. Tarixiy kartografiya fanining rivojida rus olimlari M.Tixomirov, V.Yatsunskiy, I.Golubtsov va boshqalar xizmat qilganlar.

Tarixiy kartografiya - ilmiy sohasining vazifasiga tarixiy karta va atlaslarni tuzish, ularni ishlab chiqish metodlarini o’rganish kiradi. Tarixiy kartografiya tarix fanini o’rganish va o’qitishda katta ahamiyatga ega bo`lib, tarixiy kartalarni monografiya, kitoblar, o’quv qo’llanma, darslik va maqolalarda foydalananadilar. Tarixiy kartalarda mavzu va voqeahodisalar, jarayonlarning mazmuni, davlatning chegaralari va boshqalar beriladi. Tarixiy kartalarning bir necha turlari bor: *tarixiy iqtisodiy, tarixiy etnografik, arxeologik, tarixiy-siyosiy, harbiy-tarixiy, tarixiy-madaniy*.

O’quv tarixiy kartalari esa – o’rta, o’rta maxsus va oliv ta’limda foydalanaladi. Kartalar hech qachon eskirmaydi. Eskirganlari ham o’z qadrini yo’qotmaydi. Ammo o’sha davr tarixiga arxeologik izlanishlar yoki boshqa yozma manbalarning topilishi bilan yangi o’zgarishlar kiritilishi mumkin bo`lsada, baribir o’tgan davr tarixshunosligi haqida ham ma'lumot berish vazifasini o’taydi. Ularga qarab tanqidiy fikrni rivojlantirish ham mumkin.

Tarixiy kartalarni yaratish kartografiyaning asosiy vazifasiga kirsa ham doimo tarixiy geografiya bilan chambarchas bog`liqlikda rivojlanadi. 1579 yilda A.Orteliy geografik atlasga tarixiy kartalarni qo’shdi. 1603 yilda esa frantsuz kartografi J.B.D.Anvil tomonidan Qadimiy davrdan to o’zining davrigacha bir necha bo`limli tarixiy kartalar paydo bo`ldi. Orteliy va Anvil kartalarida turli mif va afsonalardan, Bibliyadan olingan syujetlar, turli xalqlarning joylashuvi, chegaralar, harbiy harakatlar, turli sayohatlarning yo`nalishlari va voqeahodisalar bo’lgan geografik hududlari aks ettirildi.

XX asrda Jahonda harbiy va iqtisodiy kartalarni detallari bilan yaratilishi ularga ilmiy yondashuvni yanada kuchaytirdi. L.Beskrovskiy tomonidan 1946 yili rus harbiy tarixiga bag`ishlangan “Atlas kart i sxem po russkoy voennoy istorii” nomli atlasi yaratilgan bo`lib, u Kiev rusidagi harbiy harakalaridan to 1904-1905 yildagi Yapon urushi, ikkinchi jahon urushigacha bo’lgan harbiy jarayonlarni o’z ichiga oladi.

Yana tarixiy kartografiyada xalq xo`jaligi, ishlab chiqarish tarmoqlarini aks ettirishga baqishlangan kartalar ham yaratilgan. Bu sohada rus kartografiyasi katta ilmiy yutuqlarga erishgan. Mustaqillik yillarida o’rta va o’rta maxsus ta’lim uchun mo’ljallangan O’zbekistonning Qadimgi davrdan mustaqillik yillarigacha bo’lgan davri aks etgan tematik kartalar yaratilgan. Ammo oliv o’quv yurtlaridagi ta’lim uchun tematik kartalar yaratilmagan. Ularning kattalashtirilgan shakllari yaratilmagan. Ularni yaratish hozirgi kundagi kartografiyaning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar:

Tarixiy geografiya – mamlakatlar tarixidagi geografik tomonlarning tarixiy jarayonlarini o`rganadi.

Tarixiy geografiyaning asosiy tarkibiy qismlari - aholini joylashishi tarixiy geografiyasi, xo`jaligining tarixiy geografiyasi, tarixiy-siyosiy geografiyasi, tarixiy iqtisodiy geografiyasi

Savol va topshiriqlar

1. Tarixiy geografiyaning asosiy vazifasi?
2. Tarixiy geografik tadqiqotlarni olib borishda qanday tarixiy manbalarga tayaniladi?
3. Qadimgi dunyoning dastlabki atlasini yaratgan geograf?
4. Tarixiy geografiya qachon alohida fan sifatida shakllandi?
5. Tarixiy geografiyaning fan sifatida shakllanishiga turki bo`lgan muhim omillarni ayting.
6. “Tarixiy geografiya” terminining fanga kiritilishi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati.

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. - T: Sharq, 1998. - 31 b.
2. Asharov A. O`zbekiston tarixi (Eng Qadimgi davrdan eramizning V asrigacha) – T: O`qituvchi, 1994.

2-mavzu. Markaziy Osiyoning Qadimgi davr tarixiy geografiyasi Reja

1. **Markaziy Osiyo Qadimgi davr manzilgohlari**
2. **Mis-tosh va bronza asri davri tarixiy geografiyasi.**

Markaziy Osiyo ibridoiv davrdagi manzilgohlari. Vatanimiz hududida yashagan ilk ajdodlarimizning manzilgohlari ilk paleolit davriga oid bo`lib, Farg`ona vodiysining So`x tumanidagi Seleng`ur qoridan va Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi Ko`lbuloq makonidan topib o`rganilgan. Bu borada arxeolog olimlar A.P.Okladnikov, O`Islomov, M.R.Qosimov, V.P.Alekseevlarning xizmatlari kattadir.

Neondertal odamlar yashagan madaniyat makonlari Markaziy Osiyo hududinining 50 dan ortiq joyida topilgan. Surxondaryo (Teshiktosh), Samarqand (Omonqo`ton, Qo`tirbuloq, Zirabuloq, Xo`jamazgil deb nomlangan buloq yoqalari), Toshkent (Obirahmat, Xo`jakent, Paltov nomli ungur va g`orlarida Ko`lbuloq yoqasi), Navoiy (Uchtut) hududlari, qo`shni Tojikiston (Qorabura, Jarqo`rqon) va Qirqiziston (Tossal va Georgiy do`ngligi) hududlarida muste davriga oid yodgorliklar juda ko`plab topilgan. Xususan, 1938 yilda Boysun g`oridan topilgan yodgorliklar alohida qimmatga egadir.

Mezolit davrida Markaziy Osiyoning deyarli barcha tumanlari, Movarounnahrning qulay imkoniyatlarga ega joylarda, jumladan Farg`ona vodiysining tog`li va tog` oldi tumanlarida, Markaziy Farg`onada vujudga kelgan katta va kichik ko`llar bo`ylarida ko`plab manzilgohlari topilgan. Olim O`Islomov bu hududda 1970-1980 yillarda keng miqyosda arxeologik tadqiqotlar olib bordi va So`x yaqinida Obishir nomi bilan aholi o`rtasida ma'lum bo`lgan ungurlarda mezolit davri jamoalarining harorgohlarini kashf etdi. Farg`onada yana 100 dan ortiq mezolit davri yodgorliklari topildi. Mezolit davriga oid boshqa guruh yodgorliklari Toshkentning Sariqamish tumanida Qadimgi Bo`zsuv

havzasida ham topildi. Bundan tashqari O'zbekistonning Surxondaryo viloyati Ayrитом, Kattaqo'rkon, Zaranchuk-gut, Dukanxona, Eski Termiz, Podaxona, Oqtosh, Ko`hitongning Machay soyi ustida ko`targan qoya ostidagi g`orda ham mezolit davriga oid arxeologik ma'lumotlar topib o`rganildi.

1970-1971 yillarda Machay g`orini tekshirgan olim O`Islamovning fikricha, ushbu yodgorlik mezolit davrining eng so`nggi bosqichi va ilk neolit davriga tegishlidir.

Neolit davri yodgorliklari Ashgabatdan 40 kmlar chamasi shimoli-g`arbda joylashgan, turkmanlar Chaqmoqli deb atagan joy bo`lib, "Chaqmoqli" – deb atalishining boisi shundaki, turkman cho`ponlari bu joydan chaqmoqtosh terishar ekan. 1956-1957 yillarda arxeolog V.M.Masson bu yerda izlanishlar olib borgan. Bu joy fan olamiga "Joytun" madaniyati nomi bilan kirdi. Joytunni o`rganish jarayonida uning atrof tumanlarida ham arxeologiyaga oid qidiruv ishlari yo`lga qo`yildi. Natijada Joytun madaniyatiga doir o`nlab neolit jamoalarining qarorgohlari (Nayzatepa, Bami, Cho`pontepa va boshqalar) ochildi. Bu yer aholisi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug`ullanganlar.

Akademiк S.P.Tolstov tomonidan Qadimgi Xorazmda, Amudaryoning quyи havzasida "Kaltaminor madaniyati" nomi bilan tarixga kirgan. Bu madaniyat Xorazm hududidagi Jonbosqal'a nomi bilan ma'lum bo`lgan 4 ta makonni tekshirish orqali aniqlandi va o`sha makon yaqinidagi joy nomi bilan Kaltaminor madaniyati nomini oldi. Bu er.av. IV-III ming yillikda yashagan ovchilar va baliqchilar jamoasi madaniyatidir. Neolit davri madaniyati topilmalari Vatanimizning Zarafshon, Qashqadaryo vohalari va boshqa hududlarda ham mavjud va ular olimlar tomonidan o`rganilgan.

Mis-tosh va bronza asri davri tarixiy geografiyasi. Eramizdan avvalgi III ming yillikning oxirlariga kelib, Markaziy Osiyo xududida tosh davri tugadi, u o`z o`rnini eneolit va keyinchalik bronza asriga bo`shatib berdi. Arxeologiyaga oid qazilma manbalarning guvohlik berishicha, ibridoiy odam metall olamiga dastlab misni ixtiro qilish orqali kirgan. Odamlar misdan uncha katta bo`lмаган pichoqlar, bigiz, ignalar, boltalar, uzuklar, munchoqlar, isirqalar tayyorlaganlar. Shuning uchun metallni qo`llashning bu ilk davri Eneolit — Mis-Tosh davri deb ataldi. Bu davrda dehqonchilik va chorvachilikda ham birmuncha malaka hosil qilingan, yashash uchun zarur bo`lgan o`simliklarni sun'iy o`stirishga o`ta boshlanganlar. Ba'zi ov qilingan hayvonlarni qo`lda boqish odat tusiga kira bongan.

Sekin-asta mehnat qurollari takomillashtirilib, rudali metallar, mis, qalay, kumush, oltinni ixtiro qilganlar va ularni eritish, quyish, ulardan foydalanish yo`llarini o`rganganlar.

Bronza mis va qalay aralashmasidan iborat bo`lib, u misga qaraganda katta afzalliklarga ega. Ishlab chiqarishda bronzaning ishlatila boshlanishi bilan jamiyat taraqqiyotida Bronza davri boshlangan. Insoniyat jamiyat taraqqiyotida xalq xo`jaligi, texnika va madaniyat sohasidagi erishilgan yutuqlar ana shu davr bilan bog`liqidir. Zarafshonning quyи oqimidagi Zamonbobo ko`lida va Sarazmda o`tkazilgan arxeologiyaga oid tadqiqot natijalari yuqorida fikrlar haq ekanligiga guvohlik beradi. Zamonbobo ko`li atrofidagi qabrlar ohib ko`rilgan. Ularda bittadan, ikkitadan va hatto uchtadan ko`milgan mayit qoldiqlari naqshli sopol idishlar va har xil buyumlar topilgan.

Zamonbobo manzilgohidagi aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan ham shug`ullangan. Bunday madaniyat yodgorliklari O'zbekistonning Surxondaryo

(Sopollitepa, Jarqo`ton), Xorazm (Tozabog`yob), Toshkent (Achiko`l, Yangiyer tumani, Toshkent kanali atrofi, Burg`uluq), Namangan (Buvana mozor), Andijon (Dalvarzin tepa), Qashqadaryo (Yerqo`rg`on, To`rtko`ltepa) va boshqa viloyatlarida ham ko`plab topilgan.

So`nggi bronza davri yodgorliklari Farg`ona va Surxondaryo viloyatlari hududida devorlar bilan o`ralgan qishloqlar paydo bo`lganligiga guvohlik beradi. Bu Markaziy Osiyoda Qadimgi shaharlarning vujudga kela boshlash jarayoni edi.

Tayanch tushunchalar:

Chaqmoqli - Neolit davri yodgorligi bo`lib, Ashgabatdan 40 kmlar shimoli-g`arbda joylashgan, “Chaqmoqli” – deb atashining boisi, turkman cho`ponlari bu joydan chaqmoqtosh terishar ekan.

Sopollitepa, Jarqo`ton – Surxondaryo hududida joylashagan

Tozabog`yob – Xorazm hududida joylashagan

Achiqko`l, Yangiyer tumani, Burg`uluq - Toshkent hududida joylashagan

Buvana mozor - Namangan hududida joylashagan

Dalvarzin tepa – Andijon hududida joylashagan

Yerqo`rkon – Qashqadaryo hududida joylashagan

Savol va topshiriqlar

1. Vatanimiz hududida yashagan ilk ajdodlarimizning manzilgohlari hududlarini ayting.
2. Markaziy Osiyo Qadimgi davr manzilgohlari hududlari va xo`jaligini ayting.
3. Mis-tosh va bronza asri davri tarixiy geografiyasining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

Foydalanimanba va adabiyotlar ro`yxati.

1. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. 1- kitob, - T: O`qituvchi, 1997. - 526 b.
2. Sagdullaev A.S. Qadimgi O`zbekiston ilk yozma manbalarda. – T: O`qituvchi, 1996.

3-mavzu: Makaziy Osiyodagi Qadimgi davlat tuzilmalari tarixiy geografiyasi Reja

1. Eng Qadimgi davlat tuzilmalari tarixiy geografiyasi, ularning xo`jaligi.
2. Qadimiy shaharlarning tarixiy geografiyasi.

Eng Qadimgi davlat tuzilmalari tarixiy geografiyasi, ularning xo`jaligi.

Eramizdan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida vatanimiz hududida dastlabki davlat tuzilmalari bo`lganligiga hech qanday shubqa yo`q. Turli yozma manbalarda bu davrda bir necha Qadimgi davlatlar bo`lganligi tilga olinadi. Bular: *Katta Xorazm* — Amudaryoning quyi oqimidagi shimoliy yerlar, Murg`ab vohasi va Parfiya hududlari. *Baqtriya* — hozirgi Surxondaryo, Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari va Shimoliy Afg`oniston hududlari, *So`g`diyona* — Zarafshon daryosidan suv ichgan erlar va qashqa vohasi hududlaridir. Eng Qadimgi quldorlik davlatlari konfederatsiyasiga Katta Xorazm va Baqtriya kirgan, So`g`diyona esa bu davrda mustaqil davlat sifatida faoliyat ko`rsatmagan. Ammo quldorlik davlati Markaziy Osiyo sharoitida nisbiy xarakterga ega. Chunki bu

hududda quldorlik tuzumi va quldorlik davlati tom ma'noda sodir bo`lman. Xo`sh, quldorlik jamiyati xususida qanday fikr bayon qilish mumkin?

Quldorlik jamiyati kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga asoslangan birinchi sinfiy jamiyatdir. Bu jamiyat shunisi bilan tavsifga loyiqliki, quldorlar va qullar asosan qarama-qarshi sinflar bo`lib, ular o`rtasidagi doimiy kurash mazkur jamiyat tarixini harakatga keltiruvchi kuch bo`lib kelgan. Demak, ana shu sinfiy kurash tufayli jamiyatning butun tuzilishi iqtisodiy, huquqiy normalari, turmushi, urf-odati, texnikasi va bilim darajasi, etikasi, dini, falsafasi va ijtimoiy qarashlari to`la kuch bilan namoyon bo`lgan.

O`tmishdan ma'lumki, eng Qadimgi ilk quldorlik davlatlari bu miloddan avvalgi IV—III ming yilliklarda vujudga kelgan Mesopotamiya va Misr hisoblanib, qolgan hududlarda esa ancha keyinroq, ya'ni VIII—III asrlarda vujudga kelgan va rivoj topgan.

Shuni ta'kidlash joizki, ibtidoiy jamoa tuzumidagi mulkdor qabila boshliqlari bilan oddiy jamoa a'zolari o`rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi natijasida quldorlik tuzumi va quldorlik davlatlari yuzaga kelgan.

Bu tuzumda qullikning 3 xil asosiy xususiyatlari mavjud bo`lgan:

1. Qul bir yoki bir necha xo`jayinning shaxsiy mulki hisoblangan.
2. Qul ishlab chiqarish vositalariga ega bo`lman.
3. Qul ekspluatatsiyaga noiqtisodiy yo`l bilan majbur etilgan.

Gerodot asarlarida Baqtriya haqida ba'zi bir ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, u Kirning Midiya podshosi Krez ustidan qozongan g`alabasi haqida hikoya qilar ekan, endi Kir yo`lida Vavilon, Baqtriya xalqi, saklar va misrliklar yotadi deb qayd etadi.

Yunon mualliflarining «Qadimgi Baqtriya podsholigi» haqidagi hikoyalari zaminida tarixiy haqiqat borligini Janubiy Baqtryada Baqtra shahri vayronalarida, Shimoliy Baqtryada esa Kuchuktepa, Qiziltepa, Tallashkantepa, Bandixon—2 kabi yodgorliklarida olib borilgan arxeologiyaga oid qidiruv topilmalari ham Markaziy Osiyon Oshmoniyalar saltanati bosib olgunga qadar (bu voqealar miloddan avvalgi VI—IV asrlarda sodir bo`lgan edi) bu ona zaminda ikkita davlat mavjud bo`lganligini isbotlaydi. Bu davlatlar «Katta Xorazm» va «Qadimgi Baqtriya podsholigi» edi. Bu davlatlarning hududiy doirasi ichki davlat tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy aloqalari to`g`risida «Avesto» asari va yunon muarrixlari qisqacha bo`lsa-da, ba'zi bir ma'lumotlarni beradilar.

Markaziy Osiyoning eng Qadimi o`lkalaridan yana biri So`g`diyonadir. Bu o`lka hozirgi Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlari hududida shakllangan. Tarixiy yozma manbalarda miloddan oldingi VI—IV asrlarda So`g`diyona aholisi Ahmoniyarga katta jarima to`lab turganligi ta'kidlanadi. So`g`d tili Qadimda va ilk o`rta asrlarda jahon savdo tili sifatida katta nufuzga bo`lgan. Bu davlatning poytaxti Samarqand Sharq bilan g`arbni savdo-iqtisodiy jihatdan bog`lagan «buyuk ipak yo`li»da Sharq darvozasi hisoblangan. Samarqandning tub yerli aholisi arxeolog olimlarning ma'lumotlariga qaraganda bu shaharni *Smaraqansa* deb atagan. Keyinchalik So`g`d tili o`rnini fors tili egallagach, taxminan milodning IX asri o`rtalarida Smaraqansa *Samarqand* deb atala boshlagan. A.Asharovning “O`zbekiston tarixi” kitobida Samarqand turkiycha Semizkent, Xitoy manbalarida Kan deb yuritilgan. XIII asrdan, ya'ni mo`g`ullar bosqinidai so`ng besh asr o`tgach Samarqand - Afrosiyob deb yuritila boshlagan. O`lkamizda olib borilgan arxeologiyaga oid qazilma ishlari So`g`diyonada yashagan aholining yuksak dehqonchilik va chorvachilik madaniyatiga ega bo`lganliklarini ko`rsatadi. Bu yerda

hunarmandchilik ham rivoj topganini keyingi 25—30 yil davomida Samarqandda Afrosiyob — 1, qashqadaryoda Yerqo`rgon — I, Buxoroda Buxoro — 1 va boshqa yerlarda olib borilgan qazilma topilmalari ko`rsatadi. So`g`diyonada kulolchilik va sopolchilik hali bu yerga Ahmoniyalar kelmasdan ilgari ham, miloddan avvalgi IX—VIII asrlardayq rivojlanganini isbotladi.

Qadimgi xalqlarning hududiy joylashuv chegaralari haqida fanda hanuzgacha aniq bir fikrga kelinmagan. So`nggi 15-20 yil ichida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va ularni yozma manbalar bilan solishtirish natijasida tarixiy viloyatlar hududlari, joylashuviga tarixiy chegaralari muammolariga aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo`ldi. Ma'lumki, davlatlarning etnik va siyosiy chegaralari paydo bo`lishidan oldin aholi joylashuvining geografik chegaralari paydo bo`ladi. Qadim zamonlardan boshlab qabila va qabila guruhlari, keyinroq esa xalqlar o`zlarini joylashgan katta va kichik hududlarda o`z chegaralarini belgilab olganlar.

Antik davr tarixchilari Qadimgi O`zbekistonning ba'zi viloyatlari (So`g`diyona, Baqtriya) chegaralari haqida yozganlarida aholining aralash joylashganligini hisobga olmaganlar. Shuning uchun ham ular aholining hududiy joylashuvi va chegaralarining o`ziga xos xususiyatlarini aniq belgilab berolmaydilar. Gerodot O`rta Osiyo xalqlarini alohida satrap-o`lkalarga joylashtirsa ham ular joylashuvining geografik chegaralarini aniq belgilamaydi.

Ahmoniy hukmdorlari o`zlarini bosib olgan hududning sharqiy chegaralari haqida bilmasliklari mumkin emas edi. Hech bo`limganda Kir II yoki Doro I, yoki bo`lmasa Ahmoniy podsholari yurishlaridan so`ng sharqiy chegaralar – viloyatlar geografiyasi, aholi joylashgan asosiy joylar, yo`llar, yirik manzilgohlar, qal'alar haqida aniq ma'lumolar olingan bo`lishi kerak. Ammo Qadimgi fors yozma manbalarida bular haqida eslatilmaydi. Qadimgi fors yozuvlarini o`rganish asosida Qadimgi O`zbekistonning, jumladan So`g`diyonanining eramizdan avvalgi VI-IV asrlarga oid siyosiy tarixiga doir ko`plab muammolarga aniqlik kiritildi. Gerodot, Ksenofond, Ktesiyalar So`g`diyonanining qo`shti viloyatlar bilan chegaralari haqida nafaqat aniq, balki, umumiylashtirish ham ega bo`limganlar. So`g`diyonanining tarixiy geografiyasiga oid ko`pgina dolzarb masalalarni hal etishda Makedoniyalik Iskandar yurishlari to`g`risida yozib qoldirgan tarixchi va geograflarning ma'lumotlari katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bu ma'lumotlar tarixiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Antik davr yozma manbalarini So`g`diyonanining janubiy chegaralarini Oks-Amudaryo deb beradilar. Iskandarning yurishlari paytida Oks Baqtriya va So`g`diyona o`rtasidagi chegara rolini bajargan. Strabonning yozishicha, Oks daryosi “So`g`diyonani baqtriyaliklar o`lkasidan” ajratib turgan. Strabon So`g`diyonani Baqtriyananing yuqorisida, sharqiy yo`nalish tomonda, Oks va Yaksart oralig`ida joylashtirib, uning chegaralarini ancha kengaytirib beradi. Kurtsiy Ruf Navtaka, Ksenippa So`g`diylar yerlari deb eslatib o`tadi.

Tadqiqotchilar orasida Aleksandr Makedonskiyning yurishlari, aniqrog`i uning So`g`diyona yerlariga Oksning qayeridan kechib o`tganligi turli munozaralarga sabab bo`lmoqda. Kechuv joyini ba'zi olimlar Sho`rob desa, ba'zi olimlar Kerki atrofida deydilar. A.Sagdullaev esa bu joyni Kerki va Sho`rob o`rtasida bo`lgan deb hisoblaydi. Shuni ta'kidlash mumkinki, antik mualliflarning O`zbekistonning janubidagi aholi joylashuvi va tarixiy viloyatlarning chegaralari haqidagi tasavvurlari deyarli umumiylashtirish deb hisoblaydi.

Miloddan avvalgi II—I asrlarda Sirdaryo, Yettisuv cho'llari va Orol dengizi atroflariga Xunn qabilalari ko'chib kelib o'troq hayotga o'ta boshlaganlar. Xunnlar asli Markaziy Osiyo cho'llarida tashkil topgan yirik qabila ittifoqdir. I.Bichurin. N.Gumilev bergan ma'lumotlarga qaraganda bu turkiyzabon qabila birlashmalari to'g'risidagi malumotlar Xitoy solnomalarida miloddan avvalgi 1756 yildan boshlab tilga olingan. Xunnlar juda katta hududllarda yashaganlar. Ular Oltoy, Markaziy Osiyodan harbiy Yevropa yerlarigacha, janubda Kaspiy dengizi bo'yulari hamda Shimoliy Kavkaz yerlarigacha bo'lgan joylarga egalik qilar edilar. Bu sultanat haddan tashqari katta hududlarga yoyilib ketganligidan ikki qismga: G'arbiy va Sharqi Xunn saltanatiga bo'lib idora qilingan. Shimoli-sharqdan Turonga ko'chib kelgan Xunnlar mahalliy aholi bilan qo'shilib ketganlar. Natijada Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy tilda so'zlashuvchi etnik guruhlar qatlami ko'paygan va ular Qang'uy yoki qang'a davlatiga birlashganlar. Ana shu davrdan e'tiboran Markaziy Osiyoda turkiy tillar ta'siri kuchaya borgan. Ayniqsa, bu jarayon Turk xoqonligi davrida yanada rivoj topgan. Bu davrga kelib Shimoliy Enasoy (Enisey)dan tortib to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar cho'zilgan keng hududlarda yashagan aholining asosiy so'zlashuv tili turkiy til bo'lgan.

Qadimgi shaharlarning tarixiy geografiyası. Jamiyatdagi ma'lum bo`g'in sifatida ilk shaharlarning paydo bo`lishi butun jamiyat hayotidagi chuqur sifatiy o`zgarishlar bilan bog`liq bo`lib, ushbu tarixiy – madaniy rivojlanish natijasida shaharlar qishloqlardan ajralib chiqadi. Ushbu ajralish tufayli ikkala qarama-qarshilik birlashuviga asoslangan jamiyat rivojlanishining davr taqozo etgan o'ta muhim yangi qonuniniyatları ma'lum tuzum sifatida o`rmatiladi. Muhim yangi ijtimoiy jarayon sifatida shaharlar shakllanishidagi dastlabki shart-sharoitlar ilg'or va nisbatan jadal rivojlangan (ma'lum tarixiy va tabiiy sharoitlarda, albatta) jamiyatda, ko'p qirrali mehnat taqsimoti jarayonining doimiy chuqurlashuvi natijasida paydo bo`ladi.

Ilk shaharlarning paydo bo`lish asoslari va omillari masalalari bo`yicha turli yillarda V. Masson, B.Litvinskiy, A.Asharov, T. Shirinov, E.Rtveladze, A.Sagdullaev, B.Eshovlar tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ular o`z tadqiqotlarida ilk shaharlar paydo bo`lish asoslari, omillari va shart-sharoitlari, dunyo tarixidagi qadimgi shaharlar bilan qiyosiy tahlil masalalari ko`rib chiqildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, kammahsul mehnat va ishlab chiqaruvchi kuchlarning nisbatan past darajasi sharoitida mehnat taqsimoti jamiyat rivojlanishining yagona asosi edi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, doimiy tabaqalanish jarayoni va ishlab chiqarish faoliyatining ixtisoslashuvi mehnatning umumiy hajmi va qo'shimcha mahsulot o'sishini ta'minlab, ehtiyojlar tartibining murakkablashuviga olib keladi. Bu jarayon esa o`z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy imkoniyatlar yaratadi. O'rta Osiyoning har bir tarixiy-madaniy sohasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va rivojlangan dehqonchilik asosida ilk shahar markazlari paydo bo`ldi. O`zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi markazlarga hozirgi kunda Janubiy Turkmanistondagi Oltindepa, Namozgodepa, Uluqdepa, janubiy O'zbekistondagi Sopollitepa, Jarqo'ton, shimoliy Afg'onistondagi Mundigak, janubi-sharqiy Erondagi So`xta, shimoliy Erondagi Xisor kabilarni kiritish mumkin.

Jamiyatdagi mavjud shart-sharoitlar va omillar eramizdan avvalgi III ming yillikning oxiri II ming yillikning boshlariga kelib O'rta Osiyo hududlarida o`zida shaharsozlik madaniyati belgilarini aks ettiruvchi aholi manzilgohlarining paydo bo`lishiga olib keldi. Dastlabki shaharlarda aholining turli ishlab chiqarishdan kelgan

qo`shimcha mahsuloti, yirik inshootlar-saroylar, ibodatxonalar, mudofaa inshootlari kabi qurilishlarda, madaniy va iqtisodiy aloqalarda o`zining moddiy aksini topdi.

Chust madaniyati yodgorliklari tarkibiga kiruvchi asosiy katta manzilgohlar Dalvarzintepa, Chust, Ashqoltepalar Farg`ona vodiysidagi o`zida ilk shaharsozlik belgilarini aks ettiruvchi yodgorliklar hisoblanadi. Aynan Dalvarzintepa va Chustning atrofi devorlari bilan o`rab olingan bo`lib, ularda hukmdor yashaydigan ark ajralib turadi. Dalvarzintepa eramizdan avvalgi II ming yillikning so`nggi choragidan boshlab ma'lum muddat Farg`ona vodiysining yirik madaniy va iqtisodiy markazi bo`lib xizmat qilgan.

So`g`diyonada, xususan Samarqand So`g`di hududlarida ilk davlat uyushmalari va shaharlar shakllanishida quyidagi yirik omillar shubhasiz yetakchi rol o`ynaganligini ta'kidlaydi. So`g`diyonaning Xisor tog' oldi tizmalarida, Qashqadaryoning yuqori oqimida va Qarshi vohasida shaharsozlik madaniyatining uzluksiz shakllanish jarayonlarini kuzatish mumkin. O`rta Zarafshon vohasidagi eng yirik va dastlabki ochilgan ko`hna shahar Afrosiyob hisoblanadi. A.Makedonskiy davridagi Marokanda (Samarqand) aynan Afrosiyob o`rnida joylashganligini V.L.Vyatkin, N.I.Veselovskiy kabi sharqshunoslar ilgari surganlar. Ular Marokanda shahrining ikkita qal'asi borligini K.Kurtsiy Ruf ma'lumotiga asoslanganlar. So`g`diyona davlatchiligidagi Afrosiyob muhim ahamiyatga ega. Qashqadaryo vohasi (Janubiy So`g`d)da Yorqo`rkon ko`hna shahri bo`lgan.

Eramizdan avvalgi VI-IV asrlar Buxoro vohasining eng muhim ajralib turadigan tomoni – Buxoro, Varaxsha, Ramish, Xo`ja Bo`ston kabi ko`hna shaharlarning paydo bo`lishidir. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarga kelib hozirgi Buxoro o`rnida va atroflarida shaharsozlik madaniyati rivojlanganligi izlarini kuzatish mumkin.

Xorazmning eng qadimgi shahar – qal'alaridan biri bo`lgan Ko`zaliqirning shakllanishi eramizdan avvalgi VII-V asrlarga oiddir. Ushbu yodgorlikni S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm ekspeditsiyasi chuqur o`rgangan.

Tayanch tushunchalar:

Katta Xorazm — Amudaryoning quyi oqimidagi shimoliy yerlar, Murg`ab vohasi va Parfiya hududlari

Baqtriya — hozirgi Surxondaryo, Tojikistonning Amudaryoga yaqin yerlari va Shimoliy Afg`oniston hududlari

So`g`diyona — Zarafshon daryosidan suv ichgan yerlar va qashqa vohasi hududlari bo`lib, hozirgi Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlari hududida shakllangan.

Marokanda – Samarqand, Afrosiyob o`rnida joylashgan

Afrosiyob - O`rta Zarafshon vohasidagi eng yirik va dastlabki ochilgan ko`hna shahar

Yorqo`rkon - Qashqadaryo vohasi (Janubiy So`g`d)dagi shahar

Savol va topshiriqlar.

1. Eng Qadimgi davlat tuzilmalari tarixiy geografiyasini va xo`jaligini ayting.
2. Qadimiy shaharlar vujudga kelishi shart-sharoitlarining o`ziga xos belgilarini ayting.
3. Qadimiy shaharlar tarixiy geografiyasiga oid geografik xarita to`ldiring.
4. O`rta Osiyo hududlarida shaharsozlik madaniyati belgilarini aks ettiruvchi jamiyatdagi shart-sharoitlar haqida gapiring.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxati.

1. Eshov B. Qadimgi O`rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006.
2. Sagdullaev A.S. Qadimgi O`zbekiston ilk yozma manbalarda. – T: O`qituvchi, 1996.
9. Adolov Sh.T. Istoki i vozniknenie sivilizatsii i gosudarstvennosti v zapadnom Sogde G`G` ONUz, 1998. - № 4-5.
3. Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo`lishi. - Guliston, 1998.

4-mavzu: Markaziy Osyoning Ahmoniylar davridagi tarixiy geografiyasi, Salavkiylar davlati, yunon-Baqtriya davlati, Kushon podsholigi.

Reja

- 1. O`rta Osyoning Ahmoniylar davri tarixiy geografiyasi**
- 2. A.Makedonskiy tomonidan O`rta Osyonni bosib olinishi tarixiy geografiyasi**
- 3. Salavkiylar davri tarixiy geografiyasi**
- 4. Parfiya va Yunon-Baqtriya podsholigi tarixiy geografiyasi.**
- 5. So`g`diyona, Qang` (Kanxa) va Farg`ona (Davan)ning tarixiy geografiyasi.**
- 6. Kushon podsholigi tarixiy geografiyasi**
- 7. Buyuk Ipak yo`li va uning kengayishi tarixiy geografiyasi**

O`rta Osyoning Ahmoniylar davri tarixiy geografiyasi. Eramizdan avvalgi VI asrda Eronda Ahmoniylar davlati vujudga kelgan. Bu davlat ikki asr mobaynida yashagan. Uning hududlari Misrdan to Shimoli-g`arbiy Xindistonga qadar cho`zilgan edi. Ahmoniylar davlatining poytaxti *Persopol* shahri bo`lgan.

Ahmoniylar shohi Kir II Midiya, Kichik Osyonodagi Lidiya, Bobilni bosib olgach, so`ngra Baqtriyaga yurish boshladi. O`zbekiston tarixidan ma'lumki, eramizdan avvalgi 530 yilda massagetlar malikasi To`maris tomonidan halokatga uchraydi. Shunga qaramay o`lka Ahmoniylar tarkibiga kirgan: Baqtriya, So`g`diyona, Xorazm kirgan.

Doro I ga qarshi ko`tarilgan Marg`iyonadagi qo`zg`olon Markaziy Osiyo viloyatlarida yagona qo`zqolon emasdi. Bunday qo`zqolon Parfiyada ham ko`tarilgan. Bu qo`zqolon miloddan avvalgi 521 yilning yozigacha davom etgan edi. Doro I davrida Ahmoniylarga qarshi erk va ozodlik uchun saklar ham bosh ko`targanlar. Buni biz Bihustun yozuvlarida ochiq ko`ramiz. Doro I saklarni quvib Orol sohillarigacha borgan, u saklar hukmdorini asir olganligi, boshqa bir *Skunxa* ismli lashkarboshi saklar o`zlarini Doro I ga topshirganliklari qayd etiladi. Bu voqealar miloddan avvalgi 520—518 yillarda yuz bergen. Ahmoniylar hukmronligiga qarshi ozodlik va erk deb bosh ko`targan xalq qahramonlari timsoliga Shiroq harakati ham yorqin misol bo`la oladi.

Jangnomalidagi mashhur afsona hisoblangan «Shiroq» tarixiy voqealar asosida vujudga kelgan va barchaning e'tiborini o`ziga tortgan. Bu Qadimgi afsonani birinchi marta yunon tarixchisi Polien o`zining «Harbiy hiylalar» degan asarida keltirgan. Asarda Shiroq — Siyrak deb nomlangan, afsonada sak qabilasidan chiqqan otbohar Shiroqning buyuk jasorati, tadbirkorligi, vatanparvarligi fazilatlari hikoya qilinadi. Shiroq o`z qabilasi manfaatlarini himoya qilib, Eron shohi Doro lashkarlariga qarshi chiqadi va harbiy hiyla bilan uning qo`shinlarini chalg`itib, suvsiz, Qizilqumning dasht-sahrosiga boshlab boradi.

Suvsizlik va ochlikdan, darmonsiz qolgan g'anim lashkarlar halokatga uchraydi. El-yurt vayronagarchilikdan saqlab qolinadi.

Asarning eng e'tiborli, ta'sirchan joyi shundaki, Shiroqning o`zi ham dushman qo`lida halok bo`ladi, lekin Shiroq uchun bu o`lim mag'lublik emas edi, uning orqasida ona Vatan himoyasi, katta bir xalqning taqdiri yotardi. Biroq o`zi halok bo`lsa-da, yurtdoshlarini, vatanini katta bir ofatdan saqlab qoldi.

Bu ko`tarilgan qo`zqolonlar Doro I ni bir qator islohotlar o`tkazishga majbur qilgan. U xatto saroy zodagonlari huquqlarini ham cheklab qo`yadi va qattiqqo`llik bilan siyosat olib boradi, mamlakatda o`zining mutloq hokimiyatini joriy qiladi. Osiyo hududi Ahmoniyalar tomonidan Baqtriya va Marg'iyona bilan birga hisoblaganda 12 satraplikka bo`lib idora qilingan. Bu satrapliklar podsho xazinasiga har yili 360 talan jarima to`lagan. Parfiya, Xorazm, So`g`d va Areya birgalikda 16 satraplikdan iborat bo`lib 300 talan, saklar va kaspiylar esa 15 satraplik bo`lib, ular har yili Doro I xazinasiga 250 talan jarima soliq to`laganlar.

Markaziy Osiyo aholisi shahanshoh xazinasiga har yili to`lab turgan aniq - miqdordagi soliqlarga qo`shimcha yirik davlat qurilishlarida ham ishlab berar edilar. Xullas, Markaziy Osiyo xalqlari miloddan avvalgi VI — IV asrlarda, ya'ni qariyb 200 yil mobaynida Eron Ahmoniyalari hukmronligi ostida yashadilar. Ular doimo erk va ozodlikka intilib kurashdilar. Faqat eramizdan avvalgi IV asrlarga kelib Ahmoniyarning markaziy hokimiyati kuchsizlana boshlagach, zulm asoratida bo`lgan xalqlar o`z mustaqilliklariga erishish imkoniyatiga ega bo`ldilar.

Markaziy Osiyoda o`z mustaqilligiga birinchilar qatorida Xorazm vohasi erishdi. Baqtriya esa to Iskandar Zulqarnayn istilosiga qadar Ahmoniyalar hukmronligi ostida bo`lgan.

A.Makedonskiy tomonidan O'rta Osiyon bosib olishi tarixiy geografiyasি.

A.Makedonskiy eramizdan avvalgi 334 yil Granik, eramizdan avvalgi 333 yilda Iss va eramizdan avvalgi 331 yilda Gavgamel yonidagi janglarda Doro III ni mag'lubiyatga uchratgandan keyin Markaziy Osiyoga kirib keldi. Politimit daryosi bo`yida kuchli to`qnashuv yuz beradi. Kiropol (Kurushkat, O`rta O`ratepa)da Spitamen qo`zqoloni So`g`diyona va Baqtriyaga yoyiladi. A.Makedonskiy Markaziy Osiyoda 12 ta yangi shahar quradi. Shulardan olisdagi Aleksandriya (yunoncha nomi – Aleksandriya Esxata) u Xo`jand va Bekobod oralig`ida joylashgan. Aleksandriya - Marg'iyonasi Marv o`rnida qurilgan.

Markaziy Osiyo hududining Ahmoniyalar asoratidan batamom ozod bo`lishi bu o`lkaning makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn (ikki shohli) tomonidan egallanishi bilan bilan bog`liqdir. Gap shundaki, eramizdan avvalgi VI—V asrlarda Eron Ahmoniyalar manfaati bilan Yunoniston manfaati Kichik Osiyoda to`qnashib qoladi, har ikkala davlat bu hududda o`z ta'sir doirasini kengaytirish va mustahkamlash uchun, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuqori mavqeni egallah uchun harakat qiladilar. Shu ezgu niyatni amalga oshirish ilinjida Iskandar Zulqarnaynning otasi shoh Filipp II (eramizdan avvalgi 382—336 yillar) zo`r berib Eronga qarshi urushga tayyorgarlik ko`ra boshladi. Xususan u eramizdan avvalgi 338 yilda Xeroneyada bo`lgan jangda eron askarlarini mag'lubiyatga uchratgandan so`ng Eronni zabit etishni maqsad qilib qo`ygandi. Lekin Filipp II o`z niyatini amalga oshirolmay 336 yilda uyushtirilgan fitna oqibatida, saroy bazmi vaqtida o`ldiriladi.

Filipp II o`ldirilganda Elippa shohining qizi Olimpiadadan tug`ilgan o`g`li Iskandar (eramizdan avvalgi 356-323) o`n to`qqiz yoshda bo`lib, otasi uning tarbiyasiga katta e'tibor bergen edi. Uni 13 yoshda bo`lgan chog`ida buyuk olim Aristotel tarbiyasiga beradilar. Filipp II o`ldirilgach, Iskandarni lashkarlar yig`ini shoh qilib ko`taradilar. Taxtni egallagan Iskandar o`z raqiblari va taxtga da`vo qilishi mumkin bo`lgan barcha erkak zotini qilichdan o`tkazadi va mutlaq hokim bo`lib oladi. U o`z faoliyati davomida Qadimgi dunyoning mashhur lashkarboshisi va buyuk davlat arbobi darajasiga ko`tarildi. Iskandar Zulqarnayn 22 yoshida jahon sultanatini tashkil qilishga bel bog`ladi. Eramizdan avvalgi 334 yilda Suriya, Shom, Finikiya, Misr, Eron, Turon va Hindistonni egallab buyuk sultanat barpo etadi.

Iskandar Eronning asosiy viloyatlarini bosib olgach, eramizdan avvalgi 329 yilning bahorida Hindikush tog`idan oshib Markaziy Osiyo hududlariga kirib keladi.

Iskandar qo`shinlariga avvalo birinchi zarba Oriyona (hozirgi Xirot viloyati)da berildi. Shimoli-sharqiy viloyatlar — Girkaniya, Ariya, Parfiya, Drongiana, Araxoziya, Baqtriya va So`g`diyonani bo`ysundirish uchun uch yil vaqt kerak bo`ldi.

Iskandar Markaziy Osiyoda birinchi bor Ustrushonada Samarcand bilan Xo`jand oralig`ida tog`lilarning qattiq qarshiligiga duch keladi. Tanais (Sirdaryo)ning narigi tomonidan tigataradarayya saklariga qarshi ketganida, Iskandarga Samarcandan chopar kelib, Spitamen boshchiligidagi shaharda unga qarshi qo`zqolon ko`tarilganligi xabarini beradi.

Tarixiy yozma manbalarda katta sovg`a-salomlar bilan do`stlik aloqalarini o`rnatish maqsadida Xorazm shohi 1500 otliq suvoriylar bilan Iskandar oldiga bosh egib kelganligi yoziladi. Jumladan, «*Iskandarnoma*»da Xorazmshoh «*Feruzbax va Jamshidshoh o`z askarlari bilan yordamga*» kelgani ta'kiddanadi. Arrian esa «*Xorazmliklar shohi Farasman Iskandarga bosh egib keldi*», deydi. Aslida Xorazm hukmdori o`zining donishmandligi va uzoqni ko`ra bilganligi tufayli mamlakat mustaqilligini saqlab qola oldi. U vaziyatni to`g`ri baholay oldi va Samarcandga Iskandar huzuriga keldi. Farasman mazkur uchrashuv chog`ida harbiy ittifoq tuzib Qora dengiz tomon yurishni taklif etadi. Spitamen qo`zqolonini bostirish bilan band Iskandar «*Farasmanga tashakkur aytib, u bilan do`stlik ittifoqini tuzadi*». Shu bilan birga hozir Pontiga (Qora dengizga) yurish qilish vaqt emas» deb aytadi.

Iskandar mahalliy xalq vakillari, birinchi navbatda hukmdor oqsoqollar va rahbarlar bilan umumiy til topish, ularga yaqinlashish yo`llarini izlay boshladi. U eramizdan avvalgi 327 yilni Nautakda o`tkazib bahorda Nautakka yaqin bo`lgan So`g`d qal`asini egallaydi. Tog`lar orasida joylashgan bu shaharning hokimi **Aksiart** edi. U Aksiarining qizi Roksanaga uylangan. So`ngra, Baqtriya va So`g`diyona tog`lari orasida joylashgan 4 ta qal`ani: *So`g`d, Sizimeta, Arimaza va Xorienni* egallaydi.

Iskandar Markaziy Osiyo hududlarida shaharlar barpo etgan, Jumladan, Yustin «*Pompey Trog epitomi*» asarida Iskandar Baqtriya va So`g`diyonada 7 shahar qurdirganligini yozadi. Shulardan biri Sirdaryo sohilida 17 kunda qurib bitkazilgan qal'a “Aleksandriya Esxata”, yani olisdagi Iskandariya edi. Bu shahar Xo`jand bilan Bekobod oralig`i (taxminan Farhod GESi) da joylashgan edi. Iskandarning qal'a va shaharlarni qurishidan sabab, u bu shaharlarda grek-makedon qo`shinlarini joylashtirib Baqtriya va So`g`dda o`z isgilochilik zulmini kuchaytirishni o`ylagan edi. Iskandarning Markaziy Osiyoda olib borgan yaratuvchilik faoliyatiga qaraganda, vayron etuvchilik faoliyati ortiq.

Shu sababdan Iskandar Zulqarnayn Markaziy Osiyoni obod qildi, xalqlar orasiga ma'rifat va madaniyat kiritdi, deyish adolatdan emas.

Salavkiylar davri tarixiy geografiysi. Iskandar Zulqarnayn vafotidan so`ng taxt vorisligiga hech kim qolmagan edi. Barcha erkak zotini uning o`zi qirib tamomlagan edi. Shoh vafotidan so`ng to`rt oy o`tgach Roksana o`g`il ko`radi. Unga Iskandar deb ism ko`yadilar. Kichik Iskandar Sharqiy viloyatlar hukmdori etib tayinlanadi. Hukmdor hali yosh bo`lganligi uchun bu viloyatalarga rahbarlik qilish qo`mondonlardan Perdikka va Antipatr zimmasiga yuklanadi. Ammo toj-taxt uchun olib borilgan kurash yosh go`dakni ham omon qoldirmaydi. Taxt uchun kurashda Iskandar lashkarboshilarining birontasi ham yorqin g`alabaga erisha olmaydi. Buning ustiga Iskandar vafotidan xabar topgan xalqlar ozodlik kurashiga otlanadilar. Tarixiy manbalarga qaraganda, Murg`ob vodiysida barpo etilgan Marg'iyona Aleksandriya shahrini «varvarlar» vayron etadilar. Eramizdan avvalgi 301 yilda Frigianing Ips deb atalgan joyida yuz bergen qonli janglar oqibatida Iskandar sultanati uch mustaqil davlatga: *Makedoniya, Misr, Suriyadan to Markaziy Osiyo – Hindistongacha* bo`linib ketadi. Makedoniya — Antiox avlodlariga, Misr — Ptolomey avlodlariga va Suriyadan Hindistongacha Salavkaga tegadi.

Salavka 312 yoldayoq Bobilda o`z hukmronligini mustahkamlagan edi. Shundan so`ng Salavka sharqiy satrapliklarni ham egallaydi. Bu masalada Salavka bilan Nikator o`rtasida kurash kuchayadi. Nikator biringchi jangdayoq mag`lubiyatga uchraydi. Salavka eramizdan avvalgi 311—302 yillarda boshqa satraplar bilan ham jang olib boradi va Sharqda o`z hukmronligini mustahkamlaydi. Ana, shu tariqa Salavka I parfyanlar, baqtriyalik, So`g`diylar, girkanlar ustidan o`zining tanho hukmronligini o`rnatadi.

302 yildagi Suriya, Kichik Osyo va Mesopotamiya viloyatlari uchun Salavka bilan Antigon o`rtasidagi jang bir yilga cho`ziladi, bu jang Salavkaning g`alabasi bilan yakunlanadi.

Ana shu tariqa Iskandar sultanating katta qismi Salavka qo`li ostida birlashadi. U mustaqil siyosat olib bordi, satrapliklarni maydalab yubordi, ularning sonini 72 taga etkazdi.

293 yilda Salavka, o`z poytaxtini Bobildan Suriyadagi — Antioxiyaga ko`chiradi. Satraplar qo`lida katta hokimiyat bo`lgan, ammo ularda oliy harbiy hokimiyat yo`q edi. Oliy harbiy hokimiyat markaziy hukmdor podshoh ixtiyorida bo`lgan.

Salavka 293 yilda sharqiy viloyatlarni boshqarish ishini o`z o`g`li Antioxga topshiradi va uni hukmdor qilib tayinlaydi.

Antiox Spitamennenning qizi Apamadan tug`ilgandi. Salavkaning to`ng`ich o`g`li ham bo`lgan. Yunon muarixlari Salavka I va Antioxlar Markaziy Osiyoga juda katta e'tibor bergenliklarini yozadilar. Ular davrida 75 shahar qurilganligi manbalarda qayd etiladi. Bu shaharlar Salavkiya, Antioxiya va boshqa nomlar bilan atalgan. Bunday shaharlardan biri uzoqlikda joylashgan «Yaksart» (Sirdaryo) ortidagi Antioxiyabo`lib, bu shaharni Xitoy manbalarida O`zgan shahri bo`lsa kerak deb taxmin qilinadi. Salavka xalqaro tijorat ishlarini rivojlantirishga ham katta e'tibor beradi. Shu maqsadda u Kaspiy bilan qora dengizni bog`lab Amudaryo orqali «Tosh minora»ga yo`l ochishga qaror qiladi. (Beruniy fikricha «Tosh minora» yoki «Tosh shahar» bu Toshkentdir.)

Strabon bergen ma'lumotlarga qaraganda Antiox Marg'iyonada o`z nomiga qurdirgan shahar — Antioxiyani ko`chmanchilarning tinimsiz hujumidan himoya qilish

maqsadida Murg'ob vohasi atrofini 250 km devor bilan o'rab olgan. Ammo ko`chmakchilarning hujumlari bu bilan to`xtamagan.

Ana shunday og`ir bir vaziyatda Salavk I Hindistonga qashi urush boshlaydi. Bu urush uning mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Natijada Salavkiylarning Markaziy Osiyodagi obro`siga putur yetadi, ularga qarshi qo`zqolonlar boshlanadi. Salavkiylar og`ir ahvolga tushib qoladilar. Eramizdan avvalgi 280 yilda Salavk I vafot etadi. Salavkiylar davlatiga Antiox I bosh bo`ladi. Ana shu davrdan boshlab sharqiy viloyatlar Antiox I faoliyatidan chetda qoladi, chunki harbiy viloyatlardagi harbiy vaziyat uning qo`shin bilan birga bo`lishlik taqozo etar edi. Ayni paytda harbiy viloyatlarda ham vaziyat ko`ngildagidek emas edi. Xullas, Salavk I vafotidan so`ng davlatning zaminiga putur ketadi. Sharqiy viloyatlar oltin, fil lazuritlar bilan doimo jarima to`lab tursalar-da, ularning mustaqillikka intilayotganliklari sezilib turardi. Bu jarayon xususan eramizdan avvalgi III asr o`rtalariga kelganda ko`zga tashlana boshladidi.

Bu davrda Markaziy Osiyoning Salavkiylar davlati tarkibida bo`lishi ularda Ellin madaniyati ta'sirning o`lka xalqlari orasida tarqalishiga sabab bo`lgan omildir.

Parfiya va Yunon-Baqtriya podsholigi tarixiy geografiyasi. Eramizdan avvalgi III asrning o`rtalarida salavkiylar sultanati inqiroz sari yuzlandi. Sharqiy satrapliklar markaziy hokimiyatga bo`ysunishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurgizishga intildilar. Parfiya va Baqtriya eramizdan avvalgi III asrning o`rtalarida, taxminan 250 yilda salavkiylar tobelligidan chiqib ketdilar. Bu davrda Baqtriya satrapi Diodot edi. Baqtriyaning salavkiylardan ajralib chiqishini Evtidem ham qo`llagan edi. Evtidem So`g`diyona yoki Marg`iyonaning hokimi bo`lib, u Diodotga qaram edi. Diodot Baqtriyada Salavkiylarga qarshi ko`tarilgan mahalliy aholi qo`zg`olonidan foydalangan.

Mustaqilkka erishgan Baqtriya Diodot I davrida qudratli davlatga aylanadi. Bu davlatning poytaxti hozirgi Afg`onistonning Mozori-Sharif shahriga 90 km yaqin Qadimgi Balx shahri bo`lgan. Baqtriyaning Afg`oniston hududidagi Begram, Baqtra, Oyxonum, Dalvarzin, Tojikiston hududiga qarashli Qobadshoh, Qayg`obod, Ko`hna qal'a, O`zbekiston hududidagi Dalvarzintepa, Dunyotepa, Qayitobodtepa, Jondavlattepa kabi qadimgi shaharlar bo`lgan.

Tarixiy manbalarda Baqtriya yuksak rivojlangan 1000 shaharli mamlakat deb yuritilgan. Viloyat hokimlaridan biri bo`lgan So`g`diyona hokimi yunon Evtidem Diodot II ga qarshi kurash boshlab, kurashda Evtidem g`olib chiqadi. U eramizdan avvalgi 212 yilda Yunon-Baqtriya davlatiga asos soldi. Evtidem Baqtriyada o`z hukmronlik mavqeyini mustahkamlashga harakat qildi.

O`z imkoniyati va kuchiga ishongan Antiox III Evtidem yordamida Hindistonga urush e'lon qildi. U salavkiylar davlatining sharqiy viloyatlarini o`ziga tobe etishni maqsad qilgan edi. Ammo salavkiylar uchun Markaziy Osiyo abadiy yo`qotilgan edi. Eramizdan avvalgi 206 yildan e'tiboran Yunon-Baqtriya davlati uchun salavkiylar havfi yo`qoldi, Biroq shimoldan sak-massagetlarning havfi kuchaygan edi.

Evtidem boshliq davlat tarkibiga Baqtriya, So`g`d, Areya va Marg`iyona hududlari qarar edi. Evtidem o`z davlati hududiy chegaralarini Hindiston yerkanni hisobiga kengaytirishni orzu qilar edi. Ammo bu ishni Evtidemning o`g`li Demetriy (eramizdan avvalgi 199—167 y.y.) amalga oshirishga harakat qildi.

Natijada Baqtrianing davlat chegaralari kengayib har jihatdan taraqqiy etdi. Demetriy davrida ko`plab harbiy qal'alar qurildi. Shunday qalalardan biri Amudaryo sohidida qad ko`targan *Termiz* shahridir.

Davlat chegaralarining Hindiston hisobiga kengayishi munosabati bilan Demetriy davlatiganing markazi janubga — Taksilaga ko`chirildi. Eramizdan avvalgi 174 yilda Baqtriyada davlat to`ntarishi yuz berdi. Bu hol So`g`diyonaga, Yunon-Baqtriyada podsholigi tasarrufidan chiqib olishiga qulay sharoit yaratdi.

Binobarin tez orada So`g`diyona Yunon-Baktriya davlatidan mustaqil ajralib chiqdi. Parfiya Yunon-Baqtriyadan Marg'iyonani tortib olgach, uning siyosiy maydondagi mavqeyi yana ham pasayib ketdi. Bu davrga kelib endi Yunon-Baqtriya davlati uchun shimoldan ko`chmanchilar havfi kuchaydi.

Geloikl Yunon-Baqtrianing qudratini saqlab qola olmadi. Uning ixtiyorida faqat Baqtriya yerlari qoldi. Yunon-Baqtriya davlatining katta hududini Parfiya bosib oldi.

Baqtriyaga esa tobora yuechji qabilalari tahdidi kuchayib bordi. Eramizdan avvalgi III asrda Sharqiy Turkiston va Shimoli-Sharqiy Tibetda yashagan katta qabilalar Xitoy manbalarida katta yuechjilar “da yuechji” deb atalganlar. Yuechjilar Markaziy Osiyoga o`tib Yunon-Baqtriyaga zarba beradilar.

So`g`diyona, Qang` (Kanxa) va Farg`ona (Davan)ning tarixiy geografiyasি. So`g`diyonaning tarixiy geografiyasiga oid ko`pgina dolzarb masalalarni hal etishda makedoniyalik Iskandar yurishlari to`g`risida yozib qoldirgan tarixchi va geograflarning ma'lumotlari katta ahamiyatga ega bo`ldi. Xususan, So`g`diyona va Baqtriya chegaralari haqidagi ilmiy muammo XIX asrning oxirida paydo bo`lgan bo`lsada, hozirgacha u to`la yechimini topmagan. O`tgan asrning 80-90 yillarda bu muammo I.V.Pyankov, E.V.Rtveladze, B.Ya.Staviskiy, P.Berner, A.S.Sagdullaev va boshqa olimlar asarlarida o`z tahlilini topdi.

Baqtriyaga esa tobora yuechji qabilalari tahdidi kuchayib bordi. Eramizdan avvalgi III asrda Sharqiy Turkiston va Shimoli-Sharqiy Tibetda yashagan katta qabilalar Xitoy manbalarida katta yuechjilar “da yuechji” deb atalganlar. Yuechjilar Markaziy Osiyoga o`tib Yunon-Baqtriyaga zarba beradilar.

Antik davr yozma manbalari So`g`diyonaning janubiy chegaralari Oks-Amudaryo deb beradilar. Iskandarning yurishlari paytida Oks Baqtriya va So`g`diyona o`rtasidagi chegara rolini bajargan. Strabonning yozishicha, Oks daryosi So`g`diyonani baqtriyaliklar o`lkasidan ajratib turgan. Arrianning yozishicha Oks daryosidan keyin darhol So`g`diyona yerlari boshlanadi. So`g`diyonada Yerqo`rg`on, Afrosiyob, Buxoro, Tali Barzu, Marg'iyonada Govurqal'a kabi qadimgi shaharlari bo`lgan.

Qadimda Yunon-Baqtriya davlatiga asos bo`lgan Baqtriya, So`g`diyona, Marg'iyona iqtisodiy jihatdan o`ziga to`q, tabiiy boyliklari mo`l va iqlimiylariga ega bo`lgan.

Vatanimiz tarixinining eramizdan avvalgi III—1 asrlari va eramizning IV asrlarigacha bo`lgan ma'lumotlari asosan Xitoy manbalariga aloqador bo`lib, ularda Xitoy tilida qanday yozilgan bo`lsa, hech qanday o`zgarishsiz manbadagidek atalgan. Bu nomlarning mahalliy tilda o`sha paytda qanday atalganligi ma'lum emas. Jumladan, Xitoy tarixchisi Sima Szyan eramizdan avvalgi II asrning so`nggi choragida Markaziy Osiyoda bo`lgan bir Xitoy elchisi va sayyohning so`zlariga asoslanib bu yerda aholisi yuechjiga o`xshash Kangyuy nomli katta ko`chmanchilar davlati bo`lganligini xabar qiladi. Qang'arlar va Qang' davlati

tarixi bo`yicha olimlar Y.G'ulomov, S.G.Klyashtorniy, B.A.Litvinskmy, Yu.F.Buryakov, K.Sh.Shoniyofov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar va Qang` davlati to`g`risida qimmatli asarlar yaratdilar. Qadimgi Xitoy manbalarida qang`arlarda davlat bo`lganligi to`g`risidagi ma'lumotlar eramizdan avvalgi III asr oxiri va II asr boshlariga to`g`ri keladi. Tarixchi olim K.Shoniyofovning fikricha: «Qang` davlati solnomalarda aytilgan davrdan ancha oldinroq mayjud bo`lgan... So`z-siz, Qang` davlati O`rta Osiyoga bostirib kelgan makedokiyalik Iskandar qo`shinlari bilan yunon-makedoniyaliklardan tashkil topgan Salavkiylar sulolasi (eramizdan avvalgi 312—250 y.y.) bilan uzlusiz ravishda olib borilgan kurashlar natijasida taxminan eramizdan avvalgi III asr boshida vujudga kelgan».

Qang` davlatining chegarasi manbalarda aniq ko`rsatilmagan. Lekin K.Shoniyofovning ma'lumotlariga qaraganda qang`lilar sharqda Farg`ona vodiysi, shimoli-sharqda usunlar, shimoli-g`arbda Sarisu daryosi va g`arbda Sirdaryoning o`rta oqimi bilan chegaradosh bo`lgan. Bu chegarada qang`arlarga qarashli bir necha viloyat va ularga tobe bo`lgan qabilalar joylashgan.

Qang` davlati yetti asr yashadi. Eramizning V asri o`rtalariga kelib, Qang` davlatining yemirilishi bilan uning tarkibidagi elat va qabilalar ham tarqalib ketdi, o`rnida yangi siyosiy uyushmalar va etnik birliklar qaror topdi.

Sirdaryoning quyi va o`rta oqimlarining qang` deb atalgan. Agar turkiy va tungus-manjur tillarida saqlanib qolgan «*qang'*» so`zini qadimgi hind-Yevropa tillarida «*daryo*» yoki «*suv*»ni ifodalaganini tan olganimizda Sirdaryo (qang') nomining ma'nosi ham «*daryo*», «*suv*» bo`lganligi ehtimolga yaqin. Qang`ar qabilasining nomi bu azim daryo bilan uzviy bog`liq bo`lgan. Etnonimning (qang`ar, qangaras, xangakishi, qang`li) oxirgi bo`g`ini — «*ar*», «*er*» (qang` erlari, odamlari), kishi (qang` kishilar), «*li*» (qang`li) ham bu xalqning Sirdaryoning o`rta asrlardagi nomi bilan yaqinligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, qang` — daryo nomi bo`lsa, «*ar*», «*kishi*», «*li*» ma'lum bir xalqning shu daryo bo`ylarida yashab kelganidan dalolat beradi».

Qang`ga tobe viloyatlar jumlasiga Qadimgi Xorazm, So`g`d hududlari va O`rololdi tumanlari (alan va yan qabilalari) kirgan. Tarixchi K.Shoniyofov bergen ma'lumotlarga qaraganda Qang`a davlatning ikkita markazi bo`lgan. Ulardan biri, Qang`a (Qang`diz) bo`lib, u Toshkent vohasida, Sirdaryoga yaqin yerda joylashgan. Bu shahar eramizdan avvalgi III asrda bunyod etilgan bo`lib, u Qang` podsholarining doimiy qarorgohi bo`lgan. Aris daryosining quyi oqimida joylashgan O`tror (Tarband) esa Qang` davlati hoqonlarining yozgi qarorgohi bo`lgan.

Qang`arlar Qashg`ar va Yorkent viloyatlariga ham harbiy madad yuborib turganlar. Shuni ham aytib o`tish kerakki, Qashg`ar, Yorkent va Farg`onaning Xitoy ta'sirida bo`lishi qang`arlarga ham katta havf solar edi. Shuning uchun ham qang` hukmdorlari qo`shni xalqlarga harbiy kuch bilan yordam berib, bosqichilarni o`z chegaralariga yaqinlashtirmaslikka harakat qilardilar.

Shunday qilib, qang`arlar o`sha davrda Xitoya hukmronlik qilayotgan Xan imperiyasining bosqinchilik siyosatiga qarshi chiqib ularni o`z chegarasiga, xatto unga yaqin bo`lgan Farg`ona va qashg`ar yerlariga keltirmaslikka harakat qilar edi.

I asrda qang`arlar Buxoro va Xorazmni egallaydi. Ammo bu viloyatlar tezda qang` davlati ta'siridan chiqib, Kushon sultanati tarkibiga o`tadi. G`arbda esa qang`arlar Parfiyaning kuchsizligidan foydalanib, Alan yerlarini egallaydi.

Tarixiy ma'lumotlardan qang'arlarning Bityan, Yuni hamda arxeologlar ochgan O'tror, Oqtepa 1, Oqtepa 2, Qorovultepa, Choshtepa xarobalari o'rniда qadimiyy qo`rg'onlari va shaharlari ham bo`lgan.

Olingen arxeologik barcha topildiqlar qovunchi madaniyati deb tarixga kirgan, qovunchi madaniyati Toshkent vohasi, Sirdaryoning o`rta oqimi, Yettisuv va Shimoliy Farg'onada keng tarqalgan. Bu madaniyatning ayrim namunalari O'zbekistonning janubi va Tojikistonning bir qancha tumanlaridan ham topilgan.

Xitoyda yashab, o'sha Yerning fuqarosi bo`lib ketgan bir qancha san'at ustalari qaysi shahar va viloyatdan kelgan bo`lsalar, o'sha joyning nomini o`z ismlarining oldiga qo`shib aytganlar: ularning avlodlariga esa bu nomlar familiya bo`lib qolgan. Masalan, Buxorodan kelganlar – An (Ango-Buxoro), Samarcanddan kelganlar – Kan (Kango-Samarqand), Shahrisabzdan kelganlar – Shi (Shigo-Shahrisabz, Toshkent ham Shi deb beriladi, ammo uning belgisi boshqacharoq bo`lgan).

Farg`ona vodiysining Qadimgi davr tarixi yetarli darajada o`rganilmagan. Qadimgi Farg`onaning tarixi haqida Xitoy manbalarida Davan bo`lganligi tilga olinadi. Ammo bu davlatning qachon paydo bo`lganligi va inqirozga yuz tutib, qachon tarix sahnasidan tushganligi masalasida hech narsa deyilmagan. Biz bu davlatning eramizdan avvalgi II-I asrlarda qudratli davlat uyushmasi bo`lganligi ma'lum. Ammo Farg`ona davlati - Davan eramizdan avvalgi II asrda emas, balki ancha ilgariroq, taxminan IV-III asrlardayoq tarix sahnasida bo`lganligi ma'lum bo`ladi. U paytda bu davlat Parkan deb atalgan. Davan esa xitoyliklar tomonidan berilgan nomdir.

A.Asharovning fikricha, eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Markaziy Osiyoning Baqtriya, Parfiya, Marg'iyona, So`g'd, Xorazm kabi o`lkalari Eron Ahmoniyari tomonidan bosib olinganda Qadimgi Farg`ona bunday tobelikdan ozod bo`lgan. Bu davlat Xorazm davlati singari Makedoniyalik Iskandarga ham tobe bo`lmagan. Shuningdek Farg`ona vodiysining Qadimda Salavkiylar davlati tarkibida bo`lganligi haqida ham hech qanday ma'lumot yo`q. Bundan ma'lumki, Farg`ona qadimda Ahmoniyilar va yunonlar hukmronligi davrida siyosiy erkini o`z qo`lida saqlab qola olgan.

Xitoy manbalari qoldirgan ma'lumotlarga qaraganda eramizdan avvalgi II-I asrlarda Davanda dehqonchilik madaniyati va yilqichilik yuksak darajada rivojlangan. Chjan Syan bu davrda hammasi bo`lib 70 ta obod shaharlar bo`lganligini, unda bir necha yuz ming aholi yashaganligini yozadi.

Chjan Syan Davandan to Ansi (Parfiya)gacha bo`lgan hududlarda yashovchi aholi til jihatdan har xil bo`lsa-da, ularning urf-odatlari ham bir-birlarini tushunganlar, urf-odatlari ham bir-biriga o`xhash bo`lgan, deb ta'kidlaydi.

Qadimgi Farg`onaliklar g'arbda qang'lilar, shimolda usunlar, sharqda esa uyg'urlar bilan yaqin aloqada edilar. Tashqi dushman bilan bo`lgan janglarda ularni doimo yaqin aloqada bo`lganlar.

Qadimgi Davan davlatini eramizning dastlabki yuz yilliklari davomida mahalliy aslzodalar sulolasini boshqargan. Buni Xitoy manbalari tasdiqlaydi. Ularda ko`rsatilishicha, qadimgi Farg`onani 419 yilgacha bir sulola vakillari uzuksiz idora qilganlar. Markaziy Osiyo hududlarida Eftalitlar davlati qaror topgach, qadimgi Farg`ona davlati ham o`z mustaqilligini yo`qotib, ana shu Eftalitlar davlati tarkibiga kirgan edi.

Kushon podsholigi tarixiy geografiyasi. Eramizdan avvalgi IV asr oxirlarida xitoy manbalarida yuechjilar deb atalgan massaget qabilalari Sharqiy Turkistondan to

Mo`g`uliston chegaralarigacha bo`lgan hududlarga ko`chib ketganlar. Xitoyning shimolida esa xunn qabilalari yashagan. Yuechjilar xunnlarga janubiy qo`shti bo`lgan.

Eramizdan avvalgi 176 yilda xunnlar yuechjilar ustiga hujum uyushtirdilar. Oqibatda xunnlar 165 yilda yuechjilarni g`arba uloqtirib tashlaydilar. Yuechji qabilalari qadimgi Farg`ona yerlariga chekinadilar va o`sha yerda istiqomat qila boshlaydilar. Jumladan, hozirgi Namangan viloyatining Yangiqo`rg`on tumani hududida Kushon qishlohi va Kosonsoyda Koson shahrini yuechjilar barpo qilgan edilar. Ma'lumki, eramizdan avvalgi 155 yilda Yunon-Baqtriya davlati inqiroz sari yuzlandi. Shu qulay vaziyatdan foydalangan yuechjilar eramizdan avvalgi 140 yili So`g`d yerlari orqali Baqtriyaga bostirib keladilar va Shimoliy Baqtriyada hududlarini egallab oladilar.

Yuechjilar Baqtriyada 100 yil mobaynida 5 ta qabilaga bo`linib yashaganlar. Guyshuan (Kushon) qabilasi (yabg`usi kudzula Kadfiz edi) to`rtta qabila yabg`ularini o`ziga tobe etib barcha qabilalar ustidan hukmronlik qilardi. U o`z davlatini Kushon podsholigi sifatida e`lon qildi va hozirgi Surxondaryo viloyatining Sho`rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepani bu beklikning poytaxtiga aylantirdi. Kudzula Kadfiz o`z davlat chegaralarini kengaytirish va uning qudratini mustahkamlash maqsadida Amudaryoning chap sohilidagi tumanlarini egallahsga bel bog`ladi. U tez orada Parfiya, Afg`oniston va Kashmirni egalladi.

Kudzulla Kadfiz vafotidan so`ng uning o`g`li Vima Kadfiz taxtga o`tiradi. Bu davrda Kushonlar davlati Pokiston va Hindistonning markaziy viloyatlarini bosib oladi.

Vima Kadfizdan keyin mamlakatni idora qilish Kanishka zimmasiga tushgan. U podsholik qilgan davrda Hindistonning janubiy tumanlari, Markaziy Osiyoning So`g`diyona, Xorazm va Choch viloyatlarini zabit etadi.

Milodning I asr 70-80 yillarda Sharqiy Turkiston yerlari masalasida Xitoy-Kushon mojarolari boshlanadi. Shunga qadar kushonlar xitoyliklarning Sharqiy Turkiston yerlarini egallah uchun qilgan harbiy harakatlariga xayrixoq bo`lganlar. Xatto ular 84-yilda xitoylarga qarshi kurashish uchun qoshg`arga yuborilgan qanguy qo`shtini tezda chaqirib olishni qanguy podshosidan talab ham qiladilar. Natijada qanguy podshosi o`z qo`shtini chaqirib oladi. Qoshg`ar hokimligi esa xitoyliklarga taslim bo`ladi.

Soson podshosi Shopur I (241-242 yillar) yozdirgan “Zoroastr Kaabasi”da kushonlar sultanatining hududi haqida: “*Kushonlar mamlakati Peshavor, Qoshg`ar, So`g`d va Chochga cho`zilgan*”, - deyiladi. Markaziy Osiyoda kushonlar asos solgan 3 ta shahar bo`lgan: 1. Koson-Farg`ona vodiysida; 2. Kattaqo`rg`on – Zarafshon vohasida; 3. Kesh – Qashqadaryo viloyatidadir.

Vasudeva davriga kelib Kushon podsholigi 2 qismiga bo`linadi. Mamlakatning bir qismiga Vasudeva, ikkinchi qismiga Kanishka III hukmronlik qiladi. Buni ularning har ikkalasi nomidan zarb etilgan tanga pullar isbotlaydi.

226 yilga kelib kushonlar sultanatida G`arbda – Parfiya davlatining o`rnida Sosoniylar davlati siyosat maydoniga chiqdi. Bu davlat Parfiyaga qarar edi. Ammo podsho Artashir I davrida mustaqil davlat sifatida faoliyat ko`rsatishga intildi va kushonlar davlatiga xavf sola boshladi. Bunday vaziyat kushonlarni befarq qoldirmadi. Kushon podshosi Vasudeva sosoniylar tomonidan bo`ladigan xavfga qarshi ittifoq qidirib, 230 yilda Xitoya o`z elchisini yubordi. Kushonlar bilan sosoniylar o`rtasida jang bo`lishi tabiiy edi. 242-243 yillarda bo`lib o`tgan ikki o`rtadagi jangda sosoniy Shopur I ning qo`shtini kushonlarni mag`lubiyatga uchratdi. Shundan so`ng sosoniylar hukmdorlari Sharqiy Turkiston

hududlarida “Kushonshoh” unvoniga ega bo`ldilar. 252 yilda esa ular yana “Kushon shohlarining ulug’ shohi” degan unvonga ega bo`ldilar. Bu yillarga kelib kushonlar Hindistondagi yerlarning ham katta qismidan judo bo`ldilar. Buni bir budda matnida (III asr o`rtalariga oid) “*dunyo uch qismga (Xitoy, Rim, Kushon) bo`lingan, ammo osmon o`g’lonlari (saltanatlari) to`rtta: Xitoy, Rim, Kushon va Hind*” deb bergan xabaridan ham bilish mumkin. Hind manbalarida ko`rsatilishicha, III asr o`rtalariga kelib Hindiston kushonlardan mustaqil davlat bo`lib ajralib chiqqan. Xuddi shu yillarda Xorazm ham kushonlardan ajralib chiqadi. Shu tariqa III asr o`rtalaridan e’tiboran kushonlar sultanati chuqur iqtisodiy va siyosiy inqiroz sari yuzlanadi. Ammo shundan keyin ham Kushon davlati O`rta Sharqning yirik davlatlardan biri sifatida yana 100 yildan ortiqroq vaqt tarix sahnasida turdi. IV asrning o`rtalariga kelib kushonlar bilan sosoniylar o`rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Bu davrda Shopur II (309-379) kushonlarga zarba berib, Shimoliy Baqtriya erlarini bosib oladi.

Kushon podsholigi va kushonlar davri O`zbekiston, Tojikiston, Afg`oniston, Pokiston va Hindiston tarixida muhim o`rin tutadi. Shunday qilib, Kushonlar sultanati tarix maydonida o`z o`rnini boshqa, o`zidan kuchliroq siyosiy uyushmalarga bo`shatib berdi. Kushonlar o`zlarining taxminan 400 yillik hukmronlik davrida insoniyat jamiyatni taraqqiyotida o`chmas iz qoldirdilar. Bu davrda yaratilgan uning o`tmishdagi qudratidan dalolatdir.

Buyuk Ipak yo`lining tarixiy geografiyasi. Vatanimiz xalqlari tarixida “Buyuk ipak yo`li” katta ahamiyatga egadir. Qadim zamonlar tarixiga ko`z tashlar ekanmiz, jamiyat taraqqiyotining bronza davridan ham ilgarigi davrlardan boshlab, hududlararo bog`lovchi vosita sifatida unga xos ixtisoslashgan yo`llar paydo bo`lganligini ko`ramiz. Tarixda eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Eron Ahmoniyari sultanati davrida uning hududi bo`ylab “*shoh yo`li*” o`tgan. Undan ham ilgariroq O`rta va Yaqin Sharqda Badaxshon lazuritiga bo`lgan ehtiyoj “*lazurit yo`li*”ning vujudga kelishiga sabab bo`lgan. Badaxshon lazuritlari Mesopatamiya va Misr podsholari saroylarini, ibodatxonalarini bezagan, ayollarning turli bezaklarini ishlashda keng qo`llanilgan. G`arb bilan Sharqni bir necha ming yillar davomida bir-biriga bog`lab kelgan ana shunday Qadimgi yo`llardan biri – “Buyuk ipak yo`li”dir. Bu yo`l fanga “*Ipak yo`li*” nomi bilan faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rixtgoen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo`l “*G’arbiy meridional yo`l*” deb atalardi. 1877 yili Berlinda D.Raynyer nashriyotida Ferdinand Frayxern fon Rixtgoenning «Kitay. Rezultato` sobstvenno`x puteshestviy i posleduyuhego glubokogo izucheniya» nomli ko`p tomlik monografiyasi nashr etildi. F.F. fon Rixtgoen (1833-1905) – nemis geografi va geologi, Berlin geograflar jamiyatining a’zosi bo`lib, u Xitoyning tabiatining tadqiqotchisidir. U Xitoyning nafaqat geografiyasini balki, geologiyasi, flora va faunasini, dinini ham o`rgangan. Ushbu kitobida F.Rixtgoen birinchi bo`lib ilmiy muomalaga “Buyuk Ipak yo`li” terminini kiritadi. Shuningdek, karvon yo`llarining qadimdan to o`zining davrigacha bo`lgan yo`nalishlarini keltiradi.

Xitoyda ipakchilikning dastlab keng tarqalgan joyi Xuanxe daryosining quiy havzasida joylashgan Shandun viloyatidir. Qadimgi Xitoydagি Sian shahri ipak yo`lining boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Akademik A.Asqarovning ma'lumotlariga qaraganda ham “Buyuk ipak yo`li” Xitoyning qadimgi markazi Siandan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga keladi. Bu yerda u ikkiga ajraladi. Ipak yo`lining janubi-g`arbiy tarmog’i

Taklamakon sahrosi orqali Xotanga, undan Baqtrianing bosh shahri Zariaspga (Balx) kelgan. Balxda yo`l yana uch tarmoqqa ajraladi, g`arbiy tarmog'i Marvga, janubiy tarmog'i Hindistonga, shimoliy tarmog'i Termiz orqali Darband, Nautak, Samarqandga qarab ketadi. Ipak yo`lining shimoli-g`arbiy tarmog'i esa Dunxuandan Bami, Kuchi, Turfan orqali Tarim vohasiga – Qashg'arga boradi. U yerdan Toshqo`rg'on orqali O`zgan, O`sh, Quva, Axsikent, Popga, undan Asht dashti orqali Xo`jand, Zomin, Jizzaxga, so`ngra Nautak yo`li bilan birlashadi. Yo`l Samarqanddan g`arbga – Dobusiyaga, Malik cho`li orqali Buxoro va Romitanga, undan Varaxsha orqali Baykent va Forobga borib Amul shahriga o`tadi. Amulda Marvdan Urganch tomon Amu bo`ylab ketayotgan yo`lga qo`shilgan. Qadimda Marv shahri o`zining turli yo`nalishdagi karvon yo`llari tutashadigan geografik qulayliklariga ko`ra ipak yo`lidagi eng yirik shahar edi. Marvdan g`arbga tomon katta karvon , savdo yo`li bo`ylab Xitoy, Hindiston va O`rta Sharqni Yaqin Sharq va O`rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog`lab turadi. Arxeologik ma'lumotlarga ko`ra Marvdan g`arbga tomon yo`nalgan “ipak yo`li” Tabriz va Parfiya davlatining Nisa shahri orqali Eronning Gekotompil, Apaliya va Ekbatana (qamadon) shaharlariga va ulardan o`tib Mesopotamiyaning Ktesifon va Bag`dod shaharlariga tarqalgan. Undan Dajla, Tigr daryosining o`ng sohili bo`ylab shimol tomon yo`nalib, Antioxiya orqali Damashqqa, undan Tir va Quddus shaharlari orqali Misrga o`tgan. Marvdan chiqqan shimoliy yo`l esa Amul orqali Urganchga, undan Shimoliy Kaspiy bo`ylab Shimoliy Kavkazga, so`ngra qora dengizning shimolidan Konstantinopolga borib, Bosfor va Dardanell orqali O`rta Yer dengiziga o`tib, Vizantiya shaharlarini oralagan. “Buyuk ipak yo`li” orqali Sharq va g`arb mamlakatlari savdo va elchilik aloqalari qilganlar. Yozma manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda III-VII asrlarda Markaziy Osiyo va O`rta Sharq orqali o`tgan ipak yo`lining nazorati So`g`dlarning qo`lida bo`lgan bo`lsa, VIII asr o`rtalariga kelib, “Ipak yo`li”ning g`arbiy qismi arablar nazoratiga o`tadi. XIII asrda esa ipak yo`lining barcha tarmoqlari bo`ylab nazoratni Chingizzon o`z qo`liga oladi. Bu holat to XIV asr o`rtalarigacha davom etdi. So`ng “Ipak yo`li” Temur va Temuriylar nazorati ostiga o`tdi. “Ipak yo`li” orqali Xitoydan g`arb mamlakatlariga, asosan ipak, ilk o`rta asrlardan boshlab qog`oz chiqarilgan bo`lsa, g`arb mamlakatlaridan Xitoya shisha, jundan ishlangan har xil gazlamalar, gilam, palos, oyna, metall, zebi ziynat bezaklari, qimmatbaho toshlar (lazurit, biryuza, serdalik) va har xil dorivorlar, arg`umoq otlar olib borilgan.Xullas, “Buyuk Ipak yo`li” Markaziy Osiyo xalqlarini siyosiy, iqtisodiy, madaniy va savdo sohasidagi hayotida katta o`rin tutgan, o`lka xalqlari bu yo`l tufayli g`arb va Sharq dunyosi hamda ularning xo`jalik ixtiolaridan keng bahramand bo`lganlar.

Tayanch tushunchalar

Nautak shahri - Qashqadaryo

Kiropol (Kurushkat) – O`ratepada (hozirgi Tojikistonda)

Tanais – Sirdaryoning nomi

Aleksandriya Esxata - Sirdaryo soqilida 17 kunda qurib bitkazilgan qal'a, yani olisdagi Iskandariya shaxri bo`lib, Xo`jand bilan Bekobod oralig`i (taxminan Farhod GESi)da joylashgan edi.

Marg'iyona Aleksandriya – Murg`ob vodiysida barpo etilgan shahar

Davan, Parkana – Farg`ona

Ansi – Parfiya

Kushon qishlog`i va Kosonsoyda Koson shahri - hozirgi Namangan viloyatining Yangiqo`rg`on tumani hududida yuechjilar tomonidan barpo qilingan

Baqtrianing Afg`oniston hududidagi shaharlari - Begram, Baqtra, Oyxonum, Dalvarzin, Tojikiston hududiga qarashli Qobadshoh, Qayqobod, Ko`hna qal'a, O`zbekiston hududidagi Dalvarzintepa, Dunyotepa, Hayitobodtepa, Jondavlattepa

Termiz - Baqtrianing Demetriy davrida Amudaryo soqidida qurilgan harbiy qal'asi So`g`diyonanining Qadimgi shaharlari - Erqo`rkon, Afrosiyob, Buxoro, Tali Barzu, Marg`iyonada Govurqal'a

Qang`a (Qang`diz) - Kanq davlatning markazi bo`lib, u Toshkent vohasida Sirdaryoga yaqin yerda joylashgan.

O`tror (Tarband) - Qang` davlati hoqonlarining yozgi harorgohi

Markaziy Osiyoda kushonlar asos solgan 3 ta shahar - Koson-Farg`ona vodiysida, Kattaqo`rg`on – Zarafshon vohasida, Kesh – Qashqadaryo viloyatida.

Foydalanimgan manba va adabiyotlar ro`yxati.

1. Karimov I.A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G`G` Vo`stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr.soch. v 8-mi t.t. – T: Uzbekiston. 1996. t. 4.
2. Ukaz Prezidenta Respublikи Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respublikи Uzbekistan v vozrojdenii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublike» ot 31 maya 1995 goda.
3. Arto`kov A. TASIS-TRASEKA: perspektivo` razvitiya G`G` Ekonomika i statistika. 1998. №2.
4. Kobzeva O.P. Velikiy Shelkovo`y put: vchera, segodnya, zavtra G`G` Xozyaystvo i pravo. 2000. - № 1.
5. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti G` Sost. Kusanbaev B.M. – T: Shark. 1996.
6. Kobzeva O.P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti G`G` Uzbekiston tarixi. 2000. № 4.
7. Kobzeva O.P. Mark Aurel Steyn – novo`y arxeolog Shelkovogo puti G`G` Vestnik NUUz. 2000. № 4.
8. Rtveldaze E.V. Velikiy Shelkovo`y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik. – T., 1999.
9. Sulaymonova F. Sharq va harb. - T: "Fan" nashriyoti, 1992. – B. 89-90.
10. Staviskiy B.Ya. Velikiy Shelkovo`y put G`G` Mejdunarodno`y ejegodnik. – Sankt-Peterburg: 1997.

5-mavzu: Markaziy Osiyoning ilk o`rta asrlar va XII- XIV asrlardagi tarixiy geografiyasi Reja

- 1. Eftalitlar davlati tarixiy geografiyasi (IV-V asrlar)**
- 2. Turk hoqonligi tarixiy geografiyasi**
- 3. Chig`atoy ulusi va XIV-XV asrlar Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasiga oid manbalar.**

- 4. Amir Temur davlati va sultanati tarixiy geografiyası**
- 5. Tarixiy manbalarda Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasining turli aspektlari. (siyosiy ma'muriy bo`linishi, tabiatni, xo`jaligi, savdo yo`llari, xalharo aloqalari, toponimiyasi v.q.k.)**
- 6. Temuriylar davlatining ma'muriy-hududiy bo`linishi.**

Eftalitlar davlati tarixiy geografiyası. Mamlakatimiz hududida ilk yirik feodal davlatlardan biri – *Eftalitlar* davlatidir. Eftalitlarning kelib chiqishi haqida fanda turli fikrlar bor. Aniqrog`i, Eftalitlar massagetlarning avlodidan bo`lib, ular Kushonlar siyosatini davom ettiradilar va Markaziy Osiyoda yagona markazlashgan davlatni barpo etdilar.

Eftalitlar podshosi Vaxshunvar 457 yilda Chog`oniyon Tohariston va Badaxshonni o`ziga bo`ysundirdi. Eftalitlar qo`slnisi Eron sosoniyalar bilan urush qolatida bo`lib, ikki marta shartnomaga tuzgan. Ammo shartnomani buzib, Vizantiya yordamida sosoniyalar shohi Peroz eftalitlarga hujum boshlaydi ammo tor-mor keltiriladi. Eftalitlar Eronga katta o`lpon soladilar, Marvni egallaydilar. So`ngra ular qobul va Panjob vodiysi, Qarashar, Kuchu, Qoshg`ar va Xo`tonni egallaydilar.

Ammo Turk xoqonlarining eftalitlarga qilgan hujumidan foydalanib Xusrav I 554 yilda eftaliylardan Toharistonni tortib oladi. 563-567 yillarda esa turk qoqoni Silsivil Eron bilan ittifoqlikda eftalitlarga qahshatqich zarba beradi va bu podsholikni tobe ahvolga solib qo`yadi.

Eftalitlar davlatining siyosiy markazi – poytaxti qaerda bo`lganligi to`g`risida qat'iy aniq ma'lumot yo`q. Taxminiy fikrlarga ko`ra bunday markaz Poykand yoki Balx bo`lgan deyiladi.

Eftalitlar davri tarixiga oid ba`zi bir moddiy madaniyat yodgorliklari mamlakatimiz hududida saqlanib qolgan. Bular Xorazm viloyati hududidagi Firqal'a (qiyot-Beruniy yaqinida), Buxoro viloyatida Poykand va boshqalardir.

Eftalitlar davrida shuhrat topgan yirik shaharlardan biri Paykent (Baykend)dir. Nrasxayi Baykentni “Buxoro shahridan Qadimiyroq” – deb hisoblaydi.

Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va kichik-kichik mayda hukmdorlarning raqobatlari natijasida VI asrning o`rtalariga kelib Eftalitlar davlati asta-sekin emirila boshladi.

Turk hoqonligi tarixiy geografiyası. VI asrning o`rtalariga kelib Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabilalar va xalqlar birlashib katta turk hoqonligi davlatini tashkil qildilar. Lekin Qadimgi turkiyzabon xalq xitoy solnomalarida er.av. 1756 yildan boshlab tilga olinadi.

545 yildan e'tiboran Turk xoqonligi Markaziy Osiyo, Mo`g`uliston, G`arbiy Sibir va Dashti qipchoq yerlarida hukmron davlatga aylandi. Turk hoqonlari nihoyatda katta hududlarga ega bo`lgan mamlakatlarini sakkizta tobe xonliklar asosida boshqardilar. Sharqiy hoqonlik Yettisuvda bo`lgan. Yozma manbalarda Sharqiy va G`arbiy Turk hoqonligini tashkil etishda qatnashgan turkiy urug`larning nomlari tilga olingan: Ashin, Arg`u, Az, Basmil, Izgil, O`g`uz, To`qqiz o`g`uz, Uch o`g`uz, O`n uyg`ur, O`tuz tatar harluq, Qurdanta, Qimchoq, Kitoy, Qirq az, Tordush, Tatabi, Dulu Nushub, To`g`ri (taharlar), Tolis, Turgan, Tupuri, Turk, Uyqur, Sir, quriqan, Duba.

551 yilda Qoqon Bumin davrida hoqonlik bir yirik davlatga birlashtirildi. Istemi davrida hoqonlikning chegarasi yanada kengayib, Markaziy Osiyo hududlari ham uning tarkibiga

kirdi. Jumladan, Toshkent va uning atroflari, Qozoqiston, Yettisuv va Xorazmdan to Amudaryogacha yetib bordi. 563 yillarda hoqonlik eftalitlarni tor-mor etgach, uning chegaralari Eron bilan bevosita yaqinlashib qoldi. Bu hol Eron va turk manfaatlarining to`qnashuviga olib keldi.

Chig`atoy ulusi va XIV-XV asrlar Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasiga oid manbalar. Ma'lumki, XIII asrda Mo`g`ullar davlati tashkil topib, uning hukmdori Chingizzon o`zi egallagan barcha yerlarni to`rtta yirik ma'muriy birlik-ulusga ajratib, o`g`illariga idora etish uchun topshirgan. Chingizzon o`z davlatini o`g`illariga bo`lib bergenida Sharqiy Turkiston, Movarounnahr va Xorazmning sharqiy qismidan iborat hududni ikkinchi o`g`li Chig`atoya (vafoti 1241 yil) tegishli edi. Chingizzon vafotidan so`ng, uning avlodlari o`rtasida, jumladan, Chig`atoy ulusida ham, ichki nizolar kuchayib, bu ulus ikkita siyosiy-ma'muriy qismidan iborat bo`lib qoldi. Tarixiy asarlarda uning sharqiy qismi “*Mo`g`uliston*”, g`arbiy qismi esa mavjud Qadimgi nomi bilan “*Movarounnahr*” deb qayd etilgan.

XIV-XV asrlarga oid Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi bo`yicha qimmatli materiallarga ega. Bu davrning asosiy manbalari Nizomiddin Shomiyning “*Zafarnoma*”, Hofizi Abruning “*Jo`qrofij*” hamda “*Zubdat-at-tavorix*”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “*Zafarnoma*”, Abdurazzoq Smarqandiyning “*Matlaus-sa'dayn*”, Mirxondning “*Ravzatus-safo*” va boshqa asarlaridir. Temuriylar davri manbalari Markaziy Osiyo tarixiy jug`rofiyasining turli aspektlari bo`yicha keng material beradi.

XIV asr o`rtalarida Movarounnahrda yaxlit hokimiyat yo`q va o`lka kichik-kichik feodal mulklarga bo`lib ketgan edi. Temuriylar davrining mashhur olimi Hofizi Abru “*Zubdat at-tavorix*” asarida bu qolatni quyidagicha ta'riflaydi: “Amir qoji Barlos Kesh shahri va unga qarashli, barlos amirlarining asl yurti bo`lgan, yerlarni egalladi. Amir Boyazid esa, jaloyir amirlariga qarashli Xo`jand viloyatini o`z qo`l ostiga oladi. Qarog`inlardan hisoblanmish Amir Husayn, o`zining bir guruhi Qadim mo`g`ullari va ul urug`dan kelib chiqqan qaravunoslar bilan qo`rquvga tushib bugun bir tomonda bo`lsalar, ertasiga boshqa tomonda bo`lardilar. Uljoy-Bug`o sulduz ham sardorlik da'vosini qilib, sulduzlar to`pi bir tomon bo`lgan edi. Shoh Muhammadxo`ja Zindahashm va Qaroson (ikkalasi) Andxo`d va Shiburqonni egalladilar. Shoh Muhammad Badaxshoni o`z Ko`xistonini mustahkamlab oldi hamda ul viloyat hukmdorligini tama' qilardi. Amir Kayxusrav va amir Uljaytu apardi ittifoqlikda qatlon va unga tobe' joylarni egallab oldilar. Amir Hizr yasavuriy o`z qabilalari va ko`chmanchilarini atrofiga yig`ib, o`zini boshqalardan ko`ra ko`proq mustaqil deyishga haqli, deb bilardi. Shu boisdan, ul mamlakatda har kun bir fitna va har lahzada bir g`avg`o kelib chiqardi”. Mo`g`uliston xoni Tug`luq-Temurxon bu vaziyatdan foydalaniib, 1360 yil Movarounnahrga qo`shin tortdi va osongina egalladi. Kesh viloyatining hokimi Hoji Barlos Xurosonga qochib ketadi. Amir Temur esa, o`z yurtini dushman tomondan talon-taroj qilinishdan saqlab qolish maqsadida, Tug`luq Temurxonga tobelik izhor etdi. Xon uni yaxshi qabul qilib Kesh viloyati va unga yondosh yerlarga hokim etib tayinlanardi.

Amir Temur davlati va sultanati tarixiy geografiyası. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach (1370), uning xalqaro miqyosdagi faoliyati, dastlabki yigirma yil davomida o`z mavqeini mustahkamlash, sobiq Chig`atoy ulusi hududini o`z tasarrufiga kiritishni va Movarounnahrni yuksaltirishdan iborat bo`ldi. Bu ish ancha qiyinchilik bilan amalga oshdi; XIV asrning 70—80 yillarida sobiq Jo`chi va Chig`atoy uluslari yerlarini

qamrab olgan murakkab xalqaro vaziyat yuzaga keldi. Natijada, Amir Temur Mo`g`uliston, Xorazm va Oltin O`rdaga bir necha bor yurishlar qilishga majbur bo`ldi va ularning har birining o`z sababi bor.

Amir Temur ayniqsa, Mo`g`uliston tomondan yangi chopqinlar, yurishlar bo`lishi mumkinligidan doim xavfsirardi. Amir Temur 1371 yil birinchi bor Mo`g`ulistoniga yurish qilib, to Ili vodisigacha etib bordi. So`ngra Chig`atoy ulusining harbiy chegaralarini tiklashga kirishdi. O`z vaqtida Chingizzon butun imperiyasini o`g`illariga taqsimlab, O`rta Osiyo hududlarini Chig`atoya, Xorazmni esa Jo`chiga tegishli etgan edi. Biroq Xorazmning janubi-sharqiy qismi va u yerdagи Kot va Xiva shaharlarini Chig`atoya bergen. Qo`ng`irot urug`idan bo`lmish Husayn So`fi XIV asrning 60-yillarida Oltin O`rda xoiligidan avj olgan feodal nizolardan foydalanib, Xorazmda xokimiyatni qo`lga oldi va o`z nomidan tanga ham zarb etdi. So`ngra u Chig`atoy ulusidagi feodal tarqoqlikdan foydalanib, Xorazmning janubi-sharqiy qismini ham qo`shib oldi.

Amir Temur Movarounnahrda taxtga o`tirgach, o`zini Chig`atoy ulusining qonuniy hukmdori hisoblab, Alqa tavochini Xorazmga Husayn So`fi qoshiga elchi qilib jo`natdi va Kot qamda Xiva shaharlarini tobe yerlari bilan birga qaytarib berishni talab qildi. Tarixchi Hofizi Abru bu haqda quyidagilarni yozadi: «*Chingizzon zamonidan buyon bu ikki viloyat (Kot va Xiva) bizning (Chig`atoy) hukmdorlariga taalluqli bo`lgan*». Sharafiddin Ali Yazdiy «*Zarafnama*»sida ham ushbu mazmun qayd etilgan: «*Kot va Xivaq Chig`atoy ulusiga tegishli erur. O`tgan muddat ichida uni egasiz topib, o`z tasarrufing havzasiga kiritmishtsan. Endi lozimdirki, uni barcha tobe' va tutash (yerlari) bilan birga bul tomon elchilarini ixtiyoriga qaytarsang, toki (shu asosda), har ikkala tomon o`rtasida samimiyat va do`stlik yo`li ochiqligicha qolsa, totuvlik va qo`llab-quvvatlamoq shart-sharoitlari yaratilsa*». Husayn So`fi elchilarga qo`pollik bilan: «*Bu viloyatni men qilich vositasida qo`lga kiritganman va uni qilich bilan olishga to`g`ri keladi*»,— deb javob qildi. Shundan so`ng, Amir Temur 1372 yili Xorazmga yurish qilib, to`la g`alaba qozondi. Husayn So`fi bu mag`lubiyatdan g`am-anduhga botib olamdan ko`z yumdi va Xorazm taxtini uning ukasi Yusuf So`fi (1372—1380) egallab, Amir Temurga tobelik izhor etib sulh tuzdi. Ushbu sulhni Amir Temur taklifiga ko`ra, qon-qardoshlik iplari bilan bog`lash maqsadida, O`zbekxonning nevarasi Xonzoda ismi bilan mashhur bo`lgan Savinbekni Amir Temurning o`g`li mirzo Jahongirga berishga ahplashildi. Lekin Yusuf So`fi o`z va'dasiga vafo qilmadi, aksincha, Kot viloyatiga chopqin yasadi. Ushbu voqeа sababli, Amir Temur 1373 yilning mart oyida ikkinchi marta Xorazmga yurish qiladi. Lekin u yetib borishi bilan Yusuf So`fi qo`rqib, uzr so`raydi va zudlikda Xonzodani jo`natadi va temuriylar bilan chingiziyalar hukmdorlari xonadoni o`rtasida qarindoshlik rishtasi vujudga keladi.

Mo`g`ulistonda esa, bu paytda dug`lot amirlaridan Qamariddin siyosiy maydonga chiqadi. U tez orada chingiziyalar avlodini qirib tashlab, zo`ravonlik bilan taxtni egallaydi. Xon avlodidan faqat hali juda yosh bo`lgan Xizrxoja o`g`lonni bekitib Badaxshonga jo`natadilar va shu yo`l bilan o`limdan saqlab qoladilar.

Amir Temur 1375 yili Mo`g`ulistoniga Qamariddin ustiga yurish qildi. Biroq Qamariddin jang qilmaydi va qochib ketadi. Sohibqiron qo`shinlari Qamariddinni ta'qib qilib to *Yilbog`i*, *Uch Farmon* va *Qoraqasmoq* degan joylargacha yetib bordilar. Keyingi tarixiy voqealar Mo`g`uliston, Oltin O`rda va Xorazm Amir Temurga qarshi birlashganliklarini ko`rsatadi. Ba'zan, ularga Movarounnahrdagi ba'zi norozi kichikroq

guruqlar ham qo`shilgan. Mirzo Jahongir boshchiligidagi ilg`or tarzda oldinroq yetib kelgan qo`shin Karmina yaqinida dushman bilan jang qilib, uni to`zitib yubordi, bosh ko`targanlar Dashti Qipchoqqa qochib O`rusxon dargohidan panoh topdilar. Ma'lum vaqtadan so`ng ular Mo`g`ulistonga qaytib kelib Qamariddinga qo`shildilar va birgalashib Andijonga chopqin yasadilar. Amir Temur Qamariddinga qarshi yurishga otlandi. Bu Mo`g`ulistonga qilgan beshinchı yurish edi. Lekin o`g`li Mirzo Jahongirning vafoti tufayli yurishni nihoyasiga etkazmay qaytishga majbur bo`lgan edi. Ma'lum muddatdan so`ng Amir Temur yana Mo`g`ulistonga yurish qildi va uning lashkaridagi ilg`or qismlar Qamariddinga yotib jang qildilar. Yov yengildi, lekin Qamariddin yana qochib qolishga ulgurdi. Bu yurishda Qamariddin to`la tor-mor etilib, Mo`g`ulistonda xonlik taxtini Xizrxoja-o`g`lon egalladi. Qamariddin o`n yildan ortiq vaqt davomida Mo`g`ulistonda xokimiyat tepasida bo`ldi va shu muddat ichida Amir Temur bilan ikki o`rtada sulh yoki kelishuv bo`lganligi haqida manbalarda hech narsa deyilmagan. Xizrxoja o`g`lon (Natanziy yozib qoldirgan ma'lumotga ko`ra), xonlik taxtiga o`tirgan paytdanoq Amir Temurga tobelik izhor etdi. Bunga javoban, Amir Temur uni Mo`g`uliston xoni yetib qoldirdi va bu o`lkaga yurish qilishni to`xtatdi. Xizrxoja hokimiyatni egallagach, Mo`g`ulistondagı amirlarni bo`ysundirishga va o`z mavqeini mustahkamlashga kirishdi. Biroq bu ancha mushkul ish edi.

Amir Temur 1376 yili Mo`g`ulistonda yurish qilib turganida To`xtamish Oltin O`rda xoni O`rusxonning ta'qibidan qochib, uning dargohidan panoh izlab keldi va Sohibqiron uni xayrixohlik bilan qabul qilib, xatto o`g`lim, deb atadi, deb yozadi Sharafiddin Ali Yazdiy. So`ngra uni Sirdaryoning quyi havzasidagi viloyatlarga hokim etib tayinlaydi. Bu, o`z navbatida, Amir Temur davlati bilan Oltin O`rda xonligi o`rtasidagi munosabatlarning murakkablashuviga olib keldi. O`rusxon To`xtamishga qarshi qo`shin jo`natdi; ular o`rtasida jang bo`lib To`xtamish yengilib qochdi, biroq O`rusxonning o`g`li Qutluq-Bo`ka ham ushbu muhorabada halok bo`lgan edi. O`rusxon Kepek manqit va Tulujonlarni elchi qilib Amir Temur huzuriga yuboradi va: «*To`xtamish mening o`g`limni o`ldirib sizning yurtingizga qochib ketmish. Yo mening dushmanimni beringlar yoki bo`lmasa urush joyini belgilab, jang qilmoqqa yuzlaning*», — degan mazmunda payg`om yuboradi. Amir Temur esa To`xtamish uning saltanatidan panoh izlab kelganligini va uni qaytarib berish haqida so`z bo`lishi ham mumkin emasligini va jang qilmoq masalasiga kelganda esa, u har doim tayyor ekanligini aytadi. Ikkala tomon urushga otlanadilar, biroq qishning qahraton sovug`i bunga to`sinqlik qilib qoladi. Biroz vaqtadan so`ng O`rusxon, bir oz vaqt o`tib, uning o`rniga qolgan o`g`li To`xtaqiyo ham olamdan ko`z yumadi. Shundan so`ng, Amir Temur To`xtamishni Jo`chi ulusining hukmdori etib tayinlaydi. Bu voqe 1376 yili bo`lgan edi. O`rusxonning Oltin O`rda taxtida xon bo`lib turgan o`g`li Temur Malik o`g`lon To`xtamishning ustiga yurish qiladi. Bo`lib o`tgan jangda To`xtamish yengiladi va baxtli tasodif bilan omon qoladi. Amir Temur uni yangidan eng sara qo`shinlar bilan ta'minlab, 1377 yili Sig`noq viloyatiga hokim qilib tayinlaydi.

Oltin O`rdada esa, Temur Malik hokimiyatni boshqarishni eplayolmay, davlati borgan sari zaiflashadi. Amir Temur ana shu qulay vaziyatni aniq hisobga olib, To`xtamishni jo`natadi va u osongina taxtni egallaydi. Keyingi yillarda To`xtamish o`z mavqeini kuchaytirib borib, nihoyat 1380 yili Oltin O`rdaga xon bo`ldi.

To`xtamish xonlik taxtiga o`tirgach, Amir Temur Oltin O`rda bilan munosabatlardan ko`ngli taskin topgan bo`lsa, biroq Xorazm masalasida hali chigalliklar bor edi. Chunki 1376 yili Amir Temur O`rusxon bilan urushmoqchi bo`lib O`trorda turganida, Xorazm voliysi Yusuf So`fining qo`shinlari Buxoro atroflariga chopqin yasab aholini talagan edilar.

Amir Temur Jilortini Xorazmga Yusuf So`fi huzuriga elchi qilib jo`natdi va o`z maktubida ikki o`rtada tuzilgan sulh hamda quda-anda bo`lganlarini eslatdi. Lekin Yusuf So`fi elchini qamab qo`ydi va maktubni javobsiz qoldirdi. Sohibqiron ikkinchi marta elchi yubordi va elchi daxlsiz shaxs ekanligini, uni qamab bo`lmasligini ta'kidlab, elchini ozod qilishni talab etdi. Yusuf So`fi ikkinchi elchini ham qamatdi. Xorazm voliysi bu harakati bilan Amir Temurni O`rusxon bilan jang qilmoqdan chalg`itmoqchi bo`lganmi yoki o`zi mustaqil harakat qilganmi, bunisi noma'lum. Qanday bo`lmasin, Amir Temur o`sha paytda bu voqeaga unchalik e'tibor bermadi va Dashti Kipchoq ishlaridan xoli bo`lgandan keyingina uning tadbiriga kirishdi. Amir Temur 1379 yili Xorazmga yurish qildi. Bu uning to`rtinchi va hal qiluvchi yurishi edi. Xorazm poytaxti uch oy davomida qamal qilindi, oxiri Yusuf So`fi g`am-anduhga botib olamdan ko`z yumdi. Shahar zabit etilib vayron qilindi, olimlar va hunarmandlar Kesh shahriga ko`chirildi. To`rtinchi yurishdan keyin ham Amir Temur davlati bilan Xorazm o`rtasida mavjud munosabatlar ishonchli emasdi. Yusuf So`fidan so`ng Xorazm voliysi bo`lgan Sulaymon So`fi tez orada To`xtamish bilan ittifoq tuzib, unga tobe' bo`ldi va uning nomiga tanga zarb etdi. Amir Temurning To`xtamishni o`ziga qaram hokim qilish rejasi amalga oshmadi. Aksinchha, To`xtamish Oltin O`rda taxtiga o`rnashgach xavfli raqibgach aylandi.

Amir Temur harbiy yurishga ketgan chog`ida, 1387 yili barcha chingiziy kuchlar — *Oltin O`rda*, *Mo`g`uliston* va *Xorazm* birlashib Movarounnaxrga hujum qildilar. Ular fursatdan foydalanib qattiq zarba berishni maqsad qilgan edilar. Dushman qo`shinlari qishloqlarni talab, qarshi va Zanjirsaroy shaharlariga o`t qo`ydi. Samarqand va Buxoroni qamal qildi. Amir Temur zdulikda Movarounnahrga qaytishga majbur bo`ldi. Bu xabarni eshitgan dushmanlar turli tomonga qochib qolishdi. Sohibqiron bu voqeadan qattiq darg`azab bo`lgan edi, dushmanlardan qasos olishga ahd qildi. U dastlab, Xorazm tomon yurdi. Ushbu beshinchi yurishda Xorazm poytaxti yakson etildi va aholisi Samarqandga ko`chirildi. Lekin oradan uch yil o`tgach, Sohibqiron afv-imzosi chekib, Xorazmii yangidan obod etmoqqa farmon berdi. To`xtamishxon 1388 yilning dekabr oyida son-sanoqsiz lashkar to`plab Movarounnahrga yurish qiladi va ilg`or qismlari Sirdaryodan o`tib Jizzaxga yaqinlashganda Sohibqiron lashkari tomonidan tor-mor etiladi. Amir Temur 1389 yilning fevralida o`z lashkari bilan Sirdaryodan o`tadi. Zafarli lashkarning yetib kelganidan xabar topgan dushmanlar tumTarag`ay qochib qoladilar. Xuddi shu 1389 yili Amir Temur arkoni davlat bilan maslax, atlashib Mo`g`uliston sari yurish boshlaydi. Ili vodiysiga yetib borganida qurultoy chaqirib, unda butun Mo`g`uliston hududi ro`yxatga olinadi. Turli yo`nalishlarda jo`natilgan qo`shinlar Mo`g`ulistonni boshdan oyoq kezib talon-toroj qiladilar, Bu yurishda Mo`g`uliston butunlay zabit etilib, uning xoki Xizrxoja to`la tobelik izhor qiladi. Keyinroq, aniqrog`i 1397 yili, Amir Temur Xizrxojaxonning qizi Tukal xonimga uylanib qarindoshlik rishtasini hosil qiladi. Ana shu yurishdan keyingina Movarounnahr uchun Mo`g`uliston tomonidan hujum xavfi uzil-kesil tugatildi. Bu katta g`alaba Movarounnahrning Xitoy bilan savdo-elchilik munosabatlarini yo`lga qo`yishga imkon berdi, zero savdo yo`li Mo`g`uliston va Sharqiy Turkiston orqali o`tardi. Savdo

aloqalarining rivojiga Amir Temur alohida e'tibor bergen, chunki ular Mavarounnahrning ham iqtisodiy, ham siyosiy qudratini yuksaltirishga ko'mak berardi. Amir Temur 1389 yili Mo`g`ulistonni uzil-kesil o`z tasarrufiga kiritgach, Xitoy bilan savdo-elchilik aloqalari tiklandi. Amir Temur Mo`g`ulistonidan boshqa xavf bo`lmasligidan ko`ngli to`lgach, Oltin O`rda tomondan mavjud xavf-xatarni bartaraf etishga kirishi va 1390 yili o`zining To`xtamishxon ustiga qilgan eng og`ir yurishlaridan biriga azm etdi. Hatto To`xtamishning o`z aybiga iqror bo`lib uzr so`rab yuborgan elchilariga ham e'tibor bermadi. Hozirgi Qozog`iston dashtlarini katta mashaqqat bilan bosib o`tib, so`ngra g`arbgan yurib Volga daryosi sohillariga yaqinlashib bordi. U yerda To`xtamishning juda katta lashkari bilan qattiq jang qilib g`alaba qozondi. Oltin O`rda xonligi 1395 yili uzil-kesil tor-mor etildi.

Sohibqiron 1393 yili Bag`dodni zabit etgach, Misr sultonni Barqo`q qoshiqa elchi yuboradi. Elchilar orqali yo`llangan maktubda ikkala davlat o`rtasida elchilar vositasida maktublar yozib turish, ularning bemalol qatnovi va xavfsizligini ta'minlash, savdo-sotiqni rivojlantirish zarurligi qayd etilgandi. Biroq Misr podshosi mavjud elchilik qoidalariga xilof tarzda ish tutadi va elchilarni qatl etmoqqa farmon beradi. Barqo`q vafotidan so`ng, uning saltanatini egallagan o`g`li Faraj ham otasining yo`lini tutadi. Amir Temur yetti yillik yurishi (1399—1404) chog`ida, Shom tomonga yuzlanganda, Faraj huzuriga elchi yuborganda, u elchilarni Amir Temur elchilarini Halab shahrida qamab qo`yadilar. Amir Temurning Rum podshosi ustidan g`alaba qozonganidan so`ng esa, Misr podshosi Faraj oxirgi umidi ham uzilib, Itilmishni banddan ozod qildi; bo`ysunishni tan olib, butun Misr mamlakatida Sohibqiron ismi bilan tanga zarb qildi va nomini xutbada zikr etadigan bo`ldi; elchi yuborib xiroj va mol to`lamoqni zimmasiga oldi. Amir Temur uning elchilarini yaxshi qabul qilib, Farajni o`z o`rnida, ya`ni Misr taxtida qoldirganini, muqaddas Makka va Madina shaharlari bo`yicha ham ilgarigiday mutasaddi etilganini ma'lum qildi. Shundan so`ng Misr bilan Amir Temur davlati o`rtasida muntazam elchilik va savdo aloqalari davom etgan. Sohibqiron 1404 yili Samarqandning Konigil o`langida bergen katta to`y-tomoshalarda, turli mamlakatlar — Ifranj, Hindiston, Dashti qipchoq kabi joylar elchilari qatori Misrdan ham elchi bor edi.

XIV asrning 2-yarmi, ya`ni Amir Temur Markaziy Osiyoda mustaqil davlat barpo etib, so`ngra hududiy jihatdan Evrosiyo bo`ylab yastangan va xatto Misrni bo`ysindirib Afrikagacha o`tgan ulkan imperiya tuzishga muvaffaq bo`lgan.

Amir Temurning 1405 yili O`trorda vafot etishi tufayli ko`pgina rejalarini amalga oshmay qoldi.

Tayanch tushunchalar

Jete (Jeta) – Temuriylar davri yozma manbalarida Mo`g`uliston ham shu nom bilan atalgan, ya`ni ikkala nom bir-biriga sinonim tarzda qo`llanilavergan.

Dashti qipchoq – hozirgi Qozoqistonning o`rta va g`arbiy qismiga to`g`ri kelgan, to Volga daryosigacha; boshqacha atalishlari: Dashti qipchoq va Jo`chi ulusi; Dashti qipchoq va O`zbek mamlakatlari.

Konigil – mavze, Samarqand shahridan sharqda. (Yalanglik)

Kesh suvi - Qashqadaryo

Foydalilanigan manba va adabiyotlar ro`yxati.

1. Klavixoning Samarqandga sayohati. G` Rus tilidan tarjima, kirish so`z va izohlar Omonullo Bo`rievniki. - Toshkent: Adolat, 2004. - 44 b.
2. O`rinboev A., Bo`riev O. G`iyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi. - T: Fan, 1991. – 55 b.
3. Abduhalimov B., Karimov G`. Temuriylar tarixiy geografiyasiga oid muhim tadqiqot G`G` Temuriylar davri madaniy yodgorliklari.(“Temuriylar tarixiga oid manbalar: muammolar, mulohazalar” mavzusida o’tkazilgan Respublika miqyosidagi ilmiy anjuman materiallari. - T: Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, 18 oktyabr 2002 yil) 1- kitob. – T., 2003.
- 4.A'zamova G.A. Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahrni boshqa mamlakatlar bilan bog`laydigan karvon yo`llari G`G` “Amir Temur va uning jahon tarixidagi o`rni” mavzusidagi xalqaro konferentsiya tezislari. (1996. 23-26 oktyabr). - T: O`zbekiston, 1996. 45-47 b.
5. Bo`riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo (Tarixiy-geografik lavhalar). - T: O`zbekiston, 1997. - 186 b.
6. Bo`riev O. Temuriylar davri manbalarida Chag`oniyon. - T: Fan, 2001. - 30 b.

Mundarija

So`z boshi.....	4
1 – Bob. Xronologiya.	
1-mavzu. Kirish. Xronologiya fani predmeti, maqsad va vazifalari.....	5-12
2-mavzu. Vaqt sanasi birligi. Eng Qadimgi kalendarlar.....	12-20
3 – mavzu. Qadimgi Yunoniston va Rimdagi kalendarlar. Julian va Grigorian kalendarlar.....	20-29
4 – mavzu. Sharq mamlakatlari va musulmon kalendarlari.....	29-40

2 – Bob. Numizmatika.

1-mavzu. Dastlabki tangalarning paydo bo`lishi tarixi.....	40-44
2 – mavzu. Qadimgi davr O`zbekiston tangalari.....	44-47
3 – mavzu. Ilk o`rta asr O`zbekiston tangalari.....	47-53
4 – mavzu. Amir Temur va Temuriylar sulolasining tangalari.....	53-63
5 – mavzu. Shayboniyalar davri tangalari.....	53-63
6 – mavzu. Buxoro amirligi qog`oz pullari.....	63-65

3 - Bob. Tarixiy geografiya

1-mavzu. Tarixiy geografiyaning vazifalari, tarkibiy qismlari. Tarixiy geografiya fan sifatida.....	65-68
2-mavzu. Markaziy Osiyoning Qadimgi davr tarixiy geografiyasi.....	68-71
3-mavzu. Makaziy Osiyodagi Qadimgi davlat tuzilmalari tarixiy geografiyasi.....	71-76
4-mavzu. Markaziy Osiyoning Ahmoniylar davridagi tarixiy geografiyasi, Salavkiylar davlati, Yunon-Baqtriya davlati, Kushon podsholigi.....	77-90
5-mavzu. Markaziy Osiyoning ilk o`rta asrlar va XII- XIV asrlardagi tarixiy geografiyasi.....	90-97.